

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI  
FALSAFA KAFEDRASI**

**XV – XVIII ASRLARDA YAQIN VA O‘RTA SHARQ  
FALSAFASIDA GUMANIZM G‘OYALARI**

**FANIDAN  
MA‘RUZA MATNI**

Ta‘lim sohasi: 100000 – Gumanitar fanlar va san‘at

Ta‘lim yo‘nalishi: 120000 – Gumanitar fanlar

Magistratura mutaxassisligi: 5A120501 – Falsafa tarixi (yo‘nalishlar bo‘yicha)

Ma'ruzalar matni namunaviy dastur va ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi asosida barcha magistratura mutaxassisligi 5A120501 – Falsafa tarixi uchun “XV – XVIII asrlarda yaqin va o'rta sharq falsafasida gumanizm g'oyalari” predmeti bo'yicha tuzilgan.

**Tuzuvchi: Qodirov M.** – ToshDSHI «Falsafa» kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:** ToshDSHI «Falsafa» kafedrasida mudiri, falsafa fanlari nomzodi Po'latova D.A., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti «Falsafa tarixi va mantiq» kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi Karimov R.R.

Ma'ruzalar matni ToshDSHI O'UK da muhokama qilingan va tasdiqlangan.  
2011 yil 22.08 dagi   1   - sonli bayonnoma

## KIRISH

Falsafa yoʻnalishi talabarlari magistr bosqichi uchun milliy gʻoya va mafkuraning nazariy asoslarini chuqur oʻrgatish maqsadida “XII – XVIII asrlar Yaqin va Oʻrta sharq falsafasida gumanizm gʻoyalari” fani kiritilgan. Ushbu fan doirasida XII – XVIII asrlarda yashab ijod etgan Sharq mutafakkirlarining insonparvarlik gʻoyalari, ularning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy gʻoyalarini tahlil qilish asosida oʻrganiladi. Sharq falsafasidagi insonparvarlik gʻoyalarining oʻziga xos xususiyatlarini va namoyon boʻlish shakllarini (yoʻnalishlarini aniqlash orqali) Sharq mutafakkirlarining jahon falsafasi rivojiga qoʻshgan hissalariga eʼtibor qaratiladi. Insonparvarlik gʻoyalarining bugungi kunda jamiyat maʼnaviy yangilanishidagi oʻrni va mavqeiga, yoshlarning maʼnaviy barkamollikka erishishlaridagi ahamiyatiga alohida urgʻu beriladi.

### **Oʻquv fanining maqsadi va vazifalari**

**Oʻquv fanining maqsadi**–XII – XVIII asrlar Yaqin va Oʻrta Sharq falsafasida insonparvarlik gʻoyalarining mohiyatini tahlil qilish va uning yoʻnalishlarini koʻrsatish orqali magistratura talabalarining falsafiy bilimlarini mukammallashtirishdir.

### **Oʻquv fanining vazifalari:**

- Sharq mutafakkirlarining asarlarini birinchi manba sifatida oʻrganish orqali magistrlarda mustaqil tafakkur qilish, tahliliy fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish;
- Sharq falsafasida insonparvarlik gʻoyalarining namoyon boʻlish xususiyatlarini oʻrganish va uni tadqiq etishning asosiy tamoyillarini koʻrsatish;
- Insonning ijtimoiy-ilohiy mohiyati, uning bunyodkorlik faoliyati, axloqiy barkamolligi va bagʻrikenglik gʻoyalarining Sharq falsafasida ifodalanishini bilish;
- Insonparvarlik gʻoyalarining oʻzgarib borishiga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash va bu gʻoyalar rivojlanishidagi vorisiylkni oʻrganish;
- Magistrlarda birinchi manbalarni tahlil etib, ilmiy-ijodiy fikrlash, maqolalar yozish malakasini hosil qilish.

**Fan boʻyicha talabarning bilimiga, koʻnikma va malakasiga  
qoʻyiladigan talablar**

“XII – XVIII asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq falsafasida gumanizm g‘oyalari” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan vazifalar doirasida magistrant:

– XII – XVIII asrlar Yaqin va O‘rta Sharq, xususan, Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri taraqqiyoti; gumanistik g‘oyalarning vujudga kelishi; bu g‘oyalarning diniy-falsafiy va tabiiy-ilmiy manbalari, mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari; O‘zbekiston ijtimoiy-gumanitar fanlarida milliy g‘oyaning asoslanishi va rivojlantirilishida shu davrda mavjud bo‘lgan insonparvarlik g‘oyalarining o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lish;

– Sharq falsafiy tizimining tahliliy tamoyillarini; Yaqin va O‘rta Sharq, xususan, Markaziy Osiyodagi tasavvuf ta’limotlarini; tabiatshunos olimlarning ilmiy-falsafiy g‘oyalarini; Sharq falsafasidagi insonparvarlik g‘oyalarini o‘rganishga yondoshishning asosiy tamoyillarini; Sharq falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tafakkurini tahlil etish tamoyillarini; Sharq falsafasining birinchi manbalarini; XII – XVIII asr Markaziy Osiyo mutafakkirlarining inson muammolariga doir qarashlarini tadqiq qilish uslublarini; Sharq falsafasida hayot va o‘lim muammolarini o‘rganishni; XII – XVIII asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq falsafasidagi insonparvarlik g‘oyalarining O‘zbekistondagi hozirgi ijtimoiy hayot bilan uzviy bog‘liqligini bilishi va ulardan foydalana olishi;

– Qadimgi Sharq falsafasining g‘oyalari, ularning o‘rta asr Yaqin va O‘rta Sharq falsafasida rivojlantirilishini tahlil etish; XII – XVIII asrlardagi Markaziy Osiyo allomalarining tabiiy-ilmiy, falsafiy g‘oyalaridan tadqiqotchilik faoliyatida foydalanish; Sharq falsafasining insonparvarlik ta’limotini o‘rganish natijalarini umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish; Sharq falsafasi taraqqiyoti natijalarini tizimlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish zarur.

### **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslub jihatdan uzviy ketma-ketligi:**

“XII – XVIII asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq falsafasida insonparvarlik g‘oyalari” fani o‘quv rejadagi falsafiy fanlar bilan aloqadorlikka ega.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni:**

Milliy-ma’naviy merosimizni tashkil etuvchi manbalarga haqqoniy yondoshib, ilmiy tahlil natijasida hosil qilingan bilimlar barkamol avlodni tarbiyalashda, ularda insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini kamol

toptirishda, milliy g'oya va qadriyatlarni keng targ'ib qilishda muntazam qo'llaniladi.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar:**

“XII – XVIII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq falsafasida insonparvarlik g'oyalari” fanini o'qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, ob'ektivlik tamoyillariga amal qilingani holda an'anaviy usullar bilan bir qatorda “Insert jadvali”, “Baliq skeleti”, “Qanday diagrammasi”, “Aqliy hujum” kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

### **Asosiy qism**

XII – XVIII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq falsafasida insonparvarlik g'oyalari fanining o'rganish sohasi va asosiy tamoyillari.

Sharq falsafasidagi insonparvarlik g'oyalarining manbalari. Qadimgi Sharqdagi falsafiy-diniy ta'limotlarning insonparvarlik g'oyalari shakllanishiga ta'siri. Islom dinining Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida yoyilishi, turli diniy oqimlarning paydo bo'lishi. Hadisshunoslik va fiqh ilmi. Tasavvuf falsafasi.

Yaqin va O'rta Sharq falsafasi insonparvarlik g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari: insonning mohiyati masalasi, inson va jamiyatning o'zaro munosabati, axloqiy tarbiya masalalari, komil inson va ideal jamiyat g'oyasi.

Yaqin va O'rta Sharq falsafasida gumanizm g'oyalarining namoyon bo'lish shakllari: tarixiy asarlarda, badiiy adabiyotda, pandnoma asarlarda, diniy-falsafiy adabiyotda. Sharq falsafasidagi gumanizm g'oyalarni o'rganishga yondoshishning asosiy tamoyillari: ilmiy ob'ektivlik, manbalarni qiyosiy tahlil etish, tarixiylik va mantiqiylik.

Yaqin va O'rta Sharq falsafasida gumanizm g'oyalarining jahon falsafiy fikri taraqqiyotiga ta'siri va undagi o'rni.

### **1-mavzu. Insonparvarlik g'oyalarining qaror topishi.**

#### **Mavzuning o'quv maqsadi:**

Talabalarda ularning asosiy mutaxassislik fani bo'lgan Sharq falsafiy tizimlarining shakllanishi haqida tushuncha hosil qilish, Sharq falsafasining xalqimiz qon-qoniga singib ketgan insoniylik fazilatlarini asosi ekanligi to'g'risida ko'nikmalarni shakllantirish.

#### **Mavzuning tayanch tushunchalari:**

Sharq falsafasi, Sharq adabiyoti, sharqona tafakkur, asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash), diniy tasavvurlar, Hindiston, Misr, Xitoy, Baynalnahrin, Xuroson, Saljuqiylar, sulton Sanjar, darvishlik va tasavvuf, Asadiy Tusiy, Am'ak Buxoriy, Rashididdin Vatvot, Asiriddin Axsikatiy.

## **Asosiy savollar.**

1. Ijtimoiy-tarixiy sharoit
2. XII asr adabiyotining ba'zi xususiyatlari
3. Tasavvuf adabiyoti

1. Tarixiy davr XI asrning birinchi yarmida boshlangan saljuqlar yurishi O'rta yer dengizidan Shimoliy Xitoyning sharqiy o'lkalarigacha bo'lgan katta maydonni o'z ichiga olgan qudratli markazlashgan feodal davlatining tashkil topishiga olib keldi.

Saljuqlar turkmanlarning ajdodlari hisoblanuvchi o'g'uzlar yoki g'uzlar deb ataluvchi ko'chmanchi qabilalar birlashmasi edi. Ular Sirdaryoning quyi oqimidan chiqqan bo'lib, somoniy va g'aznaviylar xizmatida bo'lishgan.

1025 yilda Mahmud G'aznaviy ularga Movarounnahrda chiqib, Xuroson tomonlarda ko'chib yurishga ruxsat bergan. Ular asta-sekin butun Xurosonga tarqala boshlaganlar. Saljuqlar Eronning g'arbiy tarafidagi dashtlardan o'tib, Forsga, Baynalnahrin (Mesopotamiya) va Kavkaz ortigacha tarqalishgan.

Mas'ud davrida (1030 – 1040) O'rta Osiyolik saljuqlar g'aznaviylarga qarshi harakatga keladilar. G'aznaviylar zulmidan bezgan shahar aholilari ularni qo'llab-quvvatlaydilar. Bu vaqtda feodallar zulmiga qarshi tarqalib borayotgan tasavvufchilar jamoalari g'aznaviylarga qarshi chaqiriq, tashviqot va targ'ibot markazlari sifatida katta o'rin tutadilar.

1040 yilda Dandonakon yaqinida bo'lgan jangda Mas'ud mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng g'aznaviylar o'nglana olmaydilar. Ular mayda amirliklarda hokimlik qiladilar. Saljuqlar davlat boshqarish ishlariga mahalliy aslzodalarni jalb qiladilar. Ikki og'a-ini To'g'rulbek va Chag'ribek birgalashib harakat qiladilar. Chag'ribek Xurosonga hokimlik qiladi. To'g'rulbek esa yangi-yangi yerlarni bosib olishda davom etadi. Saljuqlar davlatining siyosiy markazlari Marv va Nishopur bo'lib qoladi.

Dandonakon jangidan keyin To'g'rulbek 15 yil davomida g'arbga yurib, Eron va Iroqni bosib o'tib, nihoyat 1055 yilda Bag'dodni ham oladi hamda xalifaga o'z hukmini o'tkaza boshlaydi. Bu yurishlarda shu joylarga avval ko'chib kelgan o'g'uz qabilalari To'g'rulbekni qo'llab-quvvatlaydilar. 1077 yilga kelib butun G'arbiy Osiyo, Afg'onistondan boshlab Vizantiya va Misr chegaralarigacha bo'lgan ulkan hudud saljuqlar davlatiga birlashadi. 1043 yildan keyin ular O'rta Osiyo va Xorazmni bosib olgan edilar. Faqat Buxoro va Samarqandda qoraxoniylar davlati biroz saqlanib turdi. Ammo 1097 yilda Malikshoh o'g'li Bo'rkyoruq tomonidan ular ham zabt etildi.

O'rta Osiyoning saljuqlar davlatiga batamom qo'shib olinishi 1130 yilda nihoyasiga yetkazildi. Bu Sulton Sanjar davri edi.

O'rta Osiyo va Eron dehqonlari, zamindorlari va aslzodalari o'z qarshiliklarini shialik va ismoiliya mazhabi orqali ifoda etadilar.

Saljuqlar davri adabiyoti xususiyatlarini quyidagilar belgilaydi:

- Saljuqlar yurishi natijasida forsiy tilning ta'sir doirasi kengaydi;
- Forsiy til she'riyatda va nasrda o'z mavqeini mustahkamladi;
- G'aznaviyalar davrida boshlangan saroy adabiyotining xalqdan uzoqlashish jarayoni davom etdi;
- Xalq noroziligi natijasida hayotda ham, adabiyotda ham bir-biriga muxolif, qarama-qarshi oqimlar paydo bo'la boshladi.

Saljuqlar davrining boshlanishidanoq xalq va yerli zodagonlar unga qarshilik ko'rsatishi tabiiy edi. Saljuqlar sunniy mazhabini qabul qilgan edilar. Shuning uchun ham Eron, Ozarbayjon va boshqa joylarda shialik mazhabi ularga qarshi qo'yildi. Bu kurashga diniy tus berar edi. Bundan tashqari, bu davrda ismoiliya mazhabi tarafdorlari ham bosh ko'tardilar.

Saljuqlardan uzoqda, ya'ni shimoliy Afrikada 909 yilda hokimiyatni Ubaydulloh qo'lga olgan edi. U Muhammadning qizi Fotima avlodlaridan edi. Shuning uchun Ubaydulloh asos solgan sulola Fotimiylar sulolasi deb yuritiladi. Uning davlati 1171 yilgacha yashadi. Fotimiylar davlati qisqa vaqt ichida Misr, Janubiy Suriya yerlarini bosib olib, qudratli davlatga aylandi va Qohira shahrini markaz qildi. Ular umuman xalifalikni yo'qotmoqchi bo'lib, unga qarshi yashirin tashviqot olib bordilar.

Agar shialar 12 imomni tan olsalar, fotimiylar faqat 7 imomni tan olar edilar va imom Ismoilni oxirgi imom hisoblashardi. Shuning uchun ularni Ismoiliylar ham deb yuritadilar.

Ismoiliylar Shimoliy Eron tog'larida Alamut qal'asini bosib oladilar. Qal'ada ularni pirlari yashaydi va ismoiliya harakatiga boshchilik qiladi. Pastda shayxlar murid ovlaydilar va purning ko'rsatmasi bilan ish tutadilar (ular haqiqiy Ismoil mazhabi a'zosi bo'lmoq uchun 10 pog'onadan o'tishlari lozim edi).

Bu pog'onalar orasida fidoiy pog'onasi ham bo'lar edi. Ular purning barcha topshiriqlarini fidoiylik bilan bajarar edilar. Juda ko'p davlat arboblari, siyosat va madaniyat arboblari ular qo'lida halok bo'lganlar, jumladan, saljuqlarning mashhur vaziri Nizomul Mulk 1092 yilda ular tomonidan o'ldirilgan edi. Malikshoh (1072 – 1092) o'limini ham ko'p olimlar ismoiliylardan ko'radilar.

Ammo shuni aytish kerakki, qattiq kurashlarga qaramay saljuqlar davrida, ayniqsa, uch saljuq shohlari – To'g'rulbek (1040 – 1063), uning jiyani Alp Arslon (1063 – 1072) va Malikshoh (1072 – 1092) larning hukmronligi davrida

O'rtta Osiyo, Xuroson, Eron yerlari bir davlat chegarasiga birlashdi. Davlat idora ishlari tartibga olinib, shaharlar o'sgan, savdo-sotiq va ilm-fan taraqqiy etishi uchun bir qadar shart-sharoit yuzaga kelgan.

Saljuq imperiyasiga kirgan har bir xalq o'z adabiyotini taraqqiy ettirgan. Masalan, eron xalqi adabiyoti bilan Iroq xalqining yoki Kavkaz orti xalqlarining adabiyoti orasida farq bor. Ammo shu bilan baravar bu adabiyotlar orasida mushtaraklik ham kuchli. Bir yerda paydo bo'lgan adabiy asar boshqa joylarga ham yetib borar edi.

**2. Mehsitiy Xo'jandiy.** Mahasti ham deb yuritiladi. Sulton Sanjar saroyida yashagan bu ziyrak va tiyrak shoira 1098 yilda Xo'jandda tug'ilgan. 20 yoshgacha u otasi yordamida tahsil ko'rib, o'sha vaqtlarda maktablarda o'qitiladigan faanlarni o'rganadi.

Bundan tashqari, u musiqiy ilmni ham o'rganib, chang, ud, barbat kabi musiqa asboblarni mahorat bilan chaladi, she'rlar yozadi.

Uning ovozasini Xurosonga, Eronu Ozarbayjonga yoyiladi. Mehsitiy otasi vafotidan so'ng (1118 yil) Ganjaga safar qiladi. U vaqtda Ozarbayjon hokimi Sulton Mahmud ibn Muhammad ibn Malikshoh shoirani saroyga taklif qiladi, ammo shoira Ganjadan chiqib ketadi, bir qancha vaqt Balx va marvda yashagandan so'ng Sulton Sanjar saroyiga xizmatga kirib, yuqori martabalarga erishadi. Bu vaqtlarda u Umar Xayyom, adib Sobir Termiziy, Anvoriy va boshqalar bilan adabiy aloqada bo'ladi.

Sulton Sanjarning suhbatdoshi Mehsitiy shohning juda ko'p qonli urushlari, katta xalq fojealari, qoraxitoylar yurishi, g'uzlar isyoni kabi qonli voqealar guvohi bo'ladi.

O'z vataniga qaytib kela olmagan shoira 1153 – 1154 yillarda Ganjaga qaytadi va umrining oxirigacha shu yerda yashab qoladi.

Shoiraning o'zi "Chorgohi Mehsitiy" nomi bilan tuzgan devoni bizgacha yetib kelmagan. Uning she'rlari boshqa asarlarda, jumladan, Javhariy Zargarning romanida saqlanib qolgan. Ular asosan ruboiylar, bir necha g'azal va boshqa she'rlardan iborat. Ular bir kitobga jamlanib, Tehronda bosilgan (1957).

Erksevar shoira o'z she'rlarida mazluma ayollarning huquqsizligiga qarshi isyon qiladi, qator illatlarni fosh etadi. Uning Shahroshub silsilasiga kirgan ruboiylari ham diqqatga sazovor.

**So'zaniy Samarqandiy.** Manbalarning ba'zilarini Shamsiddin Muhammad ibn Ali So'zaniy Samarqand yaqinidagi Kalosh qishlog'idan deb ko'rsatsa, ba'zilarini Nasaf shahridan deb ko'rsatadi. Uning "Toj ush-shuaro" laqabi bo'lgan. Shoirning tug'ilgan yili noma'lum, vafotini 1166 yil deb taxmin qiladilar.



Uning devoni 10 – 12 ming baytdan iborat bo‘lib, Tehronda bosilgan. Unda hajviy she‘rlarga keng o‘rin berilgan. Hunarmandlardan chiqqan bu shoir hukmdor tabaqa vakillariga qarshi o‘tkir satiralar yozgan, saroy she‘riyatiga askiyalar qilgan. She‘rlarida shahar hayotidan olingan qiziq sahnalar uchraydi. Ammo hajviy she‘rlari behayo haqoratlar bilan to‘la. So‘zaniy umrining oxirida G‘aznaga borib Sanoiyga murid bo‘lgan va tavba-tazarru qilib, bir necha tasavvufiy asarlar yozgan.

**Rashididdin Vatvot.** U 1114 – 1116 yillar orasida balxda tug‘ilib, 1178 yoki 1182 yilda vafot etgan. Vatvot Xorazm shohi saroyida xizmatda bo‘lgan va she‘riyat ustozini hisoblangan. Boshqa shoirlar unga ergashganlar. Xorazmshohlar idorasining butun yozishmalarini Vatvot olib borgan. Uning bu maktublari o‘z xati bilan to‘plam sifatida asrlar davomida ko‘chirib yozilgan va qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, kotiblarga namuna bo‘lgan. Uning she‘rlari yuksak mahorat namunasi, ammo ularda yurak sezgisi va hissiyot yetishmaydi. She‘riy san‘atlar esa farovon. U adabiyot nazariyasi bilan ham shug‘ullangan va “Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she‘r” nomli kitob yozgan. Unda ko‘p qadimiy shoirlar asarlaridan namunalar bor.

Vatvot o‘z davri shoirlari – Hoqoniy, Anvoriy, Sanoiy, Adib Sobir Termiziy va boshqalar bilan xat yozishib turgan. Undan ilmiy asar, hikoyalar, she‘rlar qolgan. Uning qasidalarida ko‘proq xorazmshoh Otsizning harbiy yurishlari, janglari tasvirini topamiz.

Qasidalar va she‘rlarida shohlarga nasihat qilib, ularni yaxshi yo‘lga boshlashga, ezgulikka undashga harakat qilgan.

**Asiriddin Axsikatiy.** Abulfazl Muhammad Tohir Asiriddin Axsikatiy Farg‘ona yaqinidagi Axsikat degan joyda 1108 – 1110 yillarda dunyoga kelgan. So‘ng Balxda o‘qigan. U o‘z zamonasida taraqqiy topgan ilmlarni o‘rgangan. Hirot va Marvda yashagan, avval Xurosonga, g‘uzlarning hujumidan keyin esa Iroqqa ketgan. Uning qasidalaridan ma‘lum bo‘ladiki, shoir Ozarbayjon bilan ham yaqin aloqada bo‘lgan. To‘g‘rulbek va Qizil Arslon saroylarida xizmat qilib “Malik ash-shuaro” darajasiga yetgan. Hasadchilar uni kofirlikda ayblaganlar. Qizil Arslon ham shoirni quvg‘inga uchratgan.

Axsikatiy o‘z she‘rlarida saroy ahlining munofiqligi, makkorligi va ochko‘zligini qattiq tanqid ostiga oladi. Ko‘rgan-kechirganlari mulohazasi uni “shohlarga bag‘ishlangan she‘rlar befoyda ekan” degan xulosaga olib keladi. Umrining oxiri kambag‘allik va uzlatda o‘tadi. U 1196 – 1211 yillar orasida Ozarbayjonning Xalxol degan qishlog‘ida vafot etadi.

Uning devoni 1313 yilda Koshiy degan odam tomonidan kitobat qilingan va Hindistonda saqlanadi. Unda 120 qasida, 220 g‘azal, 80 qit‘a, 80 ruboiy, 4

tarkibbandu tarje'band va 24 fard mavjud. Qasidalar vasfida yil fasllari tasviri, hasbi-hol, pandu hikmat, tag'azzullar ko'proq uchraydi.

Uning g'azallari ravon va tushunarli tilda yozilgan. Shoir she'rlarida inson tabiatidagi tubanliklarni qoralasa, oliyjanob insoniy hislarni, oliy himmatlik, axloqiy yuksaklik, xoksorlik, insondo'stlik, sabru toqat, ilmido'stlik kabi xislatlarni tarannum etadi.

Uning she'rlari Xuroson va Iroq uslubida yozilgan.

Nasr taraqqiyotda nazmga nisbatan ancha orqada qolishiga qaramay XII asrga kelib, bir qator nasriy asarlar ham maydonga keldi. Ular asosan tarjima asarlari edi. Masalan, 1144 yilda G'aznada "Kalila va Dimna" ning yangi matni (Abul Maoliy Nasrulloh asari), 1160 yilda esa yangi "Sindbodnoma" ijod etildi. 1156 yilda Balxda "Maqomoti Hamidiy" yuzaga keldi.

Bu kitoblarning uslubi ancha murakkablashgan edi. Masalan, "Maqomoti Hamidiy" da nasrning musajja' va murajjaz turlari aralashib ketganligini, she'riy parchalar, arabcha so'zlar va so'z birikmalarining kshplab qo'llanishini ko'ramiz. Bu esa, albatta, o'sha zodagonlar adabiyoti, saroy adabiyotining ta'siri edi.

Shu bilan birga, "Kalila va Dimna" da ham, "Maqomoti Hamidiy" kitobida ham xalq iboralari, insoniy fazilatlarini targ'ib qiluvchi pandu nasihatlar ham uchraydi. Bu davrda Faromurz ibn Xudodod ibn Abdullo al-Kitob al-Arjoniy "Samaki ayyor" kitobini tartibga soladi. Uni Sadoqa ibn Abdulqosim Sheroziy og'zidan yozib oladi.

Qissa voqealari Eron, Armaniston va ba'zi arab mamlakatlarida sodir bo'ladi. Bu asar uch jildda Eron olimi Parviz Notil Xonlariy tomonidan tayyorlanib, 1964 yilda Tehronda nashr etilgan.

Bundan tashqari, diniy, ilmiy, falsafiy va tarixiy kitoblar ham yozildi. Bular orasida Abu Homid G'azzoliyning (vafoti 1111 yil) "Tahofat ul-falosifa" ("Faylasuflarga raddiya"), "Al-munqiz min az-zilol" ("Xatodan qutqarish"), "Ihyo ul-ulum ad-din" ("Diniy ilmlarni qayta tiriltirish") kabi asarlarni ko'rsatish mumkin.

Bu davrning ulug' olimlaridan biri Abulfath Umar ibn Ibrohim al-Xayyom falsafa, riyoziyot, astronomiya va boshqa sohalarda bir necha kitoblar yozdi. U Ibn Sinoning bir necha risolalarini arabchadan forsiyga tarjima ham qilgan. Yana bir olim Bahouddin Abubakr Muhammad Marvaziy (vafoti 1139 yil) Xorazm shohi Otsiz saroyida xizmatda bo'lib, geografiya va matematikaga oid bir qancha asarlar ta'lif etgan.

Abulfath Abdurahmon al-Mansur al-Haziniy astronomiya sohasida ishlab "Zij as-Sanjariy" va falsafadan "Mezon ul-hikmat" kitoblarini yozgan.

Zamonning mashhur faylasuflaridan biri Shahobiddin Abulfutuh Yah'yo Suxravardiy (1165 – 1191) arab va forsiy tillarda falsafa, tasavvuf, hikmati ilohiy (metafizika) sohalariga oid asarlar yozib qoldirgan. Uning falsafiy ta'limotida Eronning islomdan oldingi falsafiy fikri, ya'ni otashparastlik falsafasining ta'siri kuchli edi. Shuning uchun ham mutaassib musulmon ulamolari uni qatl ettirganlar.

O'sha davrning yana bir ulkan faylasuf olimi Faxriddin Muhammad Roziy (vafoti 1210 yil) ham falsafa va tibdan bir necha asarlar yozib qoldirgan. U ham Ibn Sino falsafasiga qarshi chiqadi. Lekin shu bilan birga, u Ibn Sinoning "Al-Qonun" asariga sharh ham yozgan.

Bu olimlar o'z asarlarining asosiy qismini arab tilida yozgan bo'lsalar-da, ammo forsiy tilda ham kitoblar yozib qoldirganlar.

XII asrda adabiyotshunoslikka oid, til va lug'at kitoblari ham maydonga kelgan. Bular orasida Ali ibn Ahmad al-Kotib Atobak al-Juvoniyning "Atabat ul-kataba" kitobini va Bahouddin Muhammad ibn Muayyid al-Bag'dodiyning "At-tavossul ila at-tafassul" kitoblarini ko'rsatish mumkin. Bu kitoblarda mualliflar rasmiy va g'ayrirasmiy maktublar, ularni qanday yozish xususida so'z yuritadilar va ko'p namunalar keltiradilar. Bu asarlar badiiyot ilmidan, badiiy san'atlardan bahs yuritadi.

Bu davrda tarixiy kitoblar yozish ham rivoj topadi. O'rta Osiyo va Eron tarixiga oid kitoblar asosan forsiy tilda yoziladi, ilgari arab tilida yozilganlari ham endilikda forsiyga tarjima qilinadi. Bulardan muhimlari quyidagilar:

**"Majma ut-tavorix val-qisos"**. Bu asar hijriy 520 – milodiy 1126 yillarda yozilgan bo'lib, kitob muallifi noma'lum. Olimlar uni hamadonlik yo astrobodlik deb gumon qiladilar. Kitob 25 bobdan iborat bo'lib, arab va ajam xalqlari tarixining eng qadim zamonlardan to XII asr avvaligacha bo'lgan davrini yoritadi. U qadim davrlar tarixini o'rganishga va esdan chiqib ketgan ba'zi istilohlarni esga tushirishga yordam beradi.

**"Forsnoma"**. Muallifi Ibn al-Balxiy asli xurosonlik bo'lib, Malikshoh davrida Fors hokimi Xumortekin xizmatida bo'lgan. Bu asar XII asr boshlarida yozilgan. Kitob qadim Eron tarixi – peshdodiylar, qayoniylar, ashkoniylar, sostoniylar hamda Iskandar Maqduniy davriga bag'ishlangan. Muallif o'z davrida Fors viloyatining siyosiy, iqtisodiy, geografik holati haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

**"Rohat us-sudur va oyat us-surur"**. Kitob muallifi Najmiddin Abubakr Muhammad Rovandiy bir necha yil saljuqlar xizmatida bo'lib, 1193 yilda Kichik Osiyoga kelib, G'iyosiddin Kayxusrav huzurida kitobini oxiriga yetkazgan. Saljuqiylar tarixini boshidan oxirigacha yoritib bergan. Bu kitob

nihotda yuksak badiiy uslubda yozilgan. Unda boshqa shoirlar ijodidan va muallifning o‘z she‘rlaridan parchalar keltiriladi.

Arab tilidan tarjima qilingan asarlardan quyidagi ikki kitobni ko‘rsatish mumkin:

“**Tarixi Buxoro**”. X asrda Muhammad ibn Ja‘far Narshaxiy tarafidan yozilgan bu kitobni 1128 yilda Abu Nasr Ahmad Qavobiy tarjima qiladi. So‘ng 1175 yilda Muhammad ibn Zufar ibn Umar uni qaytadan ko‘rib, tahrir etib chiqqan. U “Tarixi Narshaxiy” nomi bilan mashhur.

“**Tarixi Yaminii**” yo “**Tarixiy Utbiy**”. Utbiy va uning kitobi haqida yuqorida gapirgan edik. Bu kitob ham 1207 yilda Abusharaf Noseh Jorfozqoniy tarafidan forsiy tilga o‘giriladi.

Yuqoridagi asarlardan tashqari bu davrda tasavvuf va taassubga, din va mazhablarga oid kitoblar ham forsiy tilda yoziladi.

Umuman, forsiy til siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha sohalarida arab tilini siqib chiqara boshlaydi.

Bu davr nasri 3 yo‘l bilan rivojlanadi:

- 1) Davlat yozishmalarida;
- 2) Tarixiy asarlarda;
- 3) Badiiy adabiyotda.

Buning sababi – bizning zamonamizda badiiy hisoblanmagan davlat yozishmalari va tarix kitoblari u vaqtda badiiy adabiyotning hamma talablariga javob beradigan darajada yozilar edi. Shohlar saroyida ham ko‘pincha yuqori malakali madaniyat va adabiyot arboblari, katta mahorat egalari, shoir va yozuvchilar kotiblik qilar edilar. Ular davlat hujjatlariga badiiy asar deb qarashar edi, ularni badiiy ifoda vositalari va she‘riy parchalar bilan bezatishardi. Shuning uchun ham Rashid Vatvot o‘zining “Hadoyiq us-sehr...” kitobida badiiy san‘atlar haqida gapirar ekan, ularni dabir yo shoir qanday ishlatishi mumkinligi haqida ham maslahatlar beradi.

XII asr adabiyotiga umumiy bir nazar tashlar ekanmiz, quyidagilarni mushohada etamiz.

Saljuq yurishlari natijasida yuzaga kelgan katta imperiyada shaharlar taraqqiy etdi, savdo-sotiq avj oldi, karvon yo‘llari jonlandi. Bular esa ilmu hunarning rivojlanishiga yaxshi omil bo‘ldi. Shahar xalqi orasida yangi g‘oyalar paydo bo‘la boshladi. Feodalizmga qarshi unga zid dunyoqarashdagi oqimlar shakllandi va rivoj topdi. Bu g‘oyalar adabiyotga kirib keldi va an‘anaviy saroy adabiyotining asosiy yo‘nalishi bo‘lgan kibor ahliga maddohlik yo‘nalishi bilan bir qatorda, unga ruhan zid bo‘lgan adabiyot oqimi paydo bo‘ldi. Uning mundarijasi ham boshqacha, shaklan esa rango-rang edi.

Saljuqlar davrida XI asr o'rtasidan XIII asr boshlarigacha adabiyotda ikki oqim, ya'ni an'anaviy saroy adabiyotidagi maddohlik oqimi va unga zid ravishda shahar aholisi g'oyalarini ifoda etuvchi oqim o'zaro kurashib, talashib rivoj topdi. Ko'pincha, hatto bir shoir ijodida ham bu ikki oqim kurashlarini mushohada qilish mumkin.

Gumanistik mazmunga ega bo'lgan ikkinchi oqim namoyandalari adabiyotga shakkoklik g'oyalari – ismoiliya va tasavvuf g'oyalarini olib keldilar. Endi qasida ham inqirozga yuz tutdi. Sanjarning o'limidan keyin mayda xonliklarga bo'linib ketgan mamlakatda mayda amir va beklarga qasida bag'ishlamoqlikning o'zi kulgili bo'lib qoldi.

Shoirilar saroyma-saroy kezib yurish, yoki umuman saroydan tashqarida "ozod" yashash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Qasidaning mundariyasi o'zgardi. She'rlarda ijtimoiy tengsizlik, mulkiy tengsizlikka qarshi kayfiyatlar, axloqiy mavzular kuchaydi. Unda taxallus mustahkam o'rnini topdi. Qit'a va ayniqsa, ruboiy kabi xalqona shakllar yaxshi rivojlandi va keng tarqaldi.

Endi adabiyotda, ayniqsa, she'riyatda ochlik-yupunlik tasviri, ilmu hunar maqtovi, inson hayotining noqisligi, oddiy inson tashvishlari, uning orzu-umidlari, sevgi va nafrati haqida yozila boshladi. Shoiralarda siyosiy va falsafiy fikrning o'zgargani esa ular dunyoqarashi yangilana boshlaganidan darak beradi. Darvishlik va tasavvuf kuchaydi.

Tasavvuf ta'limoti murakkab va xilma-xildir. Ammo uning ko'pchilik oqimlariga mansub bo'lgan xususiyat shundan iboratki, u sof sub'ektiv idealizm falsafasiga va chuqur pessimistik, ochiqdan-ochiq mistik xarakterga ega.

Tasavvuf ta'limoti quyidagi uch nuqtaga tayanadi:

1. Zuhd va zohidparastlik (asketizm), VII – VIII asrlarda paydo bo'lgan bu harakat islom dini talablariga to'g'ri kelmaydi. Zohidlar tarki dunyo qilib, darveshlikni bo'yinlariga olib, qo'pol jun chakmon kiyib yurganlar va sufiy nomini olganlar. Bularning ilk va mashhur namoyandalari sifatida Qulzoda Hasan Basriy (vafoti 728 yil) va yo'lto'sarlikdan tavba qilgan Fuzayl ibn Iyoz (vafoti 805 yil) ni tilga olish mumkin.

2. Ishq-muhabbat. Asoschisi Abbosiylar davrida yashagan Robia (vafoti 801 yil) nomli naychi kanizak hisoblanadi. U faqat Allohga bo'lgan muhabbatni tan oladi, duo va ibodatlarni she'rga solib, musiqa hamda raqs bilan ijro etadi.

3. Yunon falsafasidan olingan vahdati vujud (panteizm) ta'limoti.

Tasavvuf ta'limotiga bulardan tashqari, hind, ellinizm, xristianlik falsafasi va turli falsafiy oqimlarning ham ta'siri kuchlidir. Professor Bertelsning

ko'rsatishicha, shaharlarda futuvva yo juvonmardlar tashkiloti bo'lgan. Bu tashkilot a'zolari ham tasavvuf shayxlarining majlis-ma'rakalariga faol qatnashganlar. Bu majlis va targ'ibotlarning qatnashchilari orasida hunarmandlar ko'p bo'lgan. Masalan, tasavvuf arboblari orasida haddod (temirchi), sarroj (egarchi), kassor (quruvchi) va hakazolar ko'p uchraydi.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, vujud olamining manbai – Xudo va borliq ham uning O'zi. Ammo bu masalada ham tasavvufchilar yaxlit bir fikrda emaslar.

Bu masalaga tarixda asosan uch xil javob bo'lgan:

1. Bir qancha faylasuflar, yozuvchilar aytganlarki, dunyo birginadir, birgina tabiat bordir. Ularning ba'zilar fikricha, bu tabiat moddiydir, boshqalari fikricha, tabiat Xudoning zuhuri, gavdalanishidir, ya'ni ruhiydir, ilohiydir. Masalaga bunday moddiyuncha yondashganlar dunyo, tabiat go'zaldir, yoqimlidir, lazzatlidir, aldanchi emasdir, haqiqiydir va undan to'liq foydalanish zarurdir, deganlar. Bular hayotiydardir.

2. Ba'zi mutafakkirlar, yozuvchilar aytganlarki, bu dunyo muvaqqatiydir, aldanchidir, narigi dunyo, undagi hayot asosiydir, doimiydir, yagona chin, eng komil, eng qiymatli oliy borliq Xudo bo'lib, tabiat, undagi narsalar o'sha Xudoning tajalliysidir, tabiat, undagi lazzatlar, go'zalliklar, undagi hayot aldanchidir, g'ayri komil, qiymatsiz g'urbatxona, g'amxona, qafasdir. Undan voz kechish kerak, Xudo vasliga vosil bo'lish lozim.

3. Ba'zilar aytganlarki, bu dunyo, tabiat bor, undagi hayot bor; bu tabiat, undagi hayot go'zaldir, lazzatlidir va undan foydalanishdan bosh tortish kerak emas. Shu bilan birga, bu dunyodan, tabiatdan, undagi hayotdan boshqa dunyo, hayot ham bordir.

Sharqda bu oqimlar orasida, xususan, birinchi va ikkinchilar orasida bir qancha asrlar mobaynida juda keskin kurash davom etdiki, u g'oyaviy kurashning eng asosiy ko'rinishlaridan bo'ldi.

Sharqdagi tasavvuf o'z boshlanishini uzoq tarixlardan olgan falsafiy maslakdir. Garchi islom dinining maydonga kelib chiqishidan avval ham uning ayrim, tizimlashtirilmagan ko'rinishlari bor bo'lgan bo'lsa-da, lekin, asosan, islom dini maydonga kelganidan keyin katta yer egalari, zodagonlar zulmining keskinlashishi va buning natijasida adolatsizlik, qashshoqlikning va bularga qarshi ko'tarilgan noroziliklarning olovlanib ketishligi natijasida ham rivojlandi, bir qancha shohobchalarga ega bo'lgan falsafiy oqimga aylandi.

Sharqda tasavvufning paydo bo'lishi va rivojlanishida buddaviylik ham anchagina ta'sir ko'rsatgan. Sharqda juda mashhur bo'lgan Aflotun, Arastu, Plotinning idealistik, mistik tomonlari ham kattagina ta'sir ko'rsatgan edi. Xususan, Aflotunning, navaflotunchilarning yakkaxudolik qarashlari xudo qandaydir bir makonsiz va zamonsiz, mutlaqi borliqdir, narsalar esa uning

zuhuridir, xudo qarshisida ular hechdirlar, insonning vazifasi – intuisiya (tuyg‘u, jazava) mushohada yo‘li bilan, jonli hayotdan yuz o‘girib, xudoni bilishdir, degan ta‘limotlarini ilgari surganlar.

Arastuning, ayniqsa, shakl, aql haqidagi ta‘limotlari tasavvufning tug‘ilib rivojlanishiga chuqur ta‘sir etgan edi...

Ilk tasavvuf diniy arboblari va yirik yer egalari, hukmron doiralarga qarshi o‘laroq rivojlandi. Mutasavvuflar islom dinining ko‘plab asosiy ta‘limotlariga (jannat, jahannam, Qur‘on, payg‘ambar va h.k.) istehzo bilan qaradilar, uni taftish qildilar. Shuning uchun ham tasodifiy emaski, islom peshvolari mutasavvuflarning ba‘zilarini (Xalloy, Boyazid Bistomiy va h.k) o‘ldirdilar, hurufiy Imomiddin Nasimiyning terisini shildilar.

Sufiylarning fikricha, xudo vasliga vosil bo‘lish uchun, u bilan vahdat tashkil etish uchun to‘rt bosqichni o‘tash kerak:

1. **Shariat**: diniy marosimlarni va shariat aqidalarini, taqvolarni aynan, izchil suratda bajarish; Xudoga ibodat qilish.

2. **Tariqat**: shayx yoki darveshga shogird tushib, murid bo‘lib, yer yuzidagi lazzatlardan voz kechish, nafsni tiyish, xushnudlik bilan xudo to‘g‘risida o‘ylash, xilvatda yashash, ma‘naviy muhabbatni chuqurlashtirib, faqat xudo to‘g‘risidagina xayol surish, o‘ylash, eslash, zikr qilish.

3. **Ma‘rifat**: hamma narsaning, butun borliqning asosi Xudo ekanligini, narsalar uning qarshisida hech qanday qiymatga ega emasliklarini, o‘zining mohiyati xudo mohiyati bilan bir ekanligini bilish va aniqlash. Bunda odam uchun barcha dinlar, dunyoning barcha hodisalari bir xil, farqsiz, ma‘nosiz, keraksiz bo‘lib ko‘rinadigan bo‘ladi, ularga odam beparvo qaraydigan bo‘ladi. Shu bilan u orif (tanigan) bo‘ladi.

4. **Haqiqat**: bunda u o‘zini Xudoning dargohiga yetishgan, vasliga vosil bo‘lgan, deb biladi, Xudo bilan bir, u bilan vahdat (tavahhud) tashkil etadi, Xudoda tajassum etadi. U foni nomini olishga haqli bo‘ladi va “anal-haq” deya oladi...

Tasavvuf taraqqiyoti tarixida bir necha oqim va yo‘nalishlar bo‘lgan. Birinchi oqim namoyandalari islom ahkomlariga keskin munosabatda bo‘lganlar. Ularning ba‘zilari o‘zlarining ta‘limotlari uchun islom ruhoniylari tomonidan qatl etilgan edilar, boshqalari esa quvg‘inda, tahdid ostida bo‘lgan edilar. Lekin sufiylarning bu qarshiliklari passiv xarakterda bo‘lib, o‘z noroziliklari yo‘lida faol, amaliy kurashish, ommani shunday kurashga chaqirish holati bo‘lmagan edi.

Bunday sufiylar bu dunyoda baxtning bo‘lishi mumkin emas, tabiat alam uyidir, g‘urbatxonadir deb, haqiqiy baxtni, chin xurramlikni, asl hayotni tabiatda

emas, xudo vaslida, u bilan birlashishda, foniylilikda ko‘rdilar, tarki dunyochilik, riyozat yo‘liga kirdilar.

Endi tasavvufning ikkinchi oqimiga qisqacha to‘xtalaylik. Unga eklektik oqim deb nom bersa bo‘ladi. Bu oqimga mansub bo‘lganlar yuqorida zikr etib o‘tilgan sufiylarning fikrlarini ham ma‘lum darajada va anchagina jihatdan qabul qilganlar, lekin ularni islom dini tartib-qoidalariga uyg‘unlashtirish uchun intilganlar, shunday tasavvuf oqimi bilan islom dinini birlashtirish, kelishtirish ishi bilan mashg‘ul bo‘lganlar, ma‘lum ma‘noda, eklektik dunyoqarashni yaratishga harakat qilganlar.

Bu oqimning eng ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan va unga asos soluvchilaridan biri mashhur Zayniddin ibn Muhammad Imom G‘azzoliy (1058 – 1111) edi.

U aytadiki, insonning ruhi, joni dunyoviy ruhning (G‘azzoliy atamasi bilan aytganda, vojib ul-vujudning – Xudoning) vaqtincha, ma‘lum qisqa vaqtga ajralib chiqqan bir bo‘lagidir va o‘lmasdir, ko‘chuvchidir. U inson tanasida vaqtincha bo‘ladi: tana u uchun qafasdir, qullik, pastlik zanjiridir. Tana muvaqqatiy, ruh, jon esa abadiydir. Bir vaqt bu ruh tana mahbusligidan ozod bo‘ladi va yana dunyoviy ruhga qo‘shiladi, qaytadi. Boshqacha atyganda, inson xudo vasliga yetadi, abadiy baxtga erishadi, abadiy saodatga ega bo‘ladi, har qanday alamdanda, biror narsa to‘g‘risida g‘am chekishdan qutuladi, eng oliy, abadiy sharaflil hayotga erishadi.

Masala shundaki, bu o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Bunga yetish uchun inson ma‘lum shartlarni bajarishi, muayyan yo‘llarni o‘tishi shart. G‘azzoliy fikricha, bu shartlar quyidagilardan iborat:

– Islom dinining ahkomlarini, qonun-qoidalarini, aqidalarini, uning Qur‘onini hamisha haqiqat deb bilsin, ularga tobe bo‘lsin, ularni so‘zsiz bajarsin. Islom arboblarning, ruhoniylarning, shayxlar, darveshlarning aytganlarini qilib, ularga mute bo‘lsin, o‘zini butunlay din yo‘liga bag‘ishlasin;

– Xudoga, xilvatga, o‘zlikda chuqurlashishga, tuyg‘uga, ichki mushohadaga, shunday qilib Xudoni bilishga intilish zarur. G‘azzoliy boshqa joyda yozadi: “O‘rganish yo‘li bilan emas, balki o‘zdan chekinish, jazava va ma‘naviy vujudning qaytadan tug‘ilishi orqasidagina oxirgi chegaraga erishish mumkin ekanligi menga ma‘lum bo‘ldi”. Demak, G‘azzoliy dunyoqarashida hech qanday yangilik yo‘qdir. Undagi “yangilik” eklektizmdir.

3. Tasavvufning uchinchi oqimiga yana bir ko‘zga ko‘ringan vakil 1166 yilda vafot etgan mashhur sufiy Ahmad Yassaviy kiradi:



“Dunyoparast nojinslardan bo‘yin tovla,  
Bo‘yin tovlab, daryo bo‘lib toshtim mano”.

Insonning asosiy maqsadi xudo vasliga yetish, unda foniy bo‘lish, u bilan vahdat tashkil etishdir, buning uchun o‘zlikdan, o‘z fardligidan iz qoldirmaslik va jannatdan o‘rin olishga intilish lozim.

Buning uchun odaminning aytganlarini bajarishi, ko‘p sufiylar, jumladan, Yassaviyning o‘zi tomonidan tayinlangan shariat, tariqat, ma‘rifat, haqiqat kabi bosqichlarni o‘tishi kerak, o‘zligidan voz kechishi, o‘zini xilvatga tortib, fikru zikrini xudoga berishi, har qanday azoblarga chidashi shart... Yassaviychilik to‘XIV asr boshlarigacha islom dini bilan birga hokim edi. XIV asr boshlariga kelib mistik dunyoqarash o‘z o‘rnini dunyoviy oqimga, reallik, voqeyiy hayot, tabiat bilan bog‘liq mafkuraga berdi. Shunday ruhda bo‘lgan yangicha adabiyot unib, ko‘kara boshladi.

Bu oqimning bir yo‘nalishi Naqshbandiya edi. Bu oqim mashhur axiylikning bir ko‘rinishi edi.

Ismoiliylar harakati va Nosir Xisrav ijodi ham insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilar edi.

Ismoiliya g‘oyalari tasavvufga qaraganda bid‘atga berilganroq edi. Ularning tarafdorlari mutaassib islom ulamolariga qarshi chiqib, ba‘zan hatto islom dinini rad etish darajasiga borib yetar edilar. Ular hokimiyat uchun kurashib, o‘z maqsadlari yo‘lida siyosiy kurashdan ham, qurolli isyondan ham, qo‘poruvchilik yo‘lidan ham toymas edilar.

Abumuiniddin Nosir Xisrav 1004 yilda Qubadiyon shahrida dehqon oilasida dunyoga keldi. Amudaryo bilan karvon yo‘li kesishgan joydagi bu shahar XI asrlarda faqat qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilangina mashhur bo‘lmay, balki savdo-sotiq hamda hunarmandchilik ham taraqqiy topgan joy edi. Qubadiyonning qoldiqlari hozirgi Tojikistonning Nosir Xisrav shahri chetlaridadir.

Nosir yoshligidanoq maktabda o‘qib, juda yaxshi bilim oladi. So‘ng Marvga borib bilimni oshiradi va mustaqil ravishda ilmiy kitoblar mutolaa qiladi. U falsafa va matematika fanlarini ham chuqur o‘rganadi. She‘riyatga qiziqadi va o‘zi ham she‘r ijod qiladi. 26 yoshlarida Nosir Balxga keladi va Mahmud G‘aznaviy saroyiga dabirlik xizmatiga kiradi. So‘ngroq u Marvda saljuq davlat idoralaridan birida xizmat qiladi. Ammo bu vaqtda uning olimlik va shoirlik shuhrati ham yoyila boradi.

Nosir Xisrav bu davrda ulug‘ vatandoshlari Abu Ali ibn Sino va Forobiy asarlarini chuqur o‘rganadi hamda butun umrga ularning sodiq shogirdi va davomchisi bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, u qadimgi dunyo faylasuflari Suqrot, Aflotun, Arastu ta‘limotini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. U o‘sha davrdagi ilmu

fanning boshqa hamma sohalari bilan ham chuqur tanishadi va ulardan foydalanishga harakat qiladi. shoirning o‘zi bu haqda:

Bilim qidirishga urdim boshimni,

Bekor o‘tkazmadim umrimni bir dam...

Qaydagi eshitsam ilmu donishdan

Eshigi tagida o‘ltirdim mahkam...

Bo‘ladi ko‘pmi-oz foydalanganman,

Umrinda biror ilm qolmadi, desam.

Bilim doirasi shu darajada kengaygan shoirni eng yuqori materiya – inson miyasi va uning mahsuloti aql-idrok, ong haqidagi falsafiy masalalar ham, o‘sha davr aqidalarida oddiygina ko‘ringan turli mansabdagi va turli mutaxassislikdagi kishilar orasidagi munosabatlar ham qiziqtiradi. U olamning tug‘ilishi, dunyo asoslari, uni harakatga keltiruvchi kuchlar, hayot boyliklarining ijodkorlari – mehnat ahlining ahvoli haqida chuqur mulohazalarga boradi.

Shunday masalalar haqida fikr yuritar ekan, u islom dinining aqidalariga e‘tiqodini yo‘qotadi. Uning tub masalalarini mulohazasidan o‘tkazib, tekshira boshlaydi.

Moliya idoralarida ishlab, xalqning juda og‘ir qashshoqligini, yupunligini, etik tikkan kosibning o‘zi choriqqa muhtoj, bug‘doy ekan dehqonning o‘zi doim och ekanligini ko‘radi. Bu ahvol shoirning hassos qalbida g‘alayon ko‘taradi. Xisrav bu nohaqliklarning tub tomirini topib, qirqib tashlash yo‘llarini izlaydi. Ammo dahshatli hayotdan qutulish yo‘llarini topolmagan shoir, yurakda yongan olovni uzum suvi bilan o‘chirmoqchi bo‘ladi, ba‘zan haftalab mayga beriladi.

Ammo shoir yurakni ezgan nohaqliklardan, zulm va jaholatdan qutulish yo‘li bu emas, kishi hayotdan qochishi kerak emas, balki boshqacha bir yo‘l – kurash yo‘lini topishi zarur ekanligini tushunib yetadi.

Ulug‘ mutafakkir 1045 yil dekabrda safarga chiqib, 1052 yil oktyabrigacha – 7 yil sayohat qiladi. bu safarda u musulmon sharqining deyarli hamma o‘lkalarini, jumladan, Ozarbayjon, Kichik Osiyo, Suriya, Hijoz va boshqa o‘lkalarni ko‘radi. To‘rt marta Makkada va uch marta Misrda bo‘ladi. Bu vaqtda Misrda qarmat va ismoiliya deb atalgan mazhab hukm surar, davlat ham fotimiylar qo‘lida edi. Bu oqimlarning boshlanish davrida mulkiy tenglik va mehnatni ulug‘lash kabi ijobiy jihatlari mavjud edi. Nosir Xisrav butun qaynoq qalbi, ehtirosi bilan mehnatkash xalq ahvolini yaxshilaydigan, dunyoda haqiqat o‘rnatadigan yo‘lni izlar ekan, unga ismoiliya ta‘limoti birdan-bir to‘g‘ri yo‘l bo‘lib ko‘rinadi. Bu sarobning mustahkamlanishiga chuqur ijtimoiy sabablar bor edi, albatta.

Saljuq urushlaridan bo'shamagan, o'zaro nizolardan tinchimagan O'rta Osiyoga nisbatan Misrda o'sha vaqtda mustahkam markaziy davlat mavjudligi va shuning natijasida xalq hayotida ma'lum darajada turg'unlikning borligi tufayli iqtisodiy va madaniy hayotning, ilmu hunarning taraqqiy etishiga tuzukroq sharoit mavjud edi.

Shoir Misrga bormasdan oldin soliq yig'uvchi bo'lib ishlar ekan, xalqning qashshoqligini, mehnatkashning ayanchli ahvolini ko'radi, bunga sabab bo'layotgan saljuq sultonlarini "dasht bo'rilari" deb ataydi.

Somoniylar davri unga ideal o'tmish bo'lib ko'rinadi.

### Somon olidan bo'sh qolgach Xuroson,

### Farovon hayotdan qolmadi nishon.

Misrga kelgach esa, Nosir Xisravning bu noroziligi yanada oshib, ona yurtida sobit bir tartib yo'qligiga o'kinadi. Uning ko'ziga Misr gullab, yashnab turgan mamlakat bo'lib ko'rinadi.

U Qohirada 1047 yilning oxirida xalifa Mustansirning o'g'il ko'rish munosabati bilan bo'lgan marosimda ham ishtirok etadi, zamona imomi hisoblangan fotimiylar xalifasi Mustansirning ham qabulida bo'ladi.

Fotimiylar oxiri butun dunyoni olamiz, deb dunyoni 12 jazira (orol) ga bo'lib qo'ygan edilar. Bu jaziralar boshida "Sohib jazira" turar edi, uni "Hujjat" ham der edilar. Nosir Xisrav mana shu yuqori mansabga erishadi. U Xuroson bo'yicha sohib jazira tayinlanib, yashirin topshiriq bilan Balxga qaytib keladi. Bu haqda shoirning o'zi ham ko'p she'rlarida "Xuroson hujjatiman" deydi va hatto ba'zan "hujjat" so'zini taxallus o'rnida ham ishlatadi.

Ba'zilar Nosir Xisrav haqida gapirib, "U olim kishi edi va taxallusi "Hujjat", chunki u munozaralarda hujjat keltirishga usta edi", deydilar. Xalq ham "hujjat" so'zini ko'proq shunday ma'noda tushunadi.

Shunday qilib, Nosir Xisrav ilgari ismoiliya g'oyalari bilan tanish, unga xayrixoh bo'lsa, endilikda butun vujudi bilan unga berilib ketadi. Vataniga qaytib kelgan shoir ismoiliyaning reaksiyon tomonlarini payqamaydi-da, islomning qotib qolgan aqidalariga qarshi tomonlarini rivojlantiradi. Qarmatchilikning jo'shqin targ'ibotchisiga aylangan faylasuf, islom dinining kishi shaxsiyatini qul qilishga yo'naltirilgan hamma aqidalarini qattiq tanqid ostiga oladi. Qo'ldan kelgan hamma vositalar bilan mutaassib ulamolarga qarshi o't ochadi. Ularga nomalar yuboradi, xalq yig'inlarida otashin nutqlar so'zlaydi, atrofiga shogirdlar to'plab, ularga va'zlar o'qiydi.

Safardan qaytgach, shoir bir necha vaqt Balxda yashaydi, ammo uning siyosiy va ma'naviy kuchini ko'rgan va o'sha davrda joriy tuzumga uning nechog'lik xavfli raqib ekanligini tushungan islom ulamolari uni "kofir" deb e'lon qiladilar, saljuq hukmdorlari buyuk mutafakkirni quvg'inga uchratadilar.

Nosir Xisrav Balxdan Mozandaronga o'tadi, shaharma-shahar yurib, o'z vatanining hech bir yerida tinch, osoyishta hayot topa olmaydi. Oxiri Badaxshon tog'lari bag'ridagi Yumg'on qishlog'iga borib istiqomat qilishga majbur bo'ladi. U yerda shoirning hayoti juda og'ir sharoitda o'tganligi ma'lum. Ba'zi rivoyatlarga ko'ra, u g'orda yashagan.

Haqiqatan ham bir necha yillik jo'shqin faoliyati natijasida Nosir Xisrav Yumg'onni Xuroson hujjatining qarorgohiga aylantirib yubordi. Hatto xalq uni ShoNosir deb ham atardi. Yumg'onda u da'vatnomalar yozdi. Misr fotimiylari bilan doimiy aloqa qilib turdi. Falsafiy va badiiy asarlarining ko'pini ham shu yerda yozdi.

U qiyin hayot yo'lini bosib o'tishiga qaramay, juda ko'p asarlar yozdi. Ulardan bizgacha yetib kelganlari "Safarnoma", "Zod ul-musofirin", "Vajhi din", "Saodatnoma", "Rushinoinoma", "She'rlar devoni", "Jomiul hikmatayn" va boshqa asarlardir.

Mehnat ahlining qaynoq do'sti, ozodlik kurashchisi va haqiqat izlovchi shoir Yumg'onda 20 yil yashab, g'oyaviy-siyosiy kurashini va ijodiy ishini davom ettiradi. Bu ajoyib inson 1088 yilda 85 yoshida Yumg'onda vafot qiladi va shu yerda dafn etiladi.

Nosir Xisrav ijodi o'z davri uchun ilg'or falsafiy mazmunga ega bo'lganligi uchun ham asrlar bo'yi avlodlar yo'lini yoritib kelmoqda.

Biz Nosir Xisrav hayotining asosiy ma'nosini bir so'z bilan ifoda etmoqchi bo'lsak, u so'z – "izlanish" degan so'z bo'lur edi. Chuqur, jiddiy va hayajonli izlanish. U hodisalarga boy ajoyib umrini inson kamoloti sari, haqiqat yo'lini izlashga sarf etdi. Bu narsa uning falsafiy dunyoqarashi asosini ham, badiiy asarlari mazmunini ham belgilab berdi.

Nosir Xisrav mana shu johil va nodon soxta ulamolarga qarshi kurashar ekan. Insonning bu dunyoga kelishidan asosiy maqsadi ilm o'rganish va kamolot sari intilish ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Ilg'or mutafakkir ilm o'rganishgagina emas, uni targ'ib, tashviq qilishga, ilm toliblariga, uni qidiruvchilarga yetkazish kerakligiga alohida e'tibor beradi.

O'zingni ilm birla bezatgil.

Faqat kimxob kiygan emasdir go'zal.

Nosir Xisravning fikricha, kishi diliga taskin beruvchi, uni bu dunyoda shodu xurram qilguvchi ham ilmdir:

Agar xurramlik istarsen, so'roqla ilm ila hikmat.

O'shanda ilmu donishdan olursen mevayi hojat.

Mahmud G'aznaviy "islom homiysiman", deb qilich yalang'ochlab, nomusulmon xalqlarni qirg'in qilgan. Bag'dod xalifaligi kofirlarga qarshi

g'azavotlar e'lon qilib turgan bir davrda Nosir Xisrav urushga qarshi fikr yuritadi, xalqlar orasida adovatni yo'qotishga chaqiradi.

U kishilik jamiyatini daraxtga qiyos qiladi va turli xalqlar shu daraxtning turli shoxlari ekanligini aytib, daraxtning shox va butoqlarini sindirish aqldan emasligini uqtiradi.

Jahon xalqi bir niholdir, bir daraxtdir shoxlagan,

Hech mahal uzma niholin, shoxini sindirmagil!

Nosir Xisrav kishilarni diniy yoki irqiy tabaqalarga taqsim qilishdan tamoman norozi. U kishilarni faqat sinfiy tabaqalarga bo'ladi. U hokim sinflarni tekinxo'rlar, deb hisoblar ekan, ularning namoyandalari shohlar, boylar, ruhoniylar, sudxo'rlar va ta'magir saroy shoirlariga la'natlar yog'diradi:

Sitamgar shoh tomoshaga minsa ot,

Kambag'alning xirmoni bo'lg'ay g'arot.

Xisravning fikricha, dunyoda eng oliyjanob odamlar mehnatkashlar, jamiyat uchun foydali narsalar ishlab chiqaruvchi hunarmandlar, binokorlar va boshqalardir.

Kosibdan shodu xurram yo'q jahonda,  
Hunardin yaxshi dur ham yo'q jahonda,  
Butun kun rizqining bog'boni bo'lg'ay,  
Kechin o'z uyining sultoni bo'lg'ay.

Qo'li-la rizqi ro'zin hosil etgay,  
Ayolu farzandu xeshiga yetgay.  
Arzir uning bo'lsa boshi osmonda,  
Ulsiz yashay olmas shoh ham jahonda.

Ammo shoir hunarmand-kosibdan ham dehqonlarni yuqoriroq qo'yadi:

Kosibdan ham jahonda dehqon ortiq,  
Qushu jondorga etmish rizq tortiq.  
Hunarmanddin tekin tegmaydi bir shay,  
Ekin xirmonidin bo'lmaydi tegmay.

Jahonning shodligin boisi dehqon,  
Uning birla ekinzor, bog'u bo'ston.  
Bu ishdin yaxshi olamda ne bordur,  
Odam nasliga bu ish yodgordur.

Qushu qumursqaga rohat bu ishdin!  
Ulov, ot, odama hojat bu ishdin.  
Gar u dehqonligin qilsa har ishda,  
Anga teng kelmagay hatto farishta.

Qiyamat qilmas esa donini dehqon,  
Aning shoniga yetmas hech bir inson.

Jafokash, pahlavon mehnat chekodur,  
To‘kib ter, barchaning rizqin ekodur.

Ulushu rizq kalididur qo‘lida,  
Ko‘ngilni yorituvchi nur yo‘lida.  
Bu olamda adolatning qulidur,  
U olamda behisht bog‘ning gulidur.

Mehnatkash xalq baxt-saodati uchun isyonkorona kurashgan bu buyuk inson 1088 yilda vafot etadi. Yumg‘ondagi uning qabri xalq ziyoratgohiga aylanib ketgan.

Insonparvar yo‘nalishli she‘riyatning haqiqiy asoschisi **Umar Xayyom** bo‘ldi. So‘ng esa “xalqparvar” mavhumi uchun “odamiyat” istilohini ishga solgan Sa‘diy ijodida o‘z nihoyasiga yetkazildi va Hoqoniy, Nizomiy, Hofiz, Jomiy, Navoiylar ijodida bor jamolini namoyon etib. O‘z jilosini ko‘z-ko‘z qildi.

Shuning uchun ham Xayyom ijodidan boshlab, forsiy tildagi adabiyot tarixini xalqparvar g‘oyaning voyaga yetish davri, uning barqarorlashishi, deb qabul qilsak bo‘ladi.

Xayyom 1048 – 1123 yillarda yashagan ulug‘ faylasuf, matematik olim va astronomdir. Uning to‘liq nomi G‘iyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim Nishopuriy bo‘lib, Xayyom taxallusi bilan yuritiladi.

Umar Xayyom Nishopur shahrida yoki shu shahar atrofidagi qishloqlardan birida chodir (xiyima) tikuvchi oilasida 1048 yilda dunyoga keldi. Uning Nishopur, Samarqand, Buxoroda o‘qiganligi va ishlaganligi ma‘lum.

1074 yilda saljuqiylarning mashhur vaziri Nizomulmulk uni Isfahondagi rasadxonaga boshchilik qilishga da‘vat etadi. Iste‘dodli olim bunga rozi bo‘ladida, saroy to‘polonlaridan uzoqda, aniq fanlarni chuqur o‘rganishga kirishadi.

Xayyom o‘z zamonasining yetuk olim kishilaridan biri bo‘lgan, u matematika, astronomiya va falsafaga oid bir qancha kitoblar yozib, qator kashfiyotlar qilgan. Masalan, 1077 yilda yunon olimi Evklid kitobidan bir necha geometrik shakllarni sharhlab yozgan asarida butun sonlarning ildizini topish yo‘llarini ko‘rsatib bergan.

Xayyom bir necha asarida ulug‘ olim Abu Ali ibn Sino fikrlarini targ‘ib etadi. Uning bir qator kitoblarini arabchadan forschaga tarjima qiladi va sharhlab beradi. Xayyom o‘zining “Risolat ul-kavn vat-taklif” (“Koinot va uning vazifalari”) nomli kitobida Abu Ali ibn Sinoni o‘zining ustozini deb biladi. Xayyom bundan tashqari, “Risola fil-vujud” (“Borliq haqida risola”), “Risola fi kulliyoti vujud” (“Borliqning umumiyliigi haqida risola”) kabi bir necha falsafiy asarlar yozadikim, unda muallif ibn Sinoning sodiq shogirdi sifatida fikrlarini davom etdiradi. Tarixchi Bayhaqiyning xabar berishiga qaraganda, Xayyomning

o‘lim oldidan mutolaa qilgan eng oxirgi kitobi ham Abu Ali ibn Sinoning falsafiy asari – “Kitob ush-shifo” edi.

Dunyo falsafasi bilan shug‘ullanish, mavjudotning sirini izlash bilan birga, Xayyom bir qancha olimlarga rahbarlik qilib, besh yil qattiq tekshirishlar olib borgandan keyin, 1079 yilda yangi isloh qilingan kalendar taklif qilgan. Bu kalendar Yevropada undan 500 yil keyinroq qabul qilingan va hozirgi kungacha amalda bo‘lgan Grigorian kalendaridan ham aniqroq bo‘lgan. Ammo tez orada ro‘y bergan Nizomulmulkning fojeali o‘limidan so‘ng mutaassib ruhoniylar guruhlarining kuchayib ketishi natijasida u kalendar joriy qilinmay qolib ketgan.

Ayniqsa, 1092 yilda Malikshohning o‘limidan keyin mamlakatda yana taxt talashishlar, nizolar va qon to‘kishlar avj olib ketadi. Buyuk olim 1123 yilda Nishopurda vafot etadi.

Umar Xayyom o‘zining faqat jahonshumul ilmiy asarlari bilan emas, balki nodir she‘riy asarlari – ruboiyoti bilan ham olamga mashhur bo‘ldi.

XIX asrning o‘rtalarida ingliz shoiri Fidjerald Umar Xayyom she‘rlarini tarjima qildi. Uning tarjimalari juda erkin bo‘lib, hali aniq va aynan tarjimadan yiroq bo‘lishiga qaramay, Yevropada katta shuhrat qozondi. Bu tarjimalar XIX asrning o‘zidayoq 25 marta bosilib chiqdi.

Rus sharqshunos olimi V. Jukovskiyning 1897 yilda bosilgan “Umar Xayyom va ko‘chma ruboiylar” nomli asari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Qo‘lyozma to‘plarda Umar Xayyom ruboiylarining soni 100 tadan 1000 tagacha borib yetar, bu asarlarda xilma-xil, bir-biriga tamoman zid g‘oyalar ilgari surilar edi. V. Jukovskiy Umar Xayyomga nisbat berilayotgan ruboiylarning ko‘pi boshqa shoirlar devonida ham uchrab turishini ko‘rsatib, eski qo‘lyozmalardagi hamma ruboiylar ham Xayyomniki emas, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Shundan so‘ng Umar Xayyomning o‘ziga taalluqli ruboiylarni aniqlash uchun ilmiy-tekshirish ishlari avj olib ketdi. Bu sohada Eron adabiyotshunoslaridan doktor Qosim G‘aniy va Muhammadali Furug‘larning samarali ishlarini qayd etib o‘tish mumkin.

Ingliz olimi Artur Arberri Umar Xayyomning eng qadimiy qo‘lyozmasini topishga muvaffaq bo‘ldi. Bu qo‘lyozma 604 hijriy (1207 yil) yilda yozilgan bo‘lib, unda 252 ruboiy bor. Boshqa manbalar bilan taqqoslab, Xayyom ruboiylarining soni 300 dan ortiq bo‘lsa kerak, degan xulosaga kelish mumkin.

Mutafakkir shoir dunyoning tuzilishi, unda odamning o‘rni haqida o‘yga tolar ekan, avvalo, u odamning dunyoda eng oliy vujud ekanligini ta’kidlaydi:

Dunyoning tilagi, samari ham biz,  
Aql ko‘zin qorasi, javhari ham biz.  
To‘garak jahonni uzuk deb bilsak,  
Shaksiz uning ko‘zi-gavhari ham biz.

Ammo jahonning mohiyati va asosi hisoblangan insonning qadru qiymatini, uning fojeali hayotini chuqur his qilgan shoir dunyoning nobop tuzilganligini, uning noqisligini ko‘rib diqqat bo‘ladi. Bunday “falak” ni barbod etib, qaytadan tuzishga chaqiradi. Olamning tuzilishida mantiqsizliklar ko‘radi-da, bu kamchiliklarga qarshi isyon qiladi:

Falakka hukm etgan tangriday bo‘lsam,  
Falakni qilardim o‘rtadan barham,  
Yangidan shunday bir falak tuzardim,  
Yaxshilar tilakka yetardi ul dam.

Ammo Xayom dunyoni qayta qurish yo‘llarini topa olmay:

Ey charx, nokaslarni qilding faroovon,  
Hammomu uy berding, yer, suv, tegirmon.  
To‘g‘ri kishi garov bir burda nonga,  
Jirtakka arzimas bundayin davron.

deb fig‘on chekadi.

Isyonkor shoir qalbi dunyoda haqsizlik va sitamga barham berish yo‘llarini topa olmagach, har damni g‘animat bilishga chaqirib, gedonizm g‘oyalarini targ‘ib qila boshlaydi. Umr bir necha kunlik omonat, undan olganingcha olib qol, qayg‘u-alam ham, shodlik ham o‘tkinchi, shuning uchun bu umrni g‘am bilan o‘tkazsang g‘am bilan, quvnoqlik bilan o‘tkazsang quvonch bilan o‘tadi, degan xulosaga keladi.

Umrindan nafas ham o‘tsa, ey inson,  
Qo‘ldan chiqarmagil bo‘lmayin shodon.  
Qandoq o‘tkazursen, shundoq o‘tar umr,  
Hushyor bo‘l, shundaqa aslida jahon.

Xayyom ruboiylarida talqin va targ‘ib etilgan g‘oyalarning bir qismi sodda, jo‘n ko‘rinsa, bir qismi butunlay yot, ammo Xayyom ijodini bir butunligicha olib qaralsa, u o‘z davri uchun taraqqiyparvar voqea ekanligi ochiq-oydin ko‘rinib turadi, chunki unda yorqin moddiyuncha dalillar juda kuchli.

Xayyomning moddiyuncha qarashlari, eng avvalo, moddaning yo‘qolmasligi, uning bir suratdan ikkinchi suratga o‘tib yurishi, odam ham vafot etgach, shu moddiy dunyodagi o‘lik jismlarga qo‘shilib ketishi, bu nuqtai nazardan tirik va o‘lik tabiat oarsida o‘tib bo‘lmas chegara yo‘q ekanligini, uning abadiy ekanligini tasdiqlashda yaqqol ko‘rinib turadi:

Bizlar bo‘lmasak ham jahon bo‘lg‘usi,  
Bizlardan na nomu nishon bo‘lg‘usi.  
Avvalku yo‘q edik yetmovdi xalal,  
Yana bo‘lmasak ham, hamon bo‘lg‘usi.



Xayyom ko‘zimizga ko‘rinib turgan dunyodan boshqa hayot yo‘qligi, kishi o‘z o‘limidan so‘ng xoki tuproq bo‘lib, yer zarrasiga qo‘shilib ketishiga shaksiz ishongan. Shuning uchun u ko‘za loyida ham, imorat g‘ishtida ham inson tanasining zarralarini – shohlar boshini, gadolar qo‘lini, go‘zallarning shaxlo ko‘zlarini ko‘radi. Bunday fikrlarga g‘arq bo‘lgan shoir kulol qo‘lidagi loydan: “Meni sekinroq tep, men ham seningdek kulol edim”, degan tovushlarni eshitadi.

U ba‘zan uchraydigan mufti va mullalar, shayx va eshonlar xiylalarini ko‘rib, g‘azabi qaynaydi, o‘tkir misralarda fosh qiladi:

Mufti, sendan ko‘ra purkorroqdirmiz,  
O‘ta mast bo‘lsak ham hushyorroqdirmiz.  
Biz tok qonin ichamiz, sen odam qonin,  
Insof qil, qaysimiz xunxorroqdirmiz.

Xayyom kuylagan may faqat gedonizmga chaqirish, falak jabru jafolarini unutish vositasigina emas, bu islom dini nomidan yomonliklar qilguvchi ruhoniylarga otilgan o‘q edi.

Bir qo‘lda Qur‘onu bittasida jom,  
Ba‘zida halolmiz, ba‘zida harom.  
Firuza gumbazli osmon tagida  
Na chin musulmonmiz, na kofir tamom.

May majoziy tushuncha bo‘lib, unga turli va murakkab vazifalar yuklanadi. Masalan, buni Xayyom ijodidan olingan birgina ruboiyda ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Hayotga o‘zga tus berguvchi sharob,  
Keltir qadahga quy bo‘lsa ham azob.  
Qo‘lga ber olamning ishlari xunob,  
Har nafas umr o‘tar, aylagil shitob.

Ulug‘ mutafakkir shoirning asarlarida mag‘rurlik, erkin fikrlik, hayotning har bir tongini quvonch va shodlik bilan kutib olish tamoyillari juda kuchli. May obrazi ham shoir uchun shodlik va quvnoqlik ramzi bo‘lib xizmat qiladi. O‘rta asrlarning qorong‘u tunida u kishilik shaxsiyatining erkinligini kuyladi, insonning mag‘rur ruhini qul qilgan zulm va haqsizlikni qoraladi.

To‘rtlik misra she‘rga zabardast falsafiy fikrlarni sig‘dira olishiga qaramay, Xayyomning uslubi dohiyona sodda, o‘xshatishlari nihoyatda tabiiy, hammaga osongina yetib boradigan uslub.

Shoir ijodida turli-tuman g‘oyalarni, fikrlarni bayon etuvchi ruboiylar bir-biriga hamohang jaranglaydi. Ular vazn soddaligi va ohangdorlik jihatidan xalq qo‘shiqlariga juda yaqin turadi. Shuning uchun ham o‘qigan kishini charchatmaydi va tez yodlanib qoladi. Xayyom kuylagan sof muhabbat, sevgili

yor qo‘lidan tutilgan billur qadah qanday shirin bo‘lsa, shoirning ruboiylari ham shunday laziz va rohatbaxsh. Xayyom asarlaridagi nozik bayon, ayniqsa, mantiq va fikr qudrati allaqachonlardan beri kishilar qalbini maftun etgan.

Umar Xayyomning falsafiy fikrlari o‘zidan so‘nggi ko‘p shoirlarga ham katta ta‘sir ko‘rsatdi. Jaloliddin Rumi, Muslahiddin Sa‘diy, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur kabi buyuk so‘z san‘atkorlari ijodida ham bu ta‘sirni aniq sezish mumkin.

**Hoqoniy.** Abu Badil Afzaliddin Ibrohim ibn Abulhasan Ali ibn Usmon Hoqoniy Shervoniy 1120 yilda tug‘ilib, 1199 yilda vafot etgan.

Biz Umar Xayyom ijodida yorqin jilvasini mushohada qilganimiz insonparvarlik g‘oyasi Hoqoniy va Nizomiylar ijodida o‘z rivojini davom ettirdi va yanada yuqoriroq pog‘onaga ko‘tarildi.

Hoqoniy yuksak mahorat egasi bo‘lib yetishadi va Shervonshohlar saroyiga intiladi. U zamonasining iste‘dodli shoirlaridan Abul A‘lo Ganjaviy ustozligida kamolga yetishib, ustozni homiyligida Shervonshohlardan Abuxayj Manuchehr ibn Faridun (1120 – 1150) davrida saroyga keladi.

Manuchehrning Ulug‘ Hoqon laqabi bo‘lib, Afzaliddin esa Hoqoniy taxallusini oladi. U ustozni Abul A‘loga kuyov bo‘ladi. Ammo keyinchalik bir-birlari bilan xafalashib qolib, qaynota kuyov bir-birlariga qarshi hajvlar yozishadi.

1156 – 1157 yillarda Hoqoniy Makkaga safar qiladi. undan qaytgach, Shemaxani hajv qilib, uni zindon deb atadi. Uning zindonda yozgan she‘rlari “Hibsiya” silsilasini tashkil qiladi. u pandu nasihat to‘la she‘rlar bitadi. 1199 yilda Tabrizda vafot etadi.

Uning “Madoyin saroyi” qasidasiga juda ko‘p shoirlar (hatto Lohutiygacha) tatabbu‘lar yozganlar.

Bu olama, ey ko‘ngil, ibrat ila boq bir on,  
Ibrat ko‘zi ermasmi Madoyin – xarob ayvon.  
Devoru qasrlarning tarixini tinglolsang,  
Pandu nasihat qilgay har g‘ishtiyyu har dandon.  
Zanjirga tushib Dajla, zanjir kabi to‘lg‘anmish,  
Ayvoni Madoyinni yer birla ko‘rib yakson,  
Derlarki, senam xokiy, biz bul kuni tuproqmiz,  
Tuproqqa to‘kib ko‘z yosh, qo‘y necha qadam giryon.

Qasidada falsafiy fikrlar qo‘yilib kelaveradi. Oxirida shoir o‘z qasidasi haqida shunday deydi:

Do‘stlarga berur savg‘o, kim qilsa safar har gal,  
Do‘stlarga bo‘lur savg‘o shoir tilidan doston.  
Boq, ko‘rchi bu dostonda ko‘p sehru nasihat jam,

Iso dami bor, shoir devona-yu hikmatdan.

Uning lirikasida ham zamondan nolish ohanglari uchrab turadi:

Ey dil, bir tola qilcha ozod bo‘lolmassan,  
Qildek ozinggu g‘amdan, hech shod bo‘lolmassan,  
Osudalik ichra ham rahna urib kirgay g‘am,  
Bu rahnalarda dastidan obod bo‘lolmassan...

Ruboiylarida ham shoir xayyomona falsafiylikka erishadi. Ular mavzu jihatidan ham xilma-xil:

Qisqa aqllardan, Hoqoniy, uz dil,  
Ulug‘ himmatlarga talpinsin ko‘ngil.  
Parvonadek shamga etma jonni sor,  
Nilufardek yuksak quyoshga intil.

Firoqing alami jonimga zahar,

Pastlarning ta’nasi undan ham o‘tar.

Jabr etar sevgulim firoqi, lekin,

Nomardga muhtojlik undan ming battar.

She’riyat ko‘kida quyoshman bul kun,  
So‘zlarim har shoir so‘zidan ustun.  
Quyosh yetti iqlim sultoni, ammo,  
So‘zimning gadosi erur bus-butun.

**Nizomiy Ganjaviy.** Abumuhammad Ilyos ibn Yusuf ibn Zakiy ibn Muayyad Nizomiy Ganjaviy 1141 yilda Ganjada kosib oilasida dunyoga keldi. Hayot tashvishlariga qaramasdan u o‘z zamonasidagi ilmlarning barchasini chuqur va atroflicha o‘rganishga harakat qiladi. U arab tili, Qur‘on va hadis, fiqh, tarix, jug‘rofiya, falsafa, mantiq, odob ilmlari sohasida ustoz darajasiga ko‘tarilgan, tabiiy fanlarni – tib, nujum va boshqalarni o‘rganadi. Nizomiy yunonlar badiiy merosini, pahlaviy tilidagi asarlarni, Kavkaz xalqlari adabiyoti va tarixini, arab va fors adabiyotini chuqur bilgan. U shohlar saroyiga borishdan ko‘ra, darveshona hayot kechirishni afzal bilib, butun umrini Ganjada o‘tkazadi.

Forsiy tilda ijod qilgan buyuk ozarbayjon shoiri 1209 yilning 12 martida o‘z ona shahri Ganjada olamdan o‘tadi. Nizomiy adabiy merosida shoir nomini jahon klassiklari qatoriga olib chiqqan asar – uning “Xamsa” sidir.

“Xamsa” quyidagi 5 dostonidan iborat:

“Maxzan ul-asror” (1173 – 1180);

“Xusrav va Shirin” (1180 – 1181);

“Layli va Majnun” (1188);

“Haft paykar” (1197);

“Iskandarnoma” (1199 – 1201).

**Maxzan ul-asror** Sanoiyning “Haqiqat ul-haqiqa” dostoniga tatabbu’ sifatida maydonga kelgan bo‘lib, u tasavvuf g‘oyalarini targ‘ib va tashviq qiluvchi axloqiy asardir.

Doston muqaddima va 20 bobdan iborat bo‘lib, ijtimoiy va falsafiy masalalarga bag‘ishlangan. Har bir bob oxirida nazariy fikrning isboti uchun hikoyat yoki masal keltiriladi. Ularda shoir mehnat ahli huquqini himoya qiladi, zolimlikni qoralaydi. Asarning bu qismida, ayniqsa, xalq maqol va rivoyatlari ko‘p uchraydi.

**Xusrav va Shirin**. Bu romantik dostonda shahzoda Xusrav va go‘zal malika Shirin ishq haqida hikoya qilinadi. Xusrav va Shirin syujeti Saolibiy va Firdavsiy “Shohnoma” larida ham mavjud. Bu qissa O‘rta Osiyo va Eron xalqlari og‘zaki ijodida ham keng tarqalgan.

Nizomiy dostoni uch qismdan iborat bo‘lib, 6500 baytdan tashkil topgan. Birinchi qismda hamd va na‘tdan so‘ng kitobning yozilish sababi bayon etiladi; 2-qismda Xusrav hayotida ro‘y bergan siyosiy voqealar, Shirinni uchratishi haqida hikoya qilinadi; 3-qismda esa shoir xasbu holini, pandu nasihatlarini badiiy obrazlarda ifoda etadi.

Shirin – Xusravga muhabbat qo‘yib, pandu yegan sofdil, oq ko‘ngil, iffatli va oqila qiz obrazi.

Dostonda Farhod bosh qahramon bo‘lmasa ham, sodiq va g‘amxo‘r oshiq obrazidir, u ishq yo‘lida jonini fido qiladi, unga o‘zining pokiza ishqidan bo‘lak hech narsa kerak emas.

**Layli va Majnun**– Qays va Laylining sevgisi haqidagi rivoyatlar asosida yozilgan dilo‘rtar bu doston 4700 baytdan iborat.

Shoir bu asarida falsafiy-ijtimoiy masalalarga ham o‘rin beradi. Doston Shirvonshoh Axsiton topshirig‘i bilan yozilgan. U Sharqda juda mashhur bo‘lib ketdi, unga ko‘p tatabbu’lar ijod etildi. Keyinchalik olimlar bu doston shuhratini Shekspirning “Romeo va Julietta” qissasi qatoriga qo‘ydilar.

Nizomiy bu asarda tasavvuf aqidalariga yaqin fikrlarni bayon etsa ham dostonni tasavvuf asari darajasiga ko‘tarmagan. Chunki unda Layli obrazi real hayotdan ajrab chiqib ketgan bo‘lur edi. Muallif masnaviy ichida Majnun g‘azallariga ham o‘rin beradi. Ishq-muhabbat Farhodda ijodiy mehnat shavqini ko‘targan bo‘lsa, Qaysni aqldan uzoqlashtiradi, ammo uning shoirlilik mahoratiga tob beradi.

**Haft paykar**. Bu syujet adabiy manbalarda “Bahromnoma”, “Haft gunbad” deb ham uchraydi. Sosoniylar davriga oid bu qissa Firdavsiy “Shohnoma” sida qalamga olingan. Doston muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat bo‘lib, uning bosh qahramoni sosoniy shohlaridan biri Bahrom Go‘rdir. Bu tarixiy shaxs Nizomiy asarida adabiy obrazga aylandi. Muallif Bahrom timsolida

o‘zining odil podsho haqidagi orzu-xayollarini tajassum ettiradi, uni ideallashtiradi. Dostonda shoir davlat, idora ishlari haqidagi fikrlarini ham ifoda etadi.

**Iskandarnoma.** 10500 baytdan iborat bu asar “Iqbolnoma”, “Sharafnoma” degan ikki qismdan tashkil topgan. Nizomiy dostonda o‘zining siyosiy-ijtimoiy qarashlarini ifoda eta borib, hatto xayoliy sotsializmni tashviq qilish darajasiga brib yetadi.

Bu asarda muallif o‘zini umr bo‘yi hayajonga solgan falsafiy, ijtimoiy va siyosiy fikrlarini badiiy so‘z bilan ifoda etgan.

Forsiy va turkiy adabiyot ravnaqiga bu asarning ta’siri katta bo‘ldi. Unga o‘nlab naziralar yozildi. Nizomiy “Xamsa” siga izdoshlik qilgan Alisher Navoiy shoirni ustoz bilib, uning ijodiga nihoyat yuqori baho beradi:

Ganja vatan, ko‘ngli aning ganjxez,  
Xotiri ganjuru tili ganjrez.  
Fikrati mezon bo‘lib, “Xamsa” sanj,  
“Xamsa” dema, balki degil “Panj ganj”.

Nizomiy “Xamsa” siga Amir Xusrav Dehlaviy nazira yozgach, “Xamsa” chilik an’anaga aylanib ketdi. “Mahzan ul-asror” ga forscha 42 javob, “Xusrav va Shirin” ga forsiy, o‘zbek, turkman, ozarbayjon, turk, kurd tillarida jami 42, “Layli va Majnun” ga 40 ta tatabbu’ mavjud. Ulardan eng yaxshilari Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar qalamiga mansub. bu azamat iqtidor egalari Nizomiy yo‘lidan borib, o‘z zamonalarining ilg‘or falsafiy, ijtimoiy va axloqiy fikrlarini ifoda eta bildilar. Yo‘qsa:

Har kishi ham qildi tatabbu’ havas,  
Sarvu gul o‘trusig‘a keltirdi xas.  
Nizomiy g‘azallari ham nihoyatda fasohat va balog‘at bilan ijod etilgan:  
Meni shunday deding shunday kun, ey dil,  
Jigar purdardu dil limlim xun, ey dil.  
Judo qil mendin oshiqlik hadisin,  
O‘zing Laylo, meni bil Majnun, ey dil.  
Tunu kun aylabon faryodu faryod,  
Sening dastingdin o‘ldim uchqun, ey dil.  
Qilurmishsan sen ishq ahlin navozish,  
Agar men uchrasam qil berun, ey dil.  
Demishsan: “Gar yiqilsang, qo‘l tutarmen”,  
Yiqilganlar aro men mahzun, ey dil.

Nizomiy senga she‘rin aytdi maxfiy,  
Seni olmasmi qo‘lga afsun, ey dil.  
Shoir ruboiylarida ham falsafiy iste’dod jamol ko‘rsatadi:

Umrimizku shomu xufton orasi,  
Yaxshilik qiladi odam sarasi.  
Bu dunyo hech kimga qolmas abadiy,  
Do‘st dilini ovla, gapning xullasi.

Yo‘l bosdik, ish qildik, barchasi o‘tdi,  
Zamonsozlik qildik, boqmayin ketdi.  
Fig‘on chekdik, ammo qani tovushimiz?  
Umri naqdinamiz zum o‘tmay bitdi.

### **Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

1. Umar Xayyom ruboiylarini yod olib, ularni tahlil qiling.
2. “Umar Xayyom ijodining Yevropaga ta’siri” mavzusida tahliliy ish tayyorlang.
3. “Sino” jurnalining 2011 yil 41-42 sonlarida berilgan Alirizo Zakovatiy Qorago‘zlu (Eron) ning “Xayyom qarashlariga oid mulohazalar” maqolasini o‘qib chiqib, tahlil qiling.
4. “Sino” jurnalining 2011 yil 41-42 sonlarida bosilgan Doktor Taqiy Purnomdoriyon (Eron) ning “Attorning dostonchilik san’atiga bir nazar” maqolasini o‘qib chiqib, tahlil qiling.
5. “Sino” jurnalining 2011 yil 41-42 sonlarida bosilgan eronlik olim Mas’ud Umidning “Shayx Ishroqning bilish nazariyasi” maqolasini tahlil qiling.
6. Forsiy manbalardan Xoqoniy ijodiga oid ma’lumotlar to‘plang.
7. “Jahon adabiyotida xamsachilik an’anasi” mavzusida referat yozing.

### **Adabiyotlar**

1. Bertels Ye.E. Istoriya persidsko-tadjikskoy literaturi – Izb.trudi. M., 1960. On je. Ocherki istorii persidskoy literaturi. L., 1928.
2. Gyote I.V. Primechaniya k Vostochno-Zapadnomu divanu // Problemi vostokovedeniya, 1960, №8.
3. Istoriya vsemirnoy literaturi (Jahon adabiyoti tarixi), M., t. 1-7.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi, T., Fan, 1978.
5. Braginskiy I.S. 12 miniatyur. M., Xudoj.lit., 1966.
6. Braginskiy I.S. Iranskoe literaturnoe nasledie, M., Nauka, 1984.

7. Konrad N.I. Zapad i Vostok, M., Nauka, 1966.
8. Mirzoyev A.M. Rudaki i razvitie gazeli v XIV – XVvv. Stalinabad, Tadjgosizdat, 1958.
9. Nikitina V.B. Literatura Vostoka v srednie veka // Literatura Irana. M., Izd-vo MGU, 1970.
10. Rashid ad-Din Vatvot. Sad volshebstva v tonkostyax poezii. Issled.i komment. N.L. Chalisovoy. M., Nauka, 1985.
11. Xuseynzoda Sh. Bahs va andesha. Dushanbe: Irfon, 1964.
12. Shomuhamedov Sh.M. Fors-tojik klassiklari. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1963.
13. Shomuhamedov Sh.M. Xazinalar jilosi. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981.
14. Shomuhamedov Sh.M. Odamiylik inshosi. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1984.
15. Shomuhamedov Sh.M. Mumtoz fors adabiyoti (X – XV asrlar). O‘quv qo‘llanma. T., 2011.
16. O‘zbek adabiyoti tarixi: 2 jildlik. T.: Fan, 1977.

## **2-mavzu. Mo‘g‘ul istilosi davri adabiyotida insonparvarlik g‘oyalarning aks etishi.**

### **Mavzuning o‘quv maqsadi**

Talabalarda ularning asosiy mutaxassislik fani bo‘lgan Sharq falsafiy tizimlarining rivojiga sezilarli zarba bergan mo‘g‘ullar bosqininingoqibatlarini haqida tushuncha hosil qilish va Sharq falsafasining xalqimiz ongiga singib ketgan insoniylik fazilatlarini to‘g‘risidagi ko‘nikmalarni shakllantirish.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari**

Mo‘g‘ullarning madaniy saviyasi, Kichik Osiyo, Sheroz, fors adabiyoti, Sa‘diy Sheroziy, tazkirachilar, Misr, Sharqiy Turkiston, “Kulliyot”, “Guliston”,

“Bo‘ston”, Jaloliddin Rumi, Balx, Nishopur, Ko‘niyo, Shams Tabriziy, “Masnaviyi ma‘naviy”, “Devoni Shamsul haqoyiq”.

### Asosiy savollar

1. XIII asrning tarixiy sharoiti va ijtimoiy inqiroz.
2. Sa‘diy Sheroziy ijodida insonparvarlik g‘oyalari.
3. Jaloliddin Rumi asarlarida insonparvarlik g‘oyalarining aks ettirilishi.

1. XIII asrning boshlarida Markaziy Osiyo va Eron xalqlari boshiga juda katta falokat, ya‘ni mo‘g‘ullar istilosining dahshatlari tushdi. Obod o‘lkalar vayron, ekinzorlar payhon bo‘lgan davr edi. Sayxun va Jayxun qon aralash oqqan, odamlar bola-chaqasi bilan birgalikda qirg‘in qilingan mudhish davr edi.

Mo‘g‘ullar madaniy jihatdan O‘rta Osiyo va Eron xalqlaridan ancha qoloq bo‘lishlaridan tashqari, aholi tilini bilishmas edi. Ular bosib o‘tgan yo‘lini chigirtkadek yeb, tep-tekis qilib o‘tar, natijada juda ko‘p madaniy boyliklar kuydirilib, kul qilingan edi. Bu vaqtda qadimiy madaniyat markazlari sovuq urgandek bo‘shab qolganligini, fors va arab tilidagi adabiyot boshqa uzoq o‘lkalarda rivoj topganligini ko‘ramiz. Ammo shunday musibatli og‘ir davr bo‘lishiga qaramasdan, xalqning ijodiy bulog‘i batamom qurib qolmadi, u bir joyda ko‘zi bekilsa, boshqa bir joydan qaynab chiqar edi. Bu holat yozma adabiyotga ham ta‘sir etdi. Shuning uchun ham bir xalq ijodi asosida o‘tib chiqqan, xalq nafasi bilan oziqlangan ikki buyuk shoirni qayd qilishimiz mumkin. Ular mo‘g‘ul tarojidan omonroq qolgan Kichik Osiyo va Sheroz o‘lkalarida yashab ijod etdilar. Ammo ularning har ikkisi ham o‘sha davrdagi musulmon mamlakatlarini kezib chiqqan, mo‘g‘ul yurishlari dahshatini ko‘rgan, xalq orasida yurib, xalqning yuragidagi orzu-umidlarini yaxshi tushungan, xalq dahosidan bahramand bo‘lgan siymolar edi.

Ular dunyoni tushunish, xalqqa xizmat qilish, xalq hayotini yaxshilash choralarini axtarib, ikki xil yo‘l bilan ketgan bo‘lsalar-da, har ikkalasi ham xalq og‘zaki ijodidagi durdonalardan keng foydalanganliklari uchun ular forsiy tilda so‘zlashuvchi xalqlarning faxri bo‘lib qoldilar va jahon badiiy fikr bog‘iga abadiy so‘lmas gullar olib keldilar. Bulardan biri balxlik Jaloliddin Rumi, ikkinchisi esa sherozlik Mushrifiddin Sa‘diy edi.

**2. Sa‘diy Sheroziy.** Sharqdagina emas, G‘arbda ham mashhur bo‘lgan Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy tirikligidayoq shuhrat qozongan edi. Sharqda shoirni Shayx Sa‘diy deb ulug‘lashgan. Juda katta hayot tajribasiga ega bo‘lgan donishmand shoirning hikmatli so‘zlarga to‘la asarlari



dovrug'i Sherozdan Qashqargacha, Xitoy va Hindistondan Misr va Shimoliy Afrikagacha tarqalgan edi, shuning uchun ham Sa'diy hech qachon murid ovlab shayxlik qilmagan bo'lsa-da, unga hurmat yuzasidan ustoz va rahbar ma'nosida "Shayx" unvonini berganlar.

Qadimiy adabiyotchi, tazkirachilar Sa'diy hayotini afsonalashtirib, u 102 yoshga kirgan, undan 12 yili bolalik bilan o'tgan. Qolgan umrini uchga taqsim qilib, 30 yilini o'qishga, 30 yilini sayohatga sarf qilgan, qolgan 30 yili mobaynida Sherozda yashab, o'qish va sayohat davrida to'plagan ilmu hikmatini boshqalarga tarqatgan, deydilar. Boshqa bir guruh tazkirachilar esa Sa'diy 120 yil umr ko'rgan, 40 yoshgacha o'qib, ilm tahsil qilgan, 40 yil sayohatda bo'lgan, hayotining so'nggi 40 yilini Sherozda o'tkazgan, deydilar.

Shoirning o'zi ham bir she'rida jumladan shunday deydi:

Har kishida bo'lsa xirad ham hunar,

Dunyoda lozim anga ikki umr.

Avvalida yig'sa bilim, tajriba,

So'ngisida barchasin ishga solur.

Sa'diyning vafot etgan yili aniq. Eski tarixlarga ko'ra, 691 yil hijriy, ya'ni milodiy hisob bilan 1291-1292 yillarga to'g'ri keladi. "Guliston" kitobining tadqiqotchilaridan Rustam Aliev shoir tug'ilgan yilni 1203 – 1208-yillar orasida deb belgilaydi. U Eronning qadimiy shaharlaridan biri Sherozda tug'ildi. Yetimlarga shafqat qilish haqida yozgan bir she'rida uning o'zi ham otasidan juda yosh yetim qolganligini aytadi. Otasi Sheroz hokimi Otabek Sa'dning mulozimlaridan biri bo'lgan. Yosh yetim qolgan Sa'diyga saroy nafaqasi beriladi. Sa'diy boshlang'ich ma'lumotni o'z shahrida olgach, Bag'dodga ketadi. Unda XI asrning mashhur davlat arbobi, saljuqiylar saroyining vaziri Nizomulmulk tashkil qilgan "Nizomiya" madrasasiga kirib o'qishga muvaffaq bo'ladi. Bu haqda shoirning o'zi "Bo'ston" da:

Nizomiyada maoshim bor edi,

Tunu kun ishim – darsu takror edi, deydi.

"Jahongashta er mardu oqil bo'lur", deb qattiq ishongan shoir Sharq mamlakatlari bo'ylab katta sayohatga chiqadi. Buning sababini shoirning o'zi shunday ko'rsatadi:

Bilmak istaysanmi, na uchun bunday –

Uzoq yillar yurdim g'urbatda sarson?

Mo'g'ullar dastidan yo'q edi tinchlik,

Zangilar sochidek chigaldi zamon.

Qiyofasi odam ko'rinur, ammo –

Bo'ridek bir-birin yeyardi inson.

Eron, Arabiston, Kichik Osiyo, Misr, Xuroson, Sharqiy Turkistonning juda ko‘p shaharlarida bo‘lgan shoir ilmu hikmatni kitobxonlardangina emas, hayotning o‘zidan o‘rganib, zamonasining ko‘pni ko‘rgan dono kishisi bo‘lib yetishadi. Bu haqda shoirning o‘zi shunday misralarni yozgan edi:

Ko‘p uzoq ellarga qildim sayohat,  
Turli odam bilan bo‘ldim hamtovoq,  
Har burchakdan topdim bir luqma ovqat,  
Har xirmondan oldim bittadan boshoq.

1255 yillarda Sherozga qaytib kelgan Sa‘diy “dunyo g‘avg‘olaridan” o‘zini chetga olib, shaharning bir chekkasida joylashgan Shayx Abu Abdulloh Xafif xonaqosida faqirona umr kechiradi.

Sa‘diy xilma-xil janrlarda yozilgan juda ko‘p asarlarning muallifidir. Uning kulliyot, ya‘ni asarlar to‘plami janrlar bo‘yicha 19 bo‘limdan iborat bo‘lib, u nasriy va nazmiy asrlardan to‘plangandir. Bu “Kulliyot” shoir o‘limidan 37 yil keyin Abu Ali Ahmad ibn Abubakr Besutun degan kishi tomonidan to‘plangan.

“Kulliyot” boshlanishidan to‘plovchi bu ishni ko‘pchilikning talabiga binoan bajarganligini qayd qiladi. bu ish 720 hijriy yillarda, ya‘ni Sa‘diy vafotidan 30 yilcha vaqt o‘tgandan keyingina amalga oshirilgan.

Kulliyotga kiritilgan badiiy asarlar ichida eng mashhurlari 1257 yilda yozilgan “Bo‘ston” va 1258 yilda yozilgan “Guliston” kitoblari bo‘lib, bular jahon adabiyoti durdonalari orasidan o‘ziga munosib joy olgan.

“Guliston” o‘ziga xos didaktik hikoyalar va she‘riy aforizmlar to‘plamidir. Kitob 8 bobdan iborat. Uning debochasida muallif shunday deydi:

Gul zamoni besh olti kundir bas,  
Bu “Guliston” hamisha pok nafas.

Bu asar soddalik, go‘zallik, voqelikni to‘g‘ri aks ettirish bilan kitobxonni maftun etadi. Jahongashta shoir o‘z hayotida ko‘rgan, bilgan voqealarni bayon etib, ulardan axloqiy xulosalar chiqaradi.

Adabiyotshunoslar nuqtai nazaridan fors mumtoz she‘riyatining eng porloq asari Firdavsiyning “Shohnoma” si bo‘lsa, nasriy asarlarning eng barjastasi “Guliston” hisoblanadi. Uning ilg‘or orzulari umumbashariyat orzulari bilan hamohang.

O‘n bobdan iborat “Bo‘ston” kitobi ham “Guliston” ga o‘xshash didaktik hikoyalardan iborat. Ammo u boshdanoq she‘r bilan bitilgan.

Sa‘diy o‘z she‘rlarida va hikoyalarida shohlarni adolatga, raiyatparvarlikka chaqiradi, ularga pand-nasihat qiladi. u o‘zining jo‘shqin g‘azallarida, “Guliston” dagi ajoyib hikoyalarida insonni qadrlaydi, mehnatni ulug‘laydi. Ammo u odamlarning qiyofasiga qarab emas, xulqiga qarab har xil munosabatda bo‘lish kerakligini uqtiradi. Shoir bir she‘rida:

Yaxshiga yaxshi bo‘l, yomonga yomon,  
Gullarga gul bo‘lu tikonga tikon.  
desa, boshqa joyda yana aniqroq qilib yozadi:  
Rahmdillik odamga oliy xulq, ammo –  
Xalqozor yarasiga qo‘ymagil malham,  
Aylama rahm-shafqat ilon hoyliga,  
Bu ishdan ozor topur farzandi odam.

Sa‘diy zolimlarni ayovsiz fosh qilib, hammaga ozor beruvchi zolim kishidan odam yukini yengil qiluvchi ish hayvonlarini afzal ko‘radi.

Shoir o‘z asarlari bilan kitobxonlarda sofdillik va xalqparvarlik, jasurlik va mardlik, rostgo‘ylik va samimiyat hislarini tarbiyalaydi. Mehnatsiz non yeyish erlikdan emasligini uqtiradi:

Halol ishla, mardlarcha ayshingni sur,  
O‘zi ishlamay yesa, nomard erur.

Ulug‘ insonparvar shoir ijodining asosiy mazmuni odamlar orasida nizoni tugatish, ularni bir oilada inoq bo‘lib yashash, yaxshilikka chaqirish, desak bo‘ladi. Boshqalarning g‘amiga beparvo qarovchi xudbin kishilarni qattiq qoralaydi:

Baniy odam a‘zoyi bir badandir,  
Hammasi bir moya, bir gavhardandir,  
Taningda bir uzvki bo‘lsa bemor,  
Hammasida qolmagay sabru qaror.  
O‘zgalar g‘amini chekmasa odam,  
Anga noloyiqdir inson degan nom.  
U odamiyat – insonparvarlik atamasini yaratgan.

U xalqqa xizmat qilishni xudoga qilingan ibodatdan ham ustunroq qo‘yadiki, sa‘diy zamonida bundan yuqoriroq bahoning bo‘lishi mumkin emasligi hammaga ravshan.

Ibodat o‘zi xalqqa xizmat qilish,  
Na tasbehda, na joynamozda bu ish.

Shuning uchun ham Sa‘diyning yorqin siymosi ajoyib insonparvar kishi va dono murabbiy sifatida, o‘z davri uchun taraqqiyparvar olim sifatida kishilar qalbidan joy olgan.

**3. Jaloliddin Rumiy.** Mavlono Jaloliddin Muhammad Rumiy (yo Balxiy) 1207 yilning 30 sentyabrida Balx shahrida dunyoga keldi. Uning otasi o‘z davrining taniqli ulamosi Muhammad Bahovuddin Valad bo‘lib, u o‘z bilim doirasining kengligi uchun “Sultonul ulamo” laqabiga muyassar bo‘lgan. Shoirning onasi Mo‘mina xotun Balx amiri Ruknuddin qizi bo‘lgan.

Manbalarga qaraganda, bu oila 1215 yilda Balxdan ko‘chib ketgan. Ular bir necha vaqt Nishopurda, keyin Bag‘dodda turishgan. So‘ng bir necha yil Makkada, Madinada, Damashqda, Xalabda yashashadi va nihoyat, Malatya orqali Erzinjonga kelishib, Oqshaharga joylashadilar.

O‘sha vaqt saljuqiylar davlati tepasida Alovuddin Kayqubod I (1212 – 1230) turar edi. Olim va shoirlarnigina emas, balki to‘da-to‘da bo‘lib poytaxt shahar Ko‘niyoga kelayotgan sufiy shayxlari bilan darveshlar ham uning saroyida panoh topgan edilar.

Alovuddin Kayqubod Bahovuddin va uning va‘zlari to‘g‘risida eshitib qolib, unga oilasi bilan poytaxtga ko‘chib kelishni taklif qiladi. 1228 yilda Bahovuddin Valad va Jaloliddin o‘z oilalari bilan Ko‘niyoga kelib, endigina qurilgan yangi madrasaga joylashadilar. Bahovuddin va‘zlari tez orada bu yerda ham unga katta shuhrat keltiradi. 1231 yilda esa Bahovuddin vafot etadi. Uning shogird va muxlislari endi uning o‘g‘li atrofiga to‘planishadi. Jaloliddin otasining o‘rnini egallaydi.

1244 yilda Ko‘niyoga sayyoh darvesh Muhammad Shamsuddin tabriziy keladi. U haddan tashqari mutaassib va mistik yo‘nalishdagi tasavvuf tarafdori, uning faol targ‘ibotchilaridan edi. Shams Tabriziyning zo‘r e‘tiqod kuchi Jaloliddinni ham lol qilib, o‘z ta‘siriga oladi. Kunlar bo‘yi u Shams bilan eshikni ichkaridan berkitib olib, shariat va tasavvuf mavzularida uzundan-uzoq suhbatlar qurishar edi.

Jaloliddin o‘z yaqinlari va do‘stlari bilan munosabatini uzadi, madrasada dars berishni ham deyarli to‘xtatadi. Bu hol uning shogirdlari va ixlosmandlari o‘rtasida norozilikka sabab bo‘ladi. Ular Shams Tabriziyini ochiqdan-ochiq qo‘rqita boshlaydilar. Shundan so‘ng Shams 1246 yilda yashirin ravishda Ko‘niyodan qochib ketadi. O‘zining qalin do‘stini yo‘qotgan Jaloliddin shu qadar dard-alam chekadiki, hatto ko‘chaga ham butunlay chiqmay qo‘yadi. U hujrasidan chiqmay g‘amgin lirik she‘rlar yozish bilan band bo‘ladi. Ularda shoir o‘z do‘stini kuylaydi. Nihoyat, Jaloliddinning katta o‘g‘li Sulton Valad otasi chekayotgan azob-uqubatlarga chiday olmay, Damashqqa yo‘l oladi, u yerda Shamsni qidirib topib, Ko‘niyoga olib keladi. Bu ahvoldan xursand bo‘lgan Jaloliddin o‘z qizi Kimyoni Shamsga nikohlab beradi va kuyov-kelinni o‘z hovlisi yoniga ko‘chirtirib keladi. Yana ikki do‘stning tuganmas suhbatlari boshlanib ketadi. Bir kuni darveshlar bilan hukumat vakillari o‘rtasida bo‘lib turadigan ko‘cha to‘qnashuvlaridan birida Shams yana yo‘qoladi. Bu safar uni hech qaerdan topolmaydilar.

Jaloliddin halok bo‘lgan do‘stining xotirasi uchun darveshlar sulukiga asos soladi. Bu suluk “Mavlaviy” nomini oladi. U “zikr” ni mavlaviy sulukining asosiy rasmlaridan biriga aylantirdi. Zikr vaqtida darveshlar shayx atrofida

sayyoralarning joylashishi shaklida davra olib, muayyan izchillik bilan aylana boshlar va shu yo'l bilan sayyoralarning quyosh (shams) atrofida aylanishini takrorlar edilar. Zikrdan so'ng dabdabali ziyofat berilar edi. U 1270 yil 30 sentyabrda Ko'niyoda vafot etdi.

O'zining g'azallari ostida Jaloliddin hatto Shamsning nomini qo'yadi. Shu bilan u har ikki do'st tirik vaqtlaridayoq ikki jismga joylashgan yagona ruh, yagona qalbg'a aylanganliklarini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Bunday she'rlardan Jaloliddin butun boshli devon tuzib, uni "Devoni Shamsul Haqoyiq" ("Haqiqat quyoshining devoni") deb nomlaydi.

Rumiy lirik she'rlaridan tashqari, "Masnaviyi ma'naviy" (yoki Mavlaviy) nomli yirik ta'limiy doston ham yaratadi. Jami 30 ming misradan iborat bu asar ustida Jaloliddin o'z hayotining so'nggi 14 yili mobaynida ishladi va uni nihoyasiga yetkazolmay vafot etdi. Asarda muallif o'zining tasavvuf ta'limotini bayon qiladi.

Rumiy faylasuf sifatida juda ko'p o'z zamoni uchun dadil fikrlarni ilgari suradi. Masalan, kishi o'zining yerdagi ulug'vorligidan qat'iy nazar, u inson bo'lganligi uchungina qadrlidir, deydi. Irqiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodiga qaramay barcha xalqlar qiymatini teng hisoblaydi. Zulm va zolimlikni qoralaydi, adolat va hikmatni, mehnat va saxovatni tarannum etadi.

Rumiyning ilmiy irfoniy va umuman falsafiy ta'limoti Sharq xalqlari ma'naviy fikr kamolotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Faqat Sharq emas, G'arb falsafasiga ham ta'sir ko'rsatdi. Uning dialektikasi Gegel dialektikasiga ta'sir ko'rsatganligi ma'lum. Falsafasi va shoirona mahoratiga ulug' Gyote ham yuqori baho bergan.

Jaloliddin ijodining bosh ohangi – insondo'stlik, xalqparvarlik bo'lganligi uchun ham uning shuhrati olamni tutgan, uning asarlari jahon badiiyoti xazinasiga munosib javohirlar bo'lib qo'shilgan.

Jaloliddin Rumiyning asarlari butun dunyo xalqlari tillariga tarjima qilinib, nashr qilinmoqda.

### **Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

1. Sa'diy Sheroziy ijodining o'zbek adabiyotiga ta'siri mavzusida referat ishi tayyorlang.
2. Sa'diyning "Kulliyot" iga kirgan "Bo'ston" va "Guliston" kitoblari haqida ma'lumotlar to'plang.
3. Sa'diyning halollik haqidagi nasihatlarini bo'yicha referat yozing.
4. Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asarining tarjimalari haqida ma'lumotlar to'plang.

5. Jaloliddin Rumi va Shamsiddin Tabriziyning yaqin do'stligiga nima sabab bo'lganligini aniqlang.

6. Rumi faylasuf sifatida o'z zamoni uchun qanday dadil fikrlarni ilgari surganligi haqida referat yozing.

7. Rumiyning dialektik g'oyalari Hegel dialektikasiga qanday ta'sir ko'rsatganligini aniqlang.

### **Adabiyotlar**

1. Ali Akbar Dehxudo. Lug'atnoma, 104 jild. Tehron un-ti nashr. 1965 (fors tilida).

2. Mavlono Jaloliddin Rumi. Masnaviye ma'naviy: Muqaddima, Qobul, 1982 (fors tilida).

3. N. Ibragimov. Ibn Battuta i yego puteshestviya po Sredney Azii, M.: Nauka, 1988.

4. Bertels Ye. E. Istoriya persidsko-tadjikskoy literaturi – Izb. trudi. M., 1960.

5. Istoriya vsemirnoy literaturi (Jahon adabiyoti tarixi), M., t. 1-7.

6. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi, T., Fan, 1978.

7. Braginskiy I. S. 12 miniatyur. M., Xudoj. lit., 1966.

8. Braginskiy I. S. Iranskoe literaturnoe nasledie, M., Nauka, 1984.

9. Konrad N. I. Zapad i Vostok, M., Nauka, 1966.

10. Nikitina V. B. Literatura Vostoka v srednie veka // Literatura Irana. M., Izd-vo MGU, 1970.

11. Rashid ad-Din Vatvot. Sad volshebstva v tonkostyax poezii. Issled. i komment. N. L. Chalisovoy. M., Nauka, 1985.

12. Xuseynzoda Sh. Bahs va andesha. Dushanbe: Irfon, 1964.

13. Shomuhamedov Sh. M. Odamiylik inshosi. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.

14. Shomuhamedov Sh. M. Mumtoz fors adabiyoti (X – XV asrlar). O'quv qo'llanma. T., 2011.

15. O'zbek adabiyoti tarixi: 2 jildlik. T.: Fan, 1977.

### **3-mavzu. Hindiston adabiy muhitida insonparvarlik g'oyalari**

#### **Mavzuning o'quv maqsadi**

Talabalarda ularning asosiy mutaxassislik fani bo'lgan Sharq falsafiy tizimlari rivojiga sezilarli hissa qo'shgan, ammo o'z yurtlari bo'lgan O'rta

Osiyodan Hindistonga borib ijod qilgan va asarlaridagi insonparvarlik gʻoyalari tufayli yana oʻz yurtlariga shuhratlari yoyilgan mutafakkirlar haqida tahliliy maʼlumot berish.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari**

Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, “Tuhfat us-sigʻar” (“Yoshlik tuhfası”), “Vasat ul-hayot” (“Hayot oʻrtasi”), “Gʻurratul-kamol” (“Kamolotning boshlanishi”), “Baqiya un-naqiya” (“Saralarning sarasi”), “Nihoyat ul-kamol” (“Kamolot choʻqqisi”), Badr Chochiy, Muhammad Avfiy, “Lubob ul-albob”, E.Braun, Ziyovuddin Naxshabiy, “Gulrez”, “Toʻtinoma”.

### **Asosiy savollar**

1. Amir Xusrav Dehlaviy asarlaridagi insonparvarlik gʻoyalari
2. Badr Chochiy ijodi
3. Muhammad Avfiyning “Lubob ul-albob” tazkirasining ahamiyati
4. Zuyovuddin Naxshabiyning dolzarb ijtimoiy muammolarni oʻz ichiga olgan kitobi

**1. Amir Xusrav Dehlaviy.** Amir Xusrav XIII asr oxiri va XIV asr boshlari Hindiston madaniyati tarixida moʻtabar oʻrin egallab, fors va urdu tillarida ijod etgan shoirdir.

Uning toʻliq ismi Yaminiddin Abul Hasan Amir Xusrav Dehlaviydir. U 1253 (651 h.) yilda Hindistonning Gang daryosi boʻyidagi Patyoli nomli joyda dunyoga keldi. Otasining ismi Amir Cayfuddin Mahmud boʻlib, Oʻrta Osiyoning turkiy qabilalaridan chiqqan. Moʻgʻullar istilosi vaqtida oʻz tugʻilgan joyi Kesh (hozirgi Shahrisabz) ni tashlab, Hindistonga ketishga majbur boʻlganlardan biri edi.

Xusrav umrining koʻp qismini Dehlida oʻtkazganligi uchun “Dehlaviy” degan nisba olgan.

Xusravning otasiga Dehli sultonlaridan biri turk Shamsiddin Iltutmish (1211 – 1236) amirlik unvonini bergan. U sulton saroyida katta obroʻga ega boʻlgan. Amir Xusrav saroy hayotiga yaqin muhitda oʻsdi. Yaxshi ilm, yaxshi tarbiya olishga muvaffaq boʻldi. Uning otasi 1261 (660 h.) yilda moʻgʻullarga qarshi jangda halok boʻlgan. Xusrav bu vaqtda 8 yoshda edi. Shoirning oʻz soʻziga qaraganda, bobosi Imodul Mulk uning tarbiyasiga jiddiy ahamiyat berdi. Xusrav, asosan Dehlida tahsil koʻrdi. 1273 yilda 20 yoshli Xusrav Malik Chxaju nomi bilan mashhur boʻlgan Keshluxon saroyiga jalb qilindi. U Hindistonga moʻgʻul hujumlarining guvohi boʻldi.

Amir Xusrav 1290 yildan 1320 yilgacha Dehli sultonlari saroyida xixmatda bo‘ldi. Umrida uch sulolaga xizmat qilgan Amir Xusrav o‘sha davr an‘anasiga muvofiq o‘z asarlarini shu sultonlarga bag‘ishlagan. Amir Xusrav saroy shoiri bo‘lgan bo‘lsa-da, saroy hayotining tubanligini qoraladi.

Amir Xusrav hayotida uning piri Shayx Nizomiddin Avliyo katta o‘rin egallaydi. Shoir ijodida sufiyona kayfiyatlarning kuchayishida ham uning ta‘siri katta bo‘lgan.

Saroy hayotining fosidligidan bezgan shoir o‘sha zamonda o‘z yorqin ideallari uchun tasavvufdan boshqa yo‘lni ko‘ra olmasligi tabiiy edi. Uni XIII – XIV asrlarda Hindistonda keng tarqalgan tasavvuf g‘oyalari qamrab oldi. Zamon zayli uning hayoti va ijodiga o‘z tamg‘asini bosdi.

Amir Xusrav she‘riy, tarixiy hamda adabiyotshunoslik va musiqaga oid juda ko‘p asarlar yozgan. Adib va shoir asarlarining miqdori haqida turli fikrlar mavjud. Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha: “... Amir Xusrav o‘z risolalarining birida “Mening she‘rlarim 500 ming baytdan kamroq, ammo 400 ming baytdan ortiq”, deganligini aytadi.

Shoir asarlarining turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalarini dunyoning deyarli barcha kutubxonalaridan topish mumkin. Dadil aytish mumkinki, Amir Xusrav asarlari nodir qo‘lyozmalarining ko‘pchiligi va qadimgilari sobiq Sovet Ittifoqi kutubxonalarida, jumladan. O‘zbekistonda saqlanmoqda.

Xusravning lirik asarlari (qasida, g‘azal, qit‘a, ruboiy, tarje‘band, lug‘z, muammo) asosan besh devonga to‘plangan. Ular “Tuhfat us-sig‘ar” (“Yoshlik tuhfası”), “Vasat ul-hayot” (“Hayot o‘rtasi”), “G‘urrat ul-kamol” (“Kamolotning boshlanishi”), “Baqiya un-naqiya” (“Saralarning sarasi”), “Nihoyat ul-kamol” (“Kamolot cho‘qqisi”) nomlari bilan mashhur.

Bu besh devonga yig‘ilgan she‘rlar shoirni mohir lirik sifatida olamga mashhur qildi.

U, avvalo, g‘azal ustozı. Shuning uchun ham Alisher Navoiy uni mislsiz g‘azallar ijodkori Xo‘ja Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy kabi ustozlar qatoriga qo‘yib deydi:

G‘azalda uch kishi tavrıdır ul nav,  
Kim, andin yaxshi yo‘q nazm ehtimoli.  
Biri mu‘jaz bayonlik sohiri Hind,  
Ki ishq ahlini o‘rtar so‘zu holi...

Adabiyotimizda g‘azal Xusrav Dehlaviy bilan deyarli bir zamonda yashagan Sa‘diy (1203 – 1291) ijodida voyaga yetib, alohida janr darajasiga



ko‘tarilganligi musallam bo‘lgan. Hofiz Sheroziy (1300 – 1389), Kamol Xo‘jandiy (vafoti 1390), Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ijodida esa g‘azal yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi. Ammo Sa‘diyning kichik zamondoshi Xusrav Dehlaviyning g‘azal taraqqiyotidagi xizmati ham, fikrimizcha, Sa‘diy xizmatidan kam emas. Hech bo‘lmaganda, u Sa‘diy bilan Hofiz Sheroziylar orasida, ular ijodini bog‘lab turgan zanjirning mustahkam va muhim xalqasidir. Alisher Navoiy o‘zining g‘azalchilikdagi salaflari haqida gapirganda Sa‘diy nomini emas, Xusrav Dehlaviy nomini keltirishi ham bejiz emas<sup>1</sup>.

Amir Xusrav inson qalbining nozik hissiyotlari, oshiq yuragining dard-alamlari, iztiroblari, chuqur ezgu niyatlari, orzu-umidlari haqida nafosat va balog‘at bilan qalam tebratadi.

Amir Xusravning, ayniqsa, ishqni kuylashdagi mahoratini, g‘azalchilikdagi fasohatini yuqori baholagan Navoiy u haqida: “Ishq ahlining pok bozlari va shavqu niyoz ahlining nazmtiroz va afsonapardozlari mutaqqaddimidan andoqkim, nazm beshasining g‘azanfari va dardu ishq otashkadasining samandari va zavqu hol vodusining pokravi Amir Xusrav Dehlaviydurkim, pok nafas va guftori, pok alfoz va ma‘nonilik ash‘ori ishq ahli orasida g‘avg‘o va vajdu hol anjumani fazosida alolo solibdur”<sup>2</sup>, deydi.

Alisher Navoiy g‘azallaridan birida faxr bilan:

Demangiz bulbul Navoiyni samandardekki bor,

Nazmi ichra shu‘lai Jomiy-yu so‘zi Xusraviy.<sup>3</sup>–deydi.

Xusrav Dehlaviy “Duvalroniy va Xizirxon” dostonida juda muhim masala – Hindiston xalqlari o‘rtasida ittifoqlik masalasini ko‘taradi. Buyuk shoir musulmonlar bilan hindlar orasidagi nifoqning mamlakat mustaqilligi va taraqqiyoti uchun salbiy rol o‘ynashi mumkinligini his qila oldi.

Xusravning Hindistonda turli hind elatlari orasida shuhrat qozonishiga sabab, uning hindcha, hindaviy, urdu tillarida ijod etgan asarlari – she‘rlar, qo‘shiqlar, topishmoqlari bo‘ldi.

Juda ko‘p tadqiqotchilar Amir Xusravni urdu adabiyoti asoschilaridan biri hisoblaydilar. U o‘z iste‘dodini “Rixta” (shiru shakar) uslubida she‘r yozishda ham sinab ko‘rgan. Rixtalarning xususiyati shundaki, g‘azaldagi baytning bir misrasi sof fors tilida bo‘lsa, ikkinchisi sof hindaviy tilida bo‘lgan. U kxaribo‘li tilida she‘rlar ijod qilib, musulmon hukmdorlarining diqqat-e‘tiborini hind tiliga jalb etgan.

---

<sup>1</sup>Shomuhamedov Sh. Mumtoz fors adabiyoti (X – XV asrlar). O‘quv qo‘llanma. T., 2011, 184-bet.

<sup>2</sup>Navoiy A. Mahbul ul-qulub. Asarlar, 13-jild. T., 1966, 42-bet.

<sup>3</sup>Navoiy A. Asarlar, 1-jild. T., 1963, 440-bet.

Uning musiqaga oid uch to‘plami mavjud bo‘lgan. Hattoki hind kuylari bilan bir qatorda, fors taronalarini ham bastalashda ajoyib mahorat ko‘rsatib, ikki xalq musiqasini hamohang etgan va “yangi olam” yaratgan<sup>4</sup>.

Amir Xusrav Dehlaviy tarixiy dostonlari bilangina emas, balki ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy “Xamsa” siga izdoshlik qilib yozgan besh dostoni bilan ham mashhurdir. Shoirning o‘z so‘ziga qaraganda, bosh homiysi Sulton Alouddin Xeljiga bag‘ishlangan bu “Xamsa” sini uch yilda (1298 – 1301) yozib tugatgan. “Xamsa” quyidagi dostonlardan iborat:

1. **“Matla’ ul-anvar”** (“Yoritqichlarning chiqish manbai”). Asar 1299 yilda ikki hafta mobaynida yozilgan bo‘lib, 3310 baytdan iborat. Nizomiyning “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasini”) asariga javoban yozilgan bo‘lib, 20 maqola-suhbat va xotimadan iborat. Asarda muallif tarbiyaviy-axloqiy masalalar ustida fikr yuritadi. Doston tasavvuf ruhida yozilgan. Bu asar hali yaxshi o‘rganilmagan.

2. **“Shirin va Xusrav”**. Doston 1299 yil rajab (aprel) oyining boshlarida tugatilgan, 4124 baytdan iborat. Amir Xusrav bu masnaviysini Nizomiyning “Xusrav va Shirin” iga javoban yozgan. U yaratgan obrazlar sodda va tushunarli.

3. **“Majnun va Layli”**. Mumtoz sharq adabiyoti an‘anasiga binoan Dehlaviyning “Majnun va Layli” dostoni ham Allohga murojaat qilish, hokim sultonni va shayx Nizomiddin Avliyoni madh qilish bilan boshlanadi.

Asarning boshlanmasidagi didaktik xarakterdagi “Farzandga yo‘llanma” bobida shoir o‘g‘liga nasihat qilib, o‘zining axloqiy idealini izhor qiladi. U 2660 baytdan iborat bo‘lib, Nizomiyning “Layli va Majnun” masnaviysiga javoban 1299 yilda yozilgan.

4. **“Oinai Iskandariy”** (“Iskandar ko‘zgusi”). Bu doston Ye.E. Bertels tomonidan Nizomiy va Alisher Navoiyning Iskandar haqidagi dostonlari bilan birga biroz o‘rganilgan<sup>5</sup>.

Doston shayx Nizomiddin Avliyoni madh qilish, so‘z qudratini ko‘klarga ko‘tarish bilan boshlanadi. Iskandarni payg‘ambar sifatida talqin etishlikni rad etadi, uni faqat “vali” sifatida tan oladi.

5. **“Hasht behisht”** (“Sakkiz jannat”). Nizomiyning “Haft paykar” iga izdoshlikda 1302 yilda yozilgan bo‘lib, 3344 baytdan iborat.

“Hasht behisht” ning asosiy qismi Bahromning otasi o‘lgach, taxtga o‘tirishi bilan boshlanadi. Doston dunyoning foniyiligi haqida mulohaza yuritish va kitobxonga nasihatlar qilish bilan tugaydi. Asar axloqiy-tarbiyaviy misralarga

---

<sup>4</sup>Nu‘moniy Sh. She‘r ul-ajam. Tehron, 1339 h. (1960), 2-jild, 99-bet.

<sup>5</sup>Bertels Ye.E. Navoiy i Djami. Izb.trud. M., Nauka, 1965, 335-bet.

juda boy. Shoir o‘zining hayotiy xulosalarini dostonning suyak-suyagiga singdirib yuborgan. Mana ulardan namunalar:

Qilmasa hosil berarmidi don,  
Yersiz nimaga ham yaraydi osmon.  
Ayol ham mard bo‘lib, tadbirli bo‘lsa,  
Igna bilan dugi bo‘lur o‘qnayza.  
Er agar tariqcha bir ish qilsa, deng,  
Xotin sarishtasi qilur birni ming.  
Ishbilarmon eldan ajrab chiqqan choq,  
Topilur undan ham ishbilarmonroq.  
Zangi tani misli qora loy erur,  
Onasi nazdida to‘lun oy erur.

Amir Xusrav “Xamsa” siga Navoiy ham nihoyat yuksak baho beradi:  
Kishi mundoq bo‘la olmay guharrez,  
Magar u hinduyi zodi shakarrez...  
Ne gavhar, balki ilmu fazl koni,  
Dema konkim, degil ko‘hi ma’oniy.

Xusravning ayrim dostonlari urdu tiliga tarjima qilingan.

**2. Badr Chochiy.** Hanuz ijodi deyarlik o‘rganilmagan shoir Badriddin Muhammad Chochiy Toshkentdan chiqqani uchun uning nisbasi Chochiy (Shoshiy) bo‘lib, ba‘zan taxallus sifatida ham qo‘llaniladi. U 1285 yilda tug‘ilgan. 1344 yilda unga “Faxr uz-zamon” unvoni berilgan. 1355 (733 h.) yilda Hindistonga ko‘chib kelgan va Sulton Muhammad ibn G‘iyosiddin To‘g‘luq saroyiga xizmatga kirgan. U riyoziyot va falakiyot ilmlarining bilimdoni bo‘lgan. Sadriddin Ayniyning taxminiga ko‘ra, shoir 1345 yildan keyin vafot etgan.

G‘iyosiddinning “Koshif ul-asror” tazkirasida Badr Chochiyning 72 qasida, 95 g‘azal, 37 ruboiysi keltiriladi. Badr Chochiy she‘rlarining mundarijasi juda keng. Uning ijodida ishqiy she‘rlar qatori hajviy she‘rlar ham uchraydi.

**3. Muhammad Avfiy.** Nuriddin Muhammad ibn Tohir ibn Usmon Avfiy 1172 – 1176 yillar orasida Buxoroda tavallud topgan. U bolalik davrini Buxoroda o‘tkazib, 1203 yilda safarga chiqadi. Safari davomida Marv, Xorazm, Hirot, Niso, Seyiston, Nishopur, Qazvin, Isfazor va boshqa shaharlarda bo‘ladi, adib va olimlar bilan uchrashadi va 1219 yilda Buxoroga qaytib keladi.

O‘rta Osiyoga mo‘g‘ullar hujumi boshlanganda Avfiy Hindistonga ko‘chib ketadi (1221). Sind viloyati hokimi Nasriddin Kubocha xizmatiga kiradi, uning

vaziri Aynulmulk Faxriddin bilan do‘stlashadi. Avfiy 1222 yilda Aynulmulk xohishi bilan o‘zining “Lubob ul-albob” tazkirasini yozadi. Kanboyat shahrida qozilik qiladi.

Avfiy 1233 – 1242 yillar orasida vafot etgan, deb taxmin qilinadi. Uning qaerda dafn etilganligi noma’lum.

Avfiyning asosiy asarlari:

“Lubob ul-albob” asari ingliz sharqshunos olimi E.Braun tomonidan tayyorlanib, 1906 yilda Leydenda bosilgan. “Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ur-rivoyot” to‘plami esa Tehronda 1956 (1335 h.) yilda chop etilgan. Dushanbeda “Javome’ ul-hikoyot...” dan tanlanma kitob 1966 yilda chiqqan edi, o‘zbek tilida ham uning hikoyalaridan tarjima parchalar bosilib chiqqan.

“Lubob ul-albob” tazkirasining ahamiyati juda katta. Bu kitob bo‘lmaganda ko‘pchilik VIII – XIII asrlar shoirlari haqida biz hech qanday ma’lumotga ega bo‘la olmas edik. Bu kitob forsiy adabiyot tarixida tazkirachilikni boshlab berdi. Keyingi tazkiralalar shu kitobga tayandilar va uni davom ettirdilar.

“Lubob ul-albob” 12 bo‘limdan iborat:

1. She’r va shoirlik fazilati haqida.
2. She’r so‘zining lug‘aviy ma’nosi haqida.
3. Birinchi she’r aytgan kishi kim?
4. Forsiyda birinchi bor kim she’r aytgan?
5. Sultonlar va amirlar she’ri nazokati haqida (27 kishi).
6. Vazirlar va sadrlar she’ri haqida (43 kishi).
7. Ulamo va fuzalo she’ri haqida (60 kishi). Bu bob 4 fasldan iborat bo‘lib, Movarounnahr, Xuroson, Nimruz, Iroq, G‘azna va Jibol shoirlari alohida fasllarda tasvir etilgan.
8. Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar shoirlari haqida (31 kishi).
9. Oli Nasr (G‘aznaviy) shoirlari (29 kishi).
10. Saljuqiylar davri shoirlari (52 kishi). Bu bob ham 4 fasldan iborat bo‘lib, Xuroson, Movarounnahr, Iroq, G‘azna va Jibol shoirlari haqida bahs yuritiladi.
11. Sulton Sanjar davlatidan keyingi davr shoirlari (53 kishi). Bu bob ham Xuroson, Movarounnahr, Iroq, G‘azna va Lahor fasllaridan iborat.
12. Mazkur shoirlardan keyin o‘tgan sadr (boshliqlar), fozillar va shoirlar haqida (4 kishi).

Kitobning 7 bobi bir jild va 5 bobi ikkinchi jild qilib birlashtirilgan va har jildga alohida muqaddima yozilgan. 1-jildda 130, 2-jildda 299 kishi haqida so‘z

yuritiladi. Kitobda axloqiy mavzularga alohida ahamiyat berilib, hayo va odob, karam va shafqat, yumshoqlik va bag'rikenglik, saxovat va shijoat, sabru toqat, ahdu vafu kabi xislatlar targ'ib qilinadi, hasad, xirsu tama' va boshqa illatlar qoralanadi.

4. **Ziyovuddin Naxshabiy.** U Naxshab, hozirgi Qarshi shahrida XIII asr o'rtalarida tug'ilgan, uzoq umr ko'rib, 1350 yilda vafot etgan va ko'p yil hayot kechirgan shahri Badounda dafn etilgan. Ziyovuddin Naxshabiy yoshligida Hindistonga ketib, Badounda yashaganligi uchun uni Badouniy nisbasi bilan ham ataydilar. U umrining oxirida tasavvufga berilib, go'shanishinlikni ixtiyor etadi.

Naxshabiyning "Gulrez", "Juzviyot va kulliyot", "Silk us-suluk", "Lazzat un-niso" va boshqa bir qator nasriy asarlari ichida "To'tinoma" asari juda mashhur bo'lib, uning asl nomi "Hikoyat ud-diroyat" ("Ziyrak hikoyalar") bo'lgan.

"To'tinoma" hikoya ichra hikoya uslubida yozilgan bo'lib, ularning ko'pi hind manbalaridan olingan 119 katta va kichik hikoyatni o'z ichiga oladi. Muallif uni 1330 (730 h.) yilda ta'lif etgan. Kitob adib zamonasining dolzarb ijtimoiy muammolarini, tarbiyaviy-axloqiy fikrlarini o'z ichiga oladi.

### **Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

1. "Navoiyning Amir Xusrav Dehlaviyga tatabbu'lari" mavzusida referat tayyorlang.

2. Venn diagrammasi usulida "Xamsa" lardagi dostonlarning nomlanishlaridagi farqlarni ko'rsatuvchi jadval tayyorlang.

3. Badr Chochiy, Muhammad Avfiy va Naxshabiylarning ijodi xususida qo'shimcha ma'lumotlar to'plang.

4. "Lubob ul-albob" dan referat tayyorlang.

5. Professor M. Imomnazarov tomonidan tayyorlangan Xusrav Dehlaviyning "Hasht behisht" dostonining nasriy bayoni bilan tanishing.

### **Adabiyotlar**

1. Navoiy A. Asarlar. 1-jild. T., 1963.

2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Asarlar. 13-jild. T., 1966.

3. Shibli Nu'moniy. She'r ul-ajam. Tehron, 1339 h. (1960), 2-jild (fors tilida).

4. Shomuhamedov Sh.M. Mumtoz fors adabiyoti (X – XV asrlar). O‘quv qo‘llanma. T., 2011.
5. Bertels Ye.E. Navoiy i Djami. Izb.trud. M., Nauka, 1965.
6. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. Soch.t.I. M., 1963.
7. Bartold V.V. Raboti po istorii islama i arabskogo xalifata // Soch.t. IV. M., 1966.
8. Petrushevskiy I.P. Zemledelie i agrarnie otnosheniya v Irane XIII – XIVvekov. M. – L., 1960.
9. Gulyam Xuseyn Sadri Afshar. Tarix dar Iran. Sharx axval va ma’arif asar muarrixan va jugrafiyani Iran. Texran, 1345/1966 (fors tilida).
10. Stori. Persidskaya literatura, ch.I, II, III. –Stori Ch.A. Persidskaya literatura // Bibliograficheskiy obzor, perevel s angliyskogo, pererabotal i dopolnil Yu.E.Bregel. M., 1972.
11. O‘zbek adabiyoti tarixi: 2 jildlik. T.: Fan, 1977.

#### **4-mavzu.XIII – XIVasrlarda insonparvarlik g‘oyalarining rivoji**

##### **Mavzuning o‘quv maqsadi**

Talabalarga ularning asosiy mutaxassisligi bo‘lgan Sharq falsafiy tizimlari rivojiga o‘chmas iz qoldirgan XIV asrlardagi insonparvarlik g‘oyalari haqida mufassal ko‘nikmalar beruvchi ma’lumotlar berib, ularni tahliliy xulosalar chiqarishga yo‘naltirish.

##### **Mavzuning tayanch tushunchalari**

Sarbadorlar harakati, Ibni Yamin, umuminsoniy ishq-muhabbat, g‘azal, ruboiy, qit‘a, Gurgon, Tog‘otemirxon, Salmon Covajiy,qasida, “Firoqnoma”, Xoju Kirmoniy, “Humo va Humoyun”, “Gulu Navro‘z”, “Kamolnoma”, “Gavharnoma”, Ubayd Zokoniy, “Axloq ul-ashraf”, “Risolai sad pand”, “Risolai ta’rifot”, “Risolai dilkusho”, “Mushu gurba” (“Mushuk va sichqon”), Hofiz Sheroziy, Musallo bog‘i, Ruknobod.

##### **Asosiy savollar**

1. Sarbadorlar harakati va uning Ibni Yamin ijodida aks etishi.
2. Salmon Sovajiy ijodiga tasavvuf g‘oyalarining ta’siri.
3. Xoju Kirmoniy insoniy ishq kuychisi.

4. Ubayd Zokoniylar asarlarida insonparvarlik g'oyalarining namoyon bo'lishi.

5. Hofiz Sheroziy g'azallarida insonparvarlik g'oyalarining aks etishi.

1. Vatanimiz tarixida birinchi bor dehqonlar va hunarmandlar hokimiyatni o'z qo'llariga olishga muvaffaq bo'lgan sardorlar harakatining adabiyotga ta'siri juda muhim bo'ldi. Bu harakat g'oyalari, shu'lalari Hofiz Sheroziydek buyuk daholar ijodida, uning dunyoqarashida ham o'z jilosini ko'rsatdi. Ko'pgina olimlar va adiblar ijodiga alohida shuur baxsh etdi. Shular jumlasidan Ibni Yamin Far'yumadiy ijodi ham diqqatga sazovordir.

Amir Faxriddin Mahmud ibni Yamin Far'yumadiy 1286 yilda Xurosonning Far'yumad nohiyasida shoir oilasida dunyoga keldi. Ibni Yamin o'z yurtida tahsil ko'rib, otasining ta'sirida yoshligidanoq she'riyatga muhabbat qo'ygan. 1322 yilda otasi vafotidan keyin uni Xoja Alouddin devoniga xizmatga oladilar. Uning ko'pchilik qasidalarini shu davrga mansub. 1337 yilda Ibni Yamin o'z ona yurtidan chiqib, Gurgonga boradi va u yerning hokimi Tog'otemirxon xizmatida bo'ladi. 1341 yilda yana o'z vataniga qaytib keladi-da, Xuroson sardorlariga qo'shiladi. Shaxsan uning o'zi sardorlarning mo'g'ul hukmdorlariga qarshi janglarida ishtirok etib, 1342 yil 18 iyulida asirga tushib qoladi. Shu jangda shoirning devoni ham yo'qoladi. U 1347 yilgacha asirlikda bo'lib, Hirot hokimi Malik Muiziddin xizmatini o'tagach, tug'ilgan yurtiga qaytib keladi va Xuroson hokimlari xizmatida bo'ladi. 1357 yilda saroy xizmatini tark etib, go'shanishlik ixtiyor etgan shoir 1368 yilda vafot etadi.

Ibni Yamin adabiy merosi 13 ming baytdan ziyodroq bo'lib, u qitealar, g'azal, qasida, ruboiy, tarje'band, tarkibband, masnaviylardan iborat. U qit'a janrini nihoyat yuksak darajaga ko'targan, uning imkoniyatlarini kengaytirgan va ularda o'zining falsafiy-ijtimoiy fikrlarini mohirona ifoda etgan. O'z qit'alarida ijtimoiy notenglikni, adolatsizlikni qoralaydi, zolimlar zulmini fosh etadi, jafokashlarga hamdardlik qiladi, erku ozodlik g'oyalarini targ'ib va tashviq qiladi. U insonparvarlik g'oyalarini qattiq himoya qiladi. U kelajakka g'oyat ishonch va umid bilan qaragan.

Shoirning g'azallari umuminsoniy ishq-muhabbatga, ijtimoiy masalalarga, o'z ahvoli tavsifiga bag'ishlangan. Qasidalarida sardorlar harakati rahbarlari vasf va madh etiladi. She'rlarining tili ravon va hammafahm. Ularda tashbeh, tazod kabi ma'naviy san'atlar o'ziga xos yo'sinda ishlatiladi.

Bu ulug' inson o'z erki uchun o'limdan, dordan ham qaytmaydigan kurashchan odamlar timsolini yaratib ketgan. Uning fikricha, jahonda eng oliy zot – bu inson. Ammo inson dilida ikki kuch – jin va farishta mavjud. Ular

o‘zaro doimiy kurashda. Odam jinni o‘ldirishi kerak. Shoir insonni farishtadan ham yuqori qo‘yadi. Insonning murabbiysi va qozisi, o‘z iymoni, o‘z nomusi bo‘lib, u mardlik va jasorat bilangina o‘z maqsadiga yeta oladi.

**2.Salmon Sovajiy.** Jaloliddin Xoja Salmon ibni Xoja Alouddin Muhammad Ajam Iroqining Sova qoriyasida 1310 yilda tug‘ilib, shu yerda 1376 yilda vafot etgan.

Salmon Elxonlar davlatining inqirozi, Jaloiiriyalar hokimiyatining o‘rnatilishi davrida yashadi. Jaloiiriyalar sulolasining asoschisi Shayx Hasani Buzurg (1335 – 1356) Salmonni Bag‘dodga – o‘z saroyiga taklif etadi. Unda shoir hayoti yaxshi o‘tadi. Ammo u nechundir o‘z bola-chaqasini o‘z yurtida qoldirib, Bag‘dodda o‘zi yolg‘iz yashaydi, shoh farzandlarining murabbiysi vazifasini o‘taydi. Uning Sovaga borishiga ham shohning ruxsati kerak edi.

Uning “Devon”i 16 ming baytdan iborat. Salmon asarlarining qo‘lyozmalari jahonning deyarli barcha yirik kutubxonalarida topiladi.

Uning devoni 1861 yilda Bombayda va 1958 yilda Tehronda chop etiladi. Alisher Navoiy Xoja Salmonni “qasida javlongohining chavandozi” degan edi. Uning g‘azallari asosan ishq-muhabbat haqida bo‘lsa-da, ularda ijtimoiy-axloqiy masalalar ham yoritilgan edi. Ulardan tasavvuf bo‘yi kelib turadiganlari ham anchagina. Salmon qit‘alari uch guruhga bo‘linadi: birinchisi – jaloiiriy hukmdorlarini maqtashga bag‘ishlangan madhiy qit‘alar; ikkinchisi – hayot lahzalari, o‘z ahvoliga bag‘ishlangan, ularda nolish, o‘ksinish kuchli; uchinchi guruh – saroy ahlidan ba‘zilari, zolimlar, o‘z raqiblari mazammal qilingan she‘rlar mansub.

Salmon masnaviyalari quyidagilardan iborat:

1.“Firoqnoma”. Bu asar ishqiy masnaviy bo‘lib, XIV asrning 60-yillarida yozilgan. Unda davr tarixiy voqealari hikoya qilinadi.

2.“Jamshid va Xurshid”. Bu romantik ishqiy doston 1362 yilda yozilgan bo‘lib, 3087 baytdan iborat. U Chin shohining o‘g‘li Jamshid va Rum qaysarining qizi Xurshid muhabbati haqidadir.

Nizomiyga izdoshlik qilib yozilgan bu doston jahondan noumidlik va tarki dunyochilik kayfiyati bilan tugaydi.

Salmon bu dostonga boshqa shoirlar kabi tasavvuf buyog‘ini bermaydi, ko‘proq xalq ijodidan foydalanadi, uning qahramonlari hayotiy, xalqchil. Doston zavq bilan o‘qiladi va tushunishga oson.

Ammo Salmon ijodiga ham tasavvuf ta’siri bor. U Sanoiyga, Attor va Jaloliddin Rumiylarga payravlik qiladi. Ammo u tarki dunyochilikni, go‘shanishlikni yoqtirmay, dunyo lazzatlarini, rindlikni vasf etadi.

Salmon o‘z zamondoshlari Ubayd Zokoni va Hofiz Sheroziylar bilan mushoiralar qilgan. Uning “Badoe ul-e’joz” qasidasi suxanbozlikning oliy



martabasi hisoblanadi. Undan muvoshshah yo‘li bilan 56 turli qit‘a, ruboiy va ayrim baytlar chiqarish mumkin. Qasidada 120 ochiq va 281 yopiq san‘atlar mavjud.

**3.Xoju Kirmoniy.** Abulato Kamoliddin Mahmud ibni Ali Xoju Kirmoniy 1290 yilda Kirmonda tug‘ilgan. U yoshligidan she‘riyatga qiziqqan va shuningdek, falsafa, ilohiyot, tasavvuf, mantiq, ilmi nujum va tarix ilmlarini o‘rgangan.

Shoir sayohat qilib, Sherozda to‘xtaydi, so‘ng Kozirunga ko‘chadi va orifu alloma shayx Aminiddin Muhammad Koziruniyga murid bo‘ladi. Lekin bunda ham tinchlikka erisha olmay, hajga safar qiladi.

Xoju ko‘p qiyinchiliklar, g‘ariblik, yupunlik, hatto ochlikka chidab, 19 yil safarda yuradi. Shom, Hijoz, Iroq, Bag‘dod, Sheroz, Isfahon, Hamadon va boshqa joylarni ko‘rib, nihoyat, 1338 yilda o‘z vatani Kirmonga qaytadi. U 1354 yilda Sherozda vafot etgan.

Xoju Amir Xusrav Dehlaviydan keyin Nizomiya izdoshlik qilib “Xamsa” yozgan ikkinchi shoirdir.

Uning masnaviylari quyidagicha:

1.“Humo va Humoyun”. “Shohnoma” vaznida yozilgan bu doston qadim eron afsonalaridan biriga asoslanib, Xushang o‘g‘li Humo va Chin Fag‘furining qizi Humoyun ishq-muhabbati rivoyat qilinadi.

2.“Gulu Navro‘z” Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostoni vaznida yozilgan. Bunda shoir qadimiy Xuroson shohi Firuzning o‘g‘li Navro‘z va Rum qaysarining qizi Gul oralaridagi muhabbat sarguzashtlarini qalamga oladi.

3.“Ravzat ul-anvor”. Nizomiyning “Mahzan ul-asror”iga tatabbu‘.

4.“Kamolnoma”. Nizomiyning “Haft paykar” dostoniga tatabbu‘. Olimlar bu asarga Shayx Sa‘diyning “Bo‘ston”iga avvalgi va eng yaxshi tatabbu‘, deb baho berishadi.

5.“Guharnoma” yoki “Gavharnoma” deb ataluvchi bu doston 1344 yilda Nizomiyning “Xusravu Shirin”iga izdoshlik qilib, hazaj vaznida ta‘lif etilgan. Unda saljuqlarning mashhur vaziri Nizomulmulkning nasabnomasi ta‘rif va tavsif etilgan.

6.“Somnoma”. Rustami dostonning bobosi, Seyiston bahodirlaridan Somga bag‘ishlangan bu doston Firdavsiy “Shohnoma”si silsilasiga kiradi.

Xoju devonining eng qadim nusxasi 1349 yilda kitobat qilingan.

Xoju Kirmoniy g‘azal ustoz sifatida e‘tirof etilgan. Uning g‘azallari latofatli va tarovatli. Hofiz Sheroziy uning g‘azallari haqida: “Barcha kishilar nazdida so‘z ustasi Sa‘diy bo‘lsa ham, ammo Hofiz Xoju tarzida so‘zlaguvchidir”, deydi.

**4.Ubayd Zokoniyy.** Xoja Nizomiddin Ubayd Zokoniyyning to‘liq ismi Ubaydulloh bo‘lib, “Ubayd” uning taxallusidir. U 1270 yilda Qazvin yaqinidagi Zokon nohiyasida tug‘ilib, 1370 yilda Sherozda vafot etgan.

1330 yillarga kelib Ubaydning shoirlilik va yozuvchilik iste’dodi kamolga yetadi. Buni “Tarixi go‘zida” muallifi Hamdulloh Qazviniiy Ubayd haqida: “Uning she’rlari yaxshi va risolalari benazir”, deb yozadi. Zokoniyy asarlaridan uning 1345 yilda Iroqdan Sherozga Jamoliddin Abu Ishoq Inju saroyiga kelganligini taxmin qilish mumkin. U 10 yildan ortiq vaqt shu vazir xizmatida bo‘lib, unga qasidalar bag‘ishlaydi. U yana 12 yil Rukniddin Amidulmulk xizmatida bo‘ladi-da, so‘ng Sherozdan butunlay ketadi.

Ubayd Zokoniyy sulton Uvays Jaloiriy saroyida ham xizmat qilgan. Ammo u Bag‘dodda o‘zini g‘arib va kimsasiz his qiladi va yana Sherozga qaytib keladi-da, Fors podshohi Jaloliddin Abulfavoris shoh Shujo‘ Muzaffariy (1359 – 1384) xizmatiga noil bo‘ladi.

U Hofiz Sheroziyga zamondosh, 1365 yillarda shoh Shujo‘ o‘z ukasi shoh Mahmuddan yengilib, Kirmonga chekinadi. Zokoniyy ham u bilan birga ketadi. 1366 yilda shoh Shujo‘ Sherozni qaytarib olganida Ubayd ham qaytib keladi. Qolgan umrini Sherozda o‘tkazib, 1370 yilda vafot etadi.

Ubayd hayotda sho‘x va hazilkash odam bo‘lgan.

Ubayd Zokoniyy ijodi asosan quyidagi hajviy va hazil-mutoyibali asarlardan iborat:

1.“Axloq ul-ashraf”. Kitob 7 bobdan iborat bo‘lib, 1340 yilda yozilgan. Unda himmat, shijoat, iffat, adolat, saxovat, ilmu odob hamda hayo va vafo haqida bahs yuritiladi. Har bob 2 qismdan iborat bo‘lib, avvalida bahs yuritiladigan masalaga qadimgilar fikri keltiriladi va so‘ng o‘z zamondoshlarining qarashlari izhor etiladi. Bu masalalar hajviy tarzda talqin etiladi. Masalan, shijoat haqida yozar ekan, avvaliga “shijoat” qadimgilar bayonicha – bu mardlik, vatanga chetdan hujum bo‘lgan taqdirda vatan himoyasiga otilib chiqish..., deb, so‘ng “...ammo qadimgilar nazarida shunday edi, hozir esa bu tushuncha eskirib qolgan. Hozir shijoat bu xotinini urish, qo‘l ostidagilarga baqirish va h.k.”, deydi.

2.“Risolai sad pand”. 1349 yilda yozilgan bu risolada Ubayd 100 nasihat keltiradi. Nasihatlar kinoyali va majozan bitilgan. Masalan: “Qo‘lingizdan kelgancha haq so‘zni ishlatmang, boshqalar diliga ozor yetmasin va odamlar sizdan ranjib, yuz o‘girib ketmasin” qabilida.

3.“Risolai ta’rifot”. Bu kichik risola ko‘proq “Dah fasl” nomi bilan mashhur. Asar 10 bob (fasl)dan iborat bo‘lib, bir qator hayotiy, ilmiy va diniy atamalarga ma’no berib izohlaydi. Ammo bu izohlash hajviy yo‘sinda bo‘lib,

unda hokim tabaqalar, a'yonu ashraf, shuningdek, ruhoniy va shayxlar hajv qilinadi.

4. "Risolai dilkusho". Qisqa hikoyat va latifalardan iborat bo'lib, avvalgi to'rttdan bir qismi arab tilida yozilgan. Bu hikoyalarda muallif xalqning og'ir ahvolini tasvirlaydi, podsholar, hokim sinf namoyandalarini hajv qiladi, diniy bid'at va xurofotlarni fosh qiladi.

Shoirning "Mushu gurba" ("Mushuk va sichqon") qissasi mashhur bo'lib ketgan. Masal janrida yozilgan bu asardan ham ijtimoiy xulosalar chiqarish mumkinligiga ishora qiladi. o'z zamonidagi kamchiliklarni, kishilar tabiatidagi salbiy xislatlarni qalamga olib hajv qilgan ekan, bunda u nazokat va alohida mahorat ko'rsatadi. Uning hajviy va hazil asrlari ijtimoiy qimmatga ega.

5. **Hofiz Sheroziy**. Sharqda Xo'ja Hofiz taxallusi bilan mashhur bo'lgan, lirik she'rlari asrlar bo'yi og'izdan-og'izga o'tib kuylangan, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chib, xalq orasida keng tarqalgan bu shoirning asl nomi Shamsiddin Muhammaddir. Uning otasi Bahovuddin Isfahon shahridan bo'lib, kosibchilik va mayda savdo bilan shug'ullangan, qandaydir sabablar bilan Sherozga kelib, turib qolgan edi.

Hofizning tug'ilgan yili aniq ma'lum emas, har holda 1320 – 1324 yillar orasida bo'lsa kerak, deb taxmin qilinadi.

Hofiz otasidan juda yosh yetim qolganligi sababli, onasi uni boshqa kishilar tarbiyasiga topshirishga majbur bo'lgan. U o'zicha mustaqil turmush yo'lini ochishi lozim edi. Nonvoyga shogird tushadi, xamirturush va non sotadi. Bu orada o'qib, savod chiqaradi, Qur'onni yodlab, qorilikka o'tadi. Og'ir hayotini ta'minlash maqsadida ma'rakalarda Qur'on o'qiydi, kitob ko'chirib yozadi. Hofizning o'z qo'li bilan 1355 yilda ko'chirib yozilgan kitob nusxasi bizgacha yetib kelgan (Bu nodir qo'lyozma O'zbekiston FA ning Sharqshunoslik institutida saqlanadi). Bu kitob Xusrav Dehlaviyning "Xamsa" sidan ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi dostonlardir. Hofiz qo'li bilan ko'chirilgan har bir asarning oxirida "Muhammad ibni Muhammad ul- mulaqqab ish-Shams il-Hofiz ish-Sheroziy" deb imzo qo'yilgan. Shoirning o'zi bergan ma'lumotlariga qaraganda, 40 yil ilm tahsil qilgan. U bir joyda:

Qo'rqaman qirq yilda olgan ilmu fazlimni bukun,

Mast ko'zi bir boqishla aylagay taroj, deb.

– desa, yana boshqa joyda:

Qirq yil ichra kulfatu g'am chekdik, ammo oqibat,

Ikki yillik boda qo'lida ekan tadbirimiz.

– deydi.

Xalq orasida juda tez o‘sayotgan shuhratiga qaramasdan, yosh, baquvvat iste’dod egasi faqir va mashaqqatli hayot kechirar edi. Shuning uchun ham shoir bir g‘azalida:

Bilimdonlik va xushxonlik emas Sherozda emas manzur,

Kel, ey Hofiz, yuzimizni bo‘lak yurtga o‘girgaymiz.

– deb nola cheksa, yana boshqa joyda:

Fazl ahlining yetadir faqat ohu nolasi...

Jahl ahli davlat orqali yetmish falakkacha.

– deb oh uradi.

Hofiz Sherozni juda sevar, undagi Musallo bog‘i va Ruknobod daryochasini qayta-qayta tilga olib vasf etar edi. U 1389 yilda Sherozda vafot etdi. Xalq sevikli shoir jasadini o‘zining sayrgohi, Musallo bog‘iga dafn etdi.

Biz Hofiz ijodiga ko‘z tashlar ekanmiz, avvalo, xalq noroziligi, feodal o‘zboshimchaligiga, o‘rta asrning katta-kichik jahongirlari jabru zulmiga qarshi xalq yuragidan chiqqan chuqur bir ohangning shoir qalbidagi sadosini ko‘ramiz. Shuning uchun ham Hofiz lirikasi fors adabiyoti tarixida favqulodda o‘rinni egallabgina qolmay, balki butun jahonga g‘ulg‘ula solishga qodir bo‘ldi. Uning ijodi aholining hamma tabaqalarini baravar hayajonga keltirdi. Ammo ularning hammasi ham turli munosabatda bo‘ldilar. Xalqning ilg‘or namoyandalari, shoirlar, ashulachilar Hofizni sevib kuylagan bir paytda, zohidlar, muxtasiblar, ruhoniylar uni quvg‘in qilish, kofir deb e‘lon qilishga harakat qildilar.

Hofiz o‘z asarlarini to‘plab, “Devon” yoki “Kulliyot” tuzgan emas. Bizgacha yetib kelgan devonni shoirning o‘limidan taxminan 30-40 yillar o‘tgach, uning do‘sti va shogirdi Muhammad Gulandom to‘plab, devon shakliga keltirgan.

Undan bizga kichik bir meros – birgina kitob qolgan bo‘lsa-da, u butun jahonga ma‘lum bo‘ldi. Devon to‘plangach, tez orada Erondan Hindistonga tarqalib, katta shuhratga sazovor bo‘ldi. Hofizning devoni qo‘lyozma, toshbosma va boshqa nusxalarda Sharq mamlakatlarida juda keng tarqalgan kitobdir. U Yevropa tillariga ham tarjima qilinib. O‘ziga xos, tengi yo‘q bir durdona sifatida jahon adabiyoti xazinasini boyitdi. Uning ijodiga Gyote, Pushkin va A.Fet kabi mashhur so‘z san’atkorlari yuqori baho berdilar.

Gyote Hofiz iste’dodini “Ulkan quvnoq talant”, deb ataydi. “Bir marta ma‘nosini anglagan kishi uchun u butun bir umrga eng sevikli yo‘ldosh bo‘lib qoladi”, deb keyin Hofizning sof va quvnoq kayfiyat yarata olganligini qayd qiladi-da, “Bu san’atda kim u bilan tenglasha oladi”, deydi<sup>6</sup>.

“Bizning shoir bilan hatto yuzakigina tanishib chiqishning o‘zi ham ikki shubhasiz haqiqatning guvohi bo‘la oladi, – deb yozgan edi iste’dodli rus shoiri

---

<sup>6</sup> «Problemi vostokovedeniya» jurnali, №4, 1960, 189-bet.

A.Fet Hofiz she'rlari tarjimasining muqaddimasida. – Birinchidan, shoirlar va mutafakkirlar ijodida bizni hayratda qoldirayotgan yuksaklikka kishilik ruhi allaqachon ko'tarila olgan, ikkinchidan, qaysi tuproqda va qaysi davrda unib o'sganligidan qat'iy nazar, haqiqiy poeziya chechaklari aslo so'lmaydi"<sup>7</sup>.

Hofiz she'rlariga A.S. Pushkin ham juda katta baho berganligi ma'lum. U mo'`tabar shoirning g'azallari mavzusida bir necha ajoyib she'rlar yozgan.

Adabiyotimizning otasi, ulug' suxanshunos Alisher Navoiy bir qit'ada g'azalga'y shoirlar haqida gapirib, g'azalda uch ustoz borkim, ulardan yaxshiroq nazm qilish ehtimoli ham yo'q ekanligini ko'rsatib:

G'azalda uch kishi tavidur ul nav',  
Ki ondin yaxshi yo'q nazm ehtimoli.  
Biri mo'`jizbayonlik Sohiri Hind,  
Ki ishq ahlini o'rtar so'zu holi.  
Biri isonafaslik Rindi Sheroz,  
Fano dayrida mastu luoboliy.  
Biri qudsi asarlik Orifu jom,  
Ki jomi jamdurur sing'on safoli.  
– deydi.

Bundan tashqari, A. Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida Hofizni "asrning yagonasi", deb ataydi. Bunday shuhratning siri nimada?

Avvalo, shuni aytish kerakki, Hofiz isyonkor shoir. U xalq fojeasining lirik kuychisi bo'lib kamolotga yetishdi, xalqning yuragidagi o'tli faryodni ifodalab bera oldi.

Topmadim bu olami xokiyda aslo odamiy,  
Boshqa olam, yangi odam qaytadan tuzmoq kerak.

Faqat xalq yuragining sadosi bo'lgan shoirgina shunday misralarni yozishga qodir.

Hofiz adabiy merosining asosiy qismini g'azallar tashkil qiladi. fors adabiyoti tarixida g'azal shakli X – XI asrlardanoq ma'lum edi. Ammo bu shakl fors adabiyotida Muslihiddin Sa'diy ijodida ravnaq topib, mustaqil janr darajasiga yetgan. A.Navoiy Sa'diyi "g'azal ijodchisi", Hofizni esa bu janrning "milsiz va tengi yo'q ustoz" deydi.

Ma'lumki, g'azal lirik shakl, unda syujet yo'q. G'azalda ma'lum shaklni tashkil qiluvchi qofiya va vazn ipiga ayrim fikrlarni ifoda etuvchi durdonalar, ya'ni baytlar birin-ketin tiziladi. Ba'zan bu baytlarning bir nechasi, ba'zan esa har biri ma'lum bir fikrni ifoda etadi. Shuning uchun ham g'azaldagi baytlar yuzaki qaraganda bir-biri bilan bog'lanmagandek tuyulsa-da, ular orasida mantiqiy va ohang ila bog'lanish kuchli. Masalan, shoir hijron azobi haqida

---

<sup>7</sup>Fet A. Polnoe sobranie stixotvoreniy, izd. A.F.Marksa. Spb., 1912. Iltom, 187-bet.

gapirar ekan, bunda u zamona, davr hasratini ham ifoda etish uchun qulaylik topadi.

Hofiz gʻazallarida tasavvuf taʼsiri boʻlishi bilan bir qatorda, ularda gʻayri sufiylik, shayxlar va ruhoniylarning tekinxoʻrlik va firibgarliklarini nihoyatda zoʻr ehtiros bilan fosh etgan misralari ham juda koʻp.

Jumladan, u sufiylarga qarata:

Haq bandalarini yoʻldan ozdirmoq uchun

Bu makru riyo xirqasini kiygaysan, – deydi-da, ulardan umuman yuz oʻgirishga daʼvat etib:

Rindlikda bizni gap-soʻz qilishdi,

Eshon va shayxlar – johil va gumroh.

Zohid soʻzidan ming tavba qildik,

Obid ishidan astagʻfirulloh! – deydi.

Shu bilan birga, otash yurakli shoir ruhoniylarni ham (oʻz asarlaridan) qoʻrqish, olov bilan oʻynashmaslikka chaqirib, shunday ogohlantirgan edi:

Hayiq Hofizdagi oʻtli yurakdan,

Qozondek koʻksi qaynar, koʻnglida gʻam!

Hofiz lirik sheʼrlarida zamondan shikoyat, ruhiy isyon, vasl umidi, muhabbat zavqi, ilmu fazilatni targʻib qilish, tekinxoʻr sufiylar, riyokor shayxlarni, johillik va zulmni fosh etish bilan bir qatorda, istiqbolga qattiq ishonch gʻoyalarini ilgari suradi. Turmushda shodlik va farovonlik uchun kurashishni, hayotdan mumkin qadar koʻproq lazzat olish gʻoyalarini targʻib qiladi.

Hofiz gʻazallarining koʻpchiligida kuylangan muhabbat haqiqiy dunyoviy insoniy muhabbatdir:

Har kim qoʻlidan ketsa agar vasli yor,

Behisht huri labidan topmagay bol.

Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Nosir Xisrav kabilarning ijodida uchratganimiz singari, biz Hofiz ijodida ham dahriylik ohanglarini koʻp uchratamiz. U sevgili yorga koʻngil berish kishini hayotdagi qullikdan va bandilikdan xalos etishligini ochiqdan-ochiq kuylaydi:

Kel, ey koʻngil, uning zulfiga bogʻlan,

Xalos oʻlmoqqa gar boʻlsang havaskor!

May mavzusi ham shoir uchun, bir tarafdin, zamon taqvodorlari va islom ruhoniylariga qarshi norozilik bildirish uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, hayotdan olganingcha olib qol, degan tezisni yana-da asosliroq tasdiqlamoq uchun hamda qiyin qistovli zamonda oʻzini biroz unutish, koʻngliga orom berish uchun lozim edi. Shuning uchun ham shoir ijodida:

Xirqamni garov qoʻygum, bir kosa sharob avlo,

Bema'ni nasihatdan menga mayi nob avlo.  
Agar jannat tilarsan, biz bilan mayxonaga yurgil,  
Seni xumning tagidan xavzu kavsarga yeturgaymiz.

Men emasdurman u rind, tarki may-u dildor etay,  
Muxtasib bilgay, bu ishdan mumkin ermas oy etay.

Bu falakning ahd ila paymonida yo'q e'tibor,  
Ahdni jom ila tuzib, may shartini takror etay.  
kabi misralarni ko'plab uchratamiz.

Hamma musulmon ulamolari dunyoning sirini ilohiy kuchdan topgan bir  
vaqtda, Hofiz bunga ishonib bo'lmaydi, deb ochiq aytolmasa-da, bu aqidaga  
shak keltirib:

Gapir cholg'uchidan, maydan, jahon sirrini kam izla,  
Yecholmas hech kishi hikmatla bu og'ir muammoni. – deydi.

Ammo shoir mayxonaga kirib, sharob kayfiga g'arq bo'lib, o'z atrofidagi  
qonli voqealarga, xalqning og'ir hayotiga, uning fojeali qismatiga befarq  
qololmaydi. Bu voqealarning hammasi uning nozik qalbini ezar, u qattiq  
qayg'urar, kuchli iztirob chekar edi:

Meni ko'rganda da'vogar gado der,  
Vale g'am boyligi dilda farovon.

Madoring ketmish, ey dil, g'am yuki ostida qolmishsan,  
Borib bir kosa may ich, balki, bo'lgay dardinga darmon.

Bu qanday yaxshi fursat boda ichgach,  
Vazir, shoh vahmi yo'q, rohatdadir jon.

Insonparvar shoir mayni xalqning dard alamini unutish, undan chntlashish  
uchun ichmaydi. U bir g'azalida sufiylarni xalq qayg'u alamidanda bexabarlikda  
ayblab, o'zi xalq tarafida turib:

Qorong'udir kecha, qo'rqinchli mavj, dahshatlidir girdob,  
Na bilgay holimizni chetda turgan yuki yengillar. – deydi.

Bu baytlarda ochiq-oydin ko'rinib turibdiki, xalq g'azabining to'liqini Hofiz  
ongida o'ziga xos in'ikosini topgan.

Kel endi gul sochib har yon, qadah qo'lda o'turgaymiz,  
Buzib charx eski tomin, yangi bir tarh ila qurgaymiz.  
Falakdan men tubanlik minnatini hech ko'tarmasman,  
Agar ra'yim bilan yurmas ekan, barbod etkumdir.

Hofiz diniy ixtiloflarni “etmish ikki xalq jangi” deb ataydi va xalqni gumrohlikdan chiqishga chaqiradi:

Yetmish ikki xalq jangi hammaga berdi ozor,

Haqiqat yo‘lin hech kim ko‘rmadi, bo‘ldi gumroh.

Hofiz she‘rlarining shakli ham yuksaklikda uning mazmundorligidan qolishmaydi. Yana Gyote so‘zlari bilan aytganda, hech qaysi shoir o‘z she‘rlari bilan Hofizdek quvnoq kayfiyatni tug‘dirolmaydi.

## **5-mavzu. Temuriylar davri Hirot adabiy muhitida insonparvarlik g‘oyalarining rivoji**

### **Mavzuning o‘quv maqsadi**

Talabalarga ularning asosiy mutaxassisligi bo‘lgan Sharq falsafiy tizimlari rivojiga o‘chmas iz qoldirgan XV – XVI asrlardagi Hirot adabiy muhitida ravnaq topgan insonparvarlik g‘oyalari haqida mufassal ko‘nikmalar hosil qiluvchi ma’lumotlar berib, ularni tahliliy xulosalar chiqarishga yo‘naltirish.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari**

XV asrdagi uch madaniy markaz: Samarqand, Buxoro, Hirot; Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Shayx Sa‘diddin Qoshg‘ariy, Bahouddin Muhammad Naqshband, “Tuhfat ul-ahror”, “Sibhat ul-abror”, “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun”, “Xiradnomai Iskandariy”, “Silsilat ul-zaxxob”, “Salomon va Ibsol”, “Mir‘ot ul-xayol”, Sherxon Ludiy, “Tuhfai Somiy”, “Bahoriston”, Gyote, “Xamsa”, “Devoni Foniyy”, “Tuhfat ul-afkor”, “Daryoyi abror”, “Lujjat ul-asror”.

### **Asosiy savollar**

1. Hirot adabiy muhiti
2. Abdurahmon Jomiy asarlarida insonparvarlik g‘oyalarining tarannum ettirilishi
3. Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik g‘oyalarining yuqori cho‘qqiga chiqishi



1. Temur vafotidan so'ng uning vorislari orasida toju taxt janjallari ancha vaqt cho'zildi. Hirot taxtiga Husayn Boyqaro o'tirgachgina biroz osoyishtalik o'rnatildi.

XV asrga kelib Xuroson va Movarounnahrda uch madaniy markaz vujudga keldi – Samarqandda Mirzo Ulug'bek boshliq tabiiy fanlar rivojlangan bo'lsa, buxoroda diniy ilmlar rivoj topdi. Hirot esa bu davrda adabiyot markazi sifatida shuhrat topdi. Unga Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar rahnamolik qildilar.

Xurosonning qadimiy madaniyat markazlaridan bo'lgan Hirot ayniqsa, XV asrda ravnaq topmoqda edi. Shoxruh Mirzo davlatining poytaxti bo'lgan bu shaharda o'sha davrning eng mashhur san'at va adabiyot arboblari to'plana boshlagan edi. Keyinchalik Husayn Boyqaro va Navoiylar zamonida esa bu shahar O'rta Osiyo va Xurosonda eng yirik madaniyat markaziga aylandi.

2. Abdurahmon Jomiy 1414 yil 7 noyabrda Hirot viloyatiga qarashli kichik Jom shahrida tug'ildi. U yoshligida ota-onasi bilan Hirotga ko'chib kelgan.

Jomiy Samarqandga o'qishga kelib, Mirzo Ulug'bekning safdoshlaridan biri, o'z zamonasining mashhur olimi Qozizoda Rumiy ma'ruzalarini eshitishga muyassar bo'ladi. Samarqanddagi o'qish davri ham juda katta muvaffaqiyat bilan o'tadi. Hirotga qaytib kelgach, mashhur olim Ali Qushchiga imtihon topshiradi. Olim riyoziyot va aljabrdan qanday savol uchun og'iz ochmasin, darrov qisqa va aniq javob olganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Jomiy o'z zamonining arab tili, grammatika, sintaksis, badiiyot ilmi, musiqa, riyoziyot, astronomiya (falakiyot), falsafa, fiqh (din asoslari), hadis, Qur'on o'qish va sharhlash kabi fanlardan juda chuqur va keng ma'lumot egasi bo'lib yetishadi.

Abdurahmon Jomiy davlat idoralaridan biriga ishga kirmoqchi bo'lib boradi. Ammo uni qabul qilishi lozim bo'lgan amaldor eshigida uzoq kutib, uning oldiga kirolmay qaytib ketadi. Jomiy buni insonga nisbatan qattiq kamsitish va hatto haqorat, deb biladi. Shoir ikkinchi marta amaldorlik ishini orzu qilmaydi, har qanday takliflardan bosh tortadi va butun umrini adabiy hamda ilmiy ishga bag'ishlaydi. Hatto Abdullatif Mirzo uni saroyga taklif etganida ham bu taklifni rad etadi. Shayx Sa'diddin Qoshg'ariyga murid bo'lib, naqshbandiya jamoasiga kiradi.

Tasavvufda Jomiyning qiziqtirgan narsa tasavvuf g'oyalarining ilk davrida, shu jumladan, naqshbandiya jamoasining ham ilk davrida feodallar zulmiga qarshi ko'tarilgan g'oyalar edi.

Naqshbandiya jamoasining asoschisi Bahouddin Muhammad Naqshband faqat o'z mehnati bilan topilgan narsa halol degan, o'zi ham bir parcha yeriga don ekib, tirikchilik qilgan. U juda faqirona umr kechirgan va faqirlikni so'fiylar

jamoasi a'zolarining asosiy shartlaridan biri qilib qo'ygan. Ammo bu faqirlik tilanchilik bo'lishi kerak emas. So'fiy boshqalar hisobiga emas, o'z qo'l kuchi bilan kun ko'rishi kerak.

Undan tashqari, u kishilardan qochish, xilvatga yashirinishga chaqiruvchi mistik g'oyalarni ham qoralaydi. Kishi zohirda odamlar bilan, botinda (ichdan) esa xudo bilan bo'lishi kerak, deydi u. Ya'ni odam kishilik jamiyatidan ajralmasligi kerak. Faqat odam boshqalarning xatolarini ham yaxshilik sifatida tushuna olishi kerak. Yomonlikka ham yaxshilik bilan javob berishi kerakligini uqtirgan Naqshband:

Yaxshilarni yaxshi ko'rar dunyodagi har kishi,  
Yomonlarni yaxshi ko'rmoq faqat g'oliblar ishi.

deydi.

Jomiy o'z piri Sa'diddin Qoshg'ariyning qo'l ostida bu fikrlarni o'zlashtirish bilan birga ularga g'oyaviy asos qidirishga intiladi. Chunki bu davrda tasavvuf falsafasi hayotdan qochishga, go'shanishinlik, tarkidunyochilikka chaqirar edi.

Jomiy esa xalq ahvolini yaxshilash, barchani barobar qilish, bir tomonda ochlik, qashshoqlik, ikkinchi tomonda isrofgarchilik, dabdabali hashamat sabablarini tushunish va uni yo'qotish yo'llarini izlaydi. Butun umr shu g'oyalarga sodiq qoladi.

U so'fiylarni "nodon va zararli kishilar", deb ataydi. Jomiy Sa'diy an'anasini davom ettirib, xalqqa xizmat qilinmasa, ibodatdan ham foyda yo'q, degan fikrni quvvatlab yozadi:

Adolat birla mashhur bo'lgan kofir,  
Dindor zolimdan yurt uchun yaxshidir.

U o'sha davr kishilari boshiga tushgan balolardan yana biri diniy va mazhabiy talashlarni ham qoralaydi. Bu davrda ayniqsa sunniylar va shialar orasida ixtiloflar kuchayib borayotgan edi. Bunday ahvoldan g'azabga kelgan shoir bir to'rtligida shunday yozadi:

Ey daxrining mug'bachchasi, bir jom may so'ngil,  
Shia sunniy g'avg'osidan aynidi ko'ngil,  
It sunniy-u, eshak shia emasman yuz shukr,  
"Jomiy qaysi mazhabda?" deb surishtirmagil.

Jomiy ko'p asarlarini o'sha vaqt an'anasiga ko'ra, shoh va sultonlarga bag'ishlaydi, ammo bundan maqsad biror mukofot ilinji yoki boylik ta'masi emas, balki ularga nasihat qilish edi. Jomiy xalq va mamlakatning taqdiri mana shu shohu sultonlar, arkoni davlat qo'lida deb qattiq ishonar edi. Shuning uchun ularga she'r kuchi bilan ta'sir ko'rsatishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan edi. U o'z she'rlari haqida shunday deydi:

Mening devonimda she'rlar aksar,

Gʻazalidir oshiq dili shaydoning.  
Yoki hikmat toʻla nasihatidir,  
Jahon koʻrgan olim, aqli dononing.  
Unda pastlar zikri yoʻq, chunki bu ish –  
Bekorchi sarfidir umr – bebahoning.  
Shohlar madhi unda – yaxshilik istash,  
Taʻmasi emasdir nafsi baloning.

Jomiy fikricha, taʻma aralashgan soʻz haqiqatdan yiroq, taʻma qilgan kishi odil boʻla olmaydi:

Adl bilan taʻma suv bilan olov,  
Ikkisin bir joyda koʻrganmi birov?

Jomiy ijodining asosiy qisminiuning moʻjizali gʻazallari yigʻilgan “Fotihat ush-shubob”, “Vositat ul-iqd”, “Xotimat ul-hayot” nomli uch devoni va yetti dostonidan iborat “Haft avrang” (“Etti taxt”) asari tashkil qiladi.

Jomiy bir kuni Navoiy bilan xamsachilik haqida suhbatlashgandan keyin “Xamsa” yozishga ishtiyoq tugʻiladi va 5 dostonidan iborat “Xamsa” yozadi.

1. “Tuhfat ul-ahror” 886 hijriy, 1481 – 1482 milodiy yillarda yozilgan. Tasavvuf mavqeida turib yozilgan bu didaktik asar 20 suhbat-bobdan iborat. Har bir bob shu suhbatda ilgari surilgan axloqiy qoidani tasdiqlovchi masal bilan tugaydi.

Bu poemada muallif oʻz zamonasining ikkiyuzlamachi ulamolarini fosh qilib, ular hayotdan, oddiy xalqdan ajrab qolganliklarini koʻrsatadi. Ilm amalsiz hech narsaga arzimastligini uqtiradi. Oʻn uchinchi suhbatda esa zulm va zolimlikni qattiq qoralaydi. Unda hukmdorlarning yegan-ichgani harom degan xulosaga olib keladigan soʻzlarni oʻqiymiz:

Meva toʻliq dasturxonida tovuq  
Beva uyi yetim bogʻidan soliq.  
Mingan oting arpasini otboqar,  
Boshqochidan tortib olar har safar.  
Ovchi qushing yemishi el joʻjasi  
Biror qashshoq kampir aning xoʻjasi.

2. “Xamsa”ning ikkinchi dostoni “Sibhat ul-abror” 887, 1482 – 1483 yillarda yozilgan. Bu tasbeh 40 iqd-durdona, yaʼni qirq boʻlimdan iborat.

Bu asarda Jomiy mamlakatni idora qilish usuli masalalariga qaytadi, yaʼni shohlarni adolatga, insonparvarlikka chaqiradi. Soʻfiylar haqida gapirar ekan, u haqiqiy tasavvufchilar oʻz kunini oʻzi koʻrishi kerakligini aytib, boshqalar hisobiga yashash, tekinxoʻrlikni qoralaydi.

Uning fikricha, kishi kambag'al bo'lsa-da, hayotdo'st, xurram bo'lishi, dili og'rigan kishilarga shakar berishga qodir bo'lmasa-da, shirin kulgi hadya qilishi kerak.

Bulut emassenku, solingan qovoq,  
Niyatingdir tokay shundoq yashamoq?  
Yaxshidur chaqmoqdek daraxshon bo'lsang,  
To tiriksan shodon ham xandon bo'lsang.

Siqilgan kishiga kulgi baxsh etmoq,

Bir botmon qanddan ham, bilgil, yaxshiroq.

Shakardan topadi maza og'iz til,

Kulgidan topadi lazzat ruhu dil.

Yuzlaring burishiq tun kabi qaro,

Tongdek kul, yo'qolsin ajin mojaro.

Har qanday ishni sulh, tinchlik bilan hal qilish mumkin ekanligini qayta-qayta uqtiradi:

Shamdek bo'l, shamni ko'r, kuyib qalbu tan,

O'zgarlar bazmini qiladi ravshan.

Bulut bo'l, suv berib quyganda yomg'ir,

Gulni ham, xasni ham sug'orar bir-bir.

Hammaga omonlik istaguvchi bo'l,

Shunda adovatga qolmagay hech yo'l.

3. "Yusuf va Zulayho" 888, 1483 yilda yozilgan. U hatto Firdavsiyning shu mavzudagi dostonini ham siqib chiqardi.

Poema oxirida bu dunyo o'tkinchi dunyo, uning hech kimga vafosi ham, yaxshiligi ham yo'q, degan fikrlarni ilgari surib:

Bu dunyoda xurramlikdan yo'q nishon,

Bo'lganda ham undan mahrumdir inson.

Shodlik o'yi bilan diling to'ldirma,

Ozodlikni xayolga ham keltirma.

Niyatingga yetmayin ham shod bo'lgil,

Qullik bandi bilan ham ozod bo'lgil.—

deydi.

4. "Layli va Majnun" 889, 1484 yilda yozilgan. Jomiyning o'zi bu dostonida Nizomiy va Xisrav Dehlaviylar izidan bordim, deb ta'kidlaydi. Ammo dostonning mazmuni ancha o'zgartirilgan. Jomiy Sharqda keng tarqalgan bu poemada ham tasavvuf g'oyalarini targ'ib qilish va unga so'fiyona talqin berishga intilgan.

5. "Xiradnomai Iskandariy" ("Iskandar xiradnomasi") 890, 1485 yilda yozilgan. Bunda shoir odil shoh obrazini yaratib, o'z idealini chizib beradi.

Iskandarni xalq podsholik taxtiga ko‘taradi. U Arastu qo‘lida tarbiya ko‘rgan bilimdon, olim kishi, ammo uning eng asosiy fazilati – o‘z zarariga bo‘lsa ham, xalq foydasini ko‘zlashidir.

Mayli bo‘lsa hamki o‘ziga zarar,  
Xalqqa yaxshilikni o‘ylar Iskandar.

Jomiy Iskandar obrazida hukmdorlarga qarata:

Shunday yashagilki, sen bo‘lsang Sharqda,  
Seni duo qilsin odamlar G‘arbda.  
Aksincha bo‘lmag‘il, yashasang Rayda  
Qarg‘ishlar ko‘pmasin Rum kabi joyda. –

deb murojaat qiladi.

Jomiy bu besh dostonni tugatgach, unga yana ikki doston qo‘shadi va uning “Xamsa” si yetti dostondan iborat bo‘lib, “Haft avrang” nomini oladi. Ikki dostondan biri hali “Xamsa” yozishga kirishmasdan burun (1472 yillarda) yozilgan “Silsilat uz-zaxxob” (“Oltin zanjir”) dostonidir. Bunda tasavvuf g‘oyalarining bir qator qiyin va chalkash masalalari ustida so‘z yuritiladi. Nazariy aqidalar qiziq va lo‘nda misollar bilan tasdiqlanadi.

“Xamsa” ni yozib bo‘lgach, 890, 1495 yilda shoir “Oltin zanjir” poemasi ga yana bir daftar qo‘shadi. Bu daftar so‘fiyona ishq, ilohiy muhabbat haqidadir.

Keyinchalik, 1485 yildan keyin Jomiy bu dostonga yana bir bo‘lim kiritadi. U davlatni idora qilish haqida bo‘lib, turk sultoni Boyazid II ga bag‘ishlangan. Bunda ham adolatli podsho obrazi va uning hukmronlik namunasi berilgan.

“Haft avrang” ga kirgan poemalarning yettinchisi 884, 1479 – 1480 yillarda yozilgan “Salomon va Ibsol” dostonidir.

Qadim yunon qissalaridan olingan bu syujetda ham Jomiy tasavvuf g‘oyalarini targ‘ib qilish uchun foydalanadi. Bu poemada ham shoir hukmronlar haqida gapirib, juda ilg‘or fikrlarni bayon qiladi:

Ul ziyrak olim aytdi, bir so‘zki, yaxshi g‘oyat:  
Mamlakatning tayanchi –din emasdir – adolat.  
Adolat birla elda mashhur bo‘lsa kofir,  
Dindor zolim kishidin yurt uchun yaxshiroqdir.

“Mir‘ot ul-xayol” (“Xayol ko‘zgusi”) tazkirasining muallifi Sherxon Ludiy Jomiy asarlarining sonini 99 gacha olib boradi, ammo 1550 yilda yozilgan “Tuhfai Somiy” tazkirasida 45 asarning nomi tilga olingan.

Professor Bertels o‘zining Jomiy haqidagi monografiyasi<sup>8</sup> da uning 52 ta asari nomini keltiradi.

Badiiy nasrda Jomiyning “Bahoriston” asari juda katta muvaffaqiyat qozonib, maktablarda darslik bo‘lib ketgan asardir. 1487 yilda yozib

<sup>8</sup>Bertels Ye.E. Djami, epoxa, jizn, tvorchestvo. D., Tadjikizdat, 1949, 107-110-betlar.

tamomlangan bu kitob Sa'diyning "Guliston" uslubida yozilgan, 8 bob (ravza) dan iborat bo'lib, qisqa-qisqa hikoyalar, mashhur kishilar, olimlar, shoirlarning hayoti, odil davlat arboblarning qiyofasi sodda, tushunarli tilda va aniq obrazlarda chizib berilgan.

Ulug' nemis shoiri Gyote Jomiy haqida:

"O'ziga qadar va u bilan bir qatorda bo'layotgan hamma narsaga uning qurbi yetar edi. U bularning hammasini bir bog' qilib bog'lagani tufayli taqlid qilgani, yangilagani, avjga mindirgani, o'zidan oldin o'tganlarning kamchilik va afzalliklarini juda aniqlik bilan o'zida mujassamlashtira olgani uchun undan keyingilarga, sifatni pasaytirmaslik sharti bilan unga taqlid qilishdan boshqa chora qolmadi..."<sup>9</sup>, deydi.

Abdurahmon Jomiy 898, 1492 yil 8 noyabrda sodiq do'sti Alisher Navoiy qo'lida bandalikni bajo keltirdi. Butun Hirot bir yilgacha uning motamini tutdi.

Bir yil o'tgach, Navoiy butun Hirot xalqiga yiloshi qilib berdi va Jomiy qabri ustiga maqbara qurdirdi.

**3. Alisher Navoiy.** Amir Nizomiddin Alisher Navoiy (1441 – 1501) o'zigacha Sharqda kishilik aql zakovatining balog'ati bilan yaratilgan barcha ma'naviy boyliklarga vorislik qildi. U ona tilidagi adabiyot, ayniqsa, uning Lutfiy, Gadoiy, Atoiy kabi g'azalnavislari bilan faxrlanar edi.

Alisher Navoiy o'zining g'oyat ko'p qirrali ijodida davrning barcha soha va muammolarini qamrab olgan edi. Ijtimoiy hayotning mafkura va madaniyatning biron masalasi yo'qki, u bilan Alisher Navoiy mashg'ul bo'lmagan va u haqida o'z fikrini aytmagan bo'lsin. U ham davlat va jamoat arbobi, ham olim va shoir. Uning butun faoliyati asosida xalq va inson, vatan va taraqqiyot manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish yotadi. U qadr-qimmatini toptalgan insonni ulug'ladi, ardoqladi, borliqdagi eng qimmatli zot deb bildi, dunyodagi barcha mavjudotlar shu insonga tobe bo'lishlari va xizmat qilishlari lozim deb ta'kidladi.

Navoiy "Kimki insondurur, aning mahbubi ham inson kerak" degan qoidani o'rta tashladi va shu bilan davr mafkurasida, falsafasida to'ntarish yasadi.

Alisher Navoiyning xalqqa bo'lgan cheksiz muhabbati va sadoqati shu bilan uzviy bog'liqdir, bu muhabbatning zamirida xuddi shu qoida nazariy asos bo'lib yotadi. U xalqqa xizmat qilishda o'z ijodi va ijtimoiy faoliyatining ma'nosini ko'rdi.

Alisher Navoiy quyidagi satrlarda ifodalangan olam-olam ma'no va fikrlarni o'zi uchun bosh qonun deb bildi.

Odami ersang demagil odami

Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami.

---

<sup>9</sup>Gyote I.V. Primechaniya Zapadno-vostochnomu divanu // Problemi vostokovedeniya, 1960, №4, 183-bet.

Davron elining jismida nam jon bo‘lg‘il,  
Ham jonlarig‘a moyai darmon bo‘lg‘il.

Yaxshiroq bil oni ulus arokim,  
Ko‘proq o‘lg‘ay ulusg‘a nafa ondin.

Alisher Navoiy vatanni dildan behad sevdi va azizladi. U shu vatan siymosining hokimlar tomonidan toptalishini, shu vatan boshiga ular tomonidan otilgan kulfat toshlarini, shu vatandagi vayrona kulbalarni, xalq istiqomat qiladigan yerlardagi xarobalarni, shu vatan ko‘ksini og‘ir yaralar bilan to‘ldirgan va parchalagan urushlarni ko‘rdi, azob chekdi, Xisrav kabi bosqinchilarni la‘natladi. Mutafakkir shu vatanning ozod va obod bo‘lishini orzu qildi, shu orzuni amalga oshirish uchun kurashdi.

Alisher Navoiy she‘rning vazniga, musiqiyli va ohangdorligiga, ko‘p ma‘noli va har xil qofiyali bo‘lishga zo‘r e‘tibor beradi. Masalan, quyidagi ruboiyga qarang. Unda uch satrdagi so‘zlarning birinchilarigina har xil va qofiyadosh bo‘lib, boshqalarining hammasi qaytariqdan iboratdir. Lekin bu shundan ustalik bilan qilingan shu oddiy so‘z va satrlarda shunday katta ma‘no ifodalanganiki, natijada birinchi so‘zlarninggina qofiyadoshligi she‘rga alohida husn bo‘lib tushadi, qaytariqlar ham bilinmaydi, balki ma‘noni qayta-qayta ta‘kidlab zo‘raytirishga, binobarin, uni chuqur ochishga va shunday qilib uning ta‘sir kuchini oshirishga yordam beradi.

Jondin seni ko‘p sevarmen ey umri aziz,  
Sondin seni ko‘p ko‘p sevarmen, ey umri aziz.  
Har neniki sevmas ondin ortiq bo‘lmas,  
Ondin seni ko‘p ko‘p sevarmen, ey umri aziz.

Alisher Navoiy shariyatiga xos va katta maqtovg‘a sazovor fazilatlardan biri shundan iboratki, ularda rang-baranglik va ko‘p qirralilik g‘oyat zo‘r. Bir g‘azal hatto bir qit‘a yo tuyuqning o‘zida zo‘r ham mantiq va ulkan ma‘no, yaxlit maqsad bor, ham yengil hajv va uzib oluvchi kinoya bor, ham jiddiylik va qat‘iyat ko‘zga tashlanib turadi:

Qo‘rqutma meni tamug‘din, ey zohidi yax,  
Jannat menga bo‘lg‘usi debon urma zanax.  
Kim, do‘zax aning yodi bila jannat erur,  
Jannat bari sening biladur do‘zax.  
Yoki:  
Zohid senga huru menga janona kerak,  
Jannat senga bo‘ladi, menga mayxona kerak.

Mayxona aro soqiyu paymona kerak,  
Paymona necha bo'lsa, to'la yona kerak.

Umuman, Alisher Navoiyning badiiy mahorati bir olam, bebaho xazina, benihoya katta maktabdir. Uni ijodiy o'zlashtirish adabiyotimizning yana ham boyitishiga katta yordam beradi<sup>10</sup>.

Sharqdagi feodal tuzum qullikni afsuski, Yevropada bo'lganidek siqib chiqarib tashlay olmadi. V – VIII asrlarda feodallarning juda ko'p qullari bor edi. VII asrlardan keyin O'rta Osiyoning Arablar tomonidan zabt etilishi munosabati bilan xususiy mulkchilik yana ham qattiq o'rnashadi, mukammallashadi, qullik yo'qolmaydi. Yerlarni undagi odamlar bilan birga sotish, sotib olish ham bo'lib turar edi. Ko'p tarixiy manbalar, asarlar (Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si, gollandiyalik sayyoh Ya.Ya. Stroyisning "Uch sayohati") qullikdan, katta-katta qul savdolaridan (ular Hindistondan, Habashistondan keltirilar edi) xabar beradilar, masalan, XV asrda Xuroson bozorlariga bir yilda o'rta hisob bilan 20 mingga qadar qullar keltirilar edi. Shunday hodisalar ham bo'lar ediki, urushlarda asir tushganlar g'oliblar taraflaridan qulga aylantirilar edi.

Alisher Navoiyning qullikka bo'lgan manfiy munosabati o'z-o'zidan ochiq ma'lum bo'lgan narsaki buni isbotlash u haqida so'zlash ortiqchadir.

Suv, sug'orish masalasi Markaziy Osiyoda asirlardan beri eng jiddiy hayot masalalaridan bo'lib kelgan suvning bo'lish-bo'lmasligiga qarab uning oqish yo'lining o'zgarishiga qarab ba'zi joylarda yangi shaharlar qishloqlar hayot qaynagan joylar vujudga kelgan, ba'zi joylarda esa bor shaharlar, qishloqlar barbod bo'lgan yo'qolgan va hayot qurigan.

Navoiy ham o'zining faoliyatida suv masalasini hal etish, xalqning, mamlakatning chanqovini qondirish uchun bir qancha ishlar qildi. U o'zining asarlarida bu masalaga ham chuda katta ahamiyat, o'rin berdi, halqning bu masaladagi orzularini, halqning suv uchun tabiat stixiyalari, razillar bilan kurashlarini juda yaxshi ifodaladi. Uning Farhodi o'zining beqiyos aqli, qudrati bilan tog'-toshlarni titratdi, xarsang tog'ning o'rtasini yoradi – xalq saodatiga bo'lgan to'siqlikni o'rtadan ko'taradi, kanal qazadi, xalqqa baxt oqib keladigan yo'lni ochadi:

Ki suvni bog'lag'ay ul nahi ichiga,  
Alolo tushdi mulku shahr ichiga.  
Aningdek tog' sori tushtilar yo'l.  
Ki igna solsa yerga tushmagay ul.  
Tamoshog'a qo'yib el ul sifat yuz,  
Ki kasratin ko'ritin tog' ila tuz.<sup>11</sup>

<sup>10</sup>Qarang: V. Zohidov. Ulug' shoir ijodining qalbi. T., O'zbekiston, 1970. 7-11-betlar.



Alisher Navoiy fikricha, ayollar ham erkaklardagi qobiliyatga, qudratga, aqlga egadirlar, yerlar bilan ayollar barobar huquqqa egadirlar: ayollar chordevordan chiqishlari ishtimoi foydali mehnat bilan mashgʻul boʻlishlari kerak; Erlarga nisbatan ayollar huquqini chegaralash chuda katta haqsizlik va jinoyatdir. Navoiy oʻzining Muhibonu, Shirin va Dilorom kabi qahramon siyomosida oʻzining bunday ulugʻvor fikrlarini namoyish etgan.

Navoiy xalqni baxtsizlikka, qashshoqlikka olib keladigan adolatsiz, ichki urushlarni, oʻzaro olishuvlarni qoralaydi, ularga qarshi keskin kurash olib boradi, mamlakatni olgʻa tomon rivojlanishini taʼmin eta oladigan markaziy davlatni kuchaytirishni, muhofaza etishni koʻzlaydi;

Gʻazab tigʻin chiqarsa podshohlar,  
Ulugʻ mujrimcha bordir, begunohlar.

Qolishlik ichra chun oʻt tushti nogoh,  
Quruq-hoʻl kul boʻlur boʻlgʻuncha ogoh.

Qayonkim zohir etti seli bedod,  
Yiqorida teng durur vayroni obod.<sup>12</sup>

Alisher Naboiyning maktabdosh doʻsti Sulton Husayn Boyqaro fanni, adabiyotni sevish bilangina cheklanib qolmasdan, uni rivojlantirishda bir davlat boshligʻi, podsho sifatidagina ishtirok etmasdan, ayni zamonda, u oʻzining shaxsiy ijodi, adabiy faoliyati bilan ham bu ishda juda yaqindan ishtirok etgan. Husayn Boyqaro oʻzining goʻzal, boy, yoqimli, mayin hissiyotlik, qalbda chuqur taʼsir izlari qoldiradigan sheʼrlari bilan zamonining koʻp atoqli shoirlaridan qolishmas edi. Husayn oʻz sheʼrlarining goʻzalligi, nafisligi bilan Navoiyning katta maqtoviga sazovor boʻlgan.

Bir-ikki misol:

Ul sabodi xat ichinda laʼli xandonin koʻrung,  
Hajri gʻam ichra koʻzumning durri gʻaltonin koʻrung.  
Chehra birla sabzai xatti adour husniga zeb,  
Husn bogʻi ziynati gul birla rayhonin koʻrung.

Yor zulm aylagali beixtiyor oʻlmish netay?  
Voh anga javru sitam qilmoq shior oʻlmish netay?  
Notavon koʻnglum koʻz yangligʻ edi bemor mast  
Zulfidin endi parishon roʻzgʻor oʻlmish netay?<sup>13</sup>

---

<sup>11</sup>Navoiy, Xamsa.T.,1960.249-bet.

<sup>12</sup>Navoiy, Xamsa.T.,1960.271-bet.

Yoki

O'tga yoqg'il sarvini ul qaddi ra'no bo'lmasa ,  
Elga bergil gulni ul ruxsori zebo bo'lmasa.  
Sarv birla gul tamoshasiga maylim yo'q turur ,  
Bog' aro ul sarvi gulruxdin tamosha bo'lmasa.<sup>14</sup>

Husayn Boyqaro o'zbek madaniyati, adabiyoti rivojlanishida o'zining til sohasidagi faoliyati bilan ham katta o'rin tutdi. U fors tilini o'z ona tilidek a'lo darajada bilgan bo'lsa-da, o'z she'rlarining deyarli hammasini o'zbek tilida yozadi. U o'zbek tili uchun, uni o'z huquqlariga ega qilish uchun kurashda yaqindan ishtirok etadi va katta muvaffaqiyat qozonadi. Husayn Bayqaro shuni isbot etishga ma'lum darajada erishdiki, o'zbek tili ham o'zining boyligi, go'zalligi bilan, adabiy imkoniyatlari bilan fors tilidan qolishmaydi. Buning haqiqat ekanligini Alisher Navoiy garchi ancha oshirib bo'lsa-da, o'zining quyidagi so'zlari bilan tasdiqlaydi:

“To bu vaqtg'achaki, Abulg'oziy Sulton Husayn Bahodirxon podshohlik taxtiga o'tirgach va mamlakat so'rovchilik o'rnida orom topgach, mamlakat ipiga tinchlik gavharlarini tizdi, jahon ekinzorlariga jamiyat urug'larini ekdi. Sog' qalbi ma'nilar konining gavhari... bo'lgani uchun, so'z ahlini yuqori darajaga ko'tarish va rivojlantirish yuz berdi. Har ilmda foydali asarlar, har fanda natijali yozishmalar yaratdilar, qiziq kitoblar va ajoyib devon, g'azal, qasida va masnaviy kabi she'r turlari yuzaga chiqdi va hamma yoqqa yoyildi. O'zlari ham, garchi ham forsiy, ham turkiy tilida aytmoqqa qodir bo'lsalar-da, ammo asl ta'blarining tortishi va shu tilning tarqalgan bo'lishi munosabati bilan turkiy tilda devon yaratishga mayl qildilar va ko'ngilga yoquvchi baytlar, tengi yo'q g'azallar tuzdilarki.... Aytib o'tilgan, bunda ko'rsatilgan sifat va tartibda ta'rifi yozilgan va boshqa podshohlar balki pok nafasli shoirlar tomonidan voqi bo'lmagan bu xildagi turkcha devon yuzaga chiqdi va oraga tushdi. Uning toza hayotining fayzi quyosh chashmasidan o'tib ketdi va bu toifaning bebahralari bu ruh ozug'idan bahramand bo'lib, lab tashnalari bu tiriklik suvidan serob bo'ldilar. Shuning bilan birga podshohning muborak xotiri, quyoshday ravshan ko'ngli shunga ham moyilki, turk shoirlari o'z tillarida she'r aytishga mashg'ullik qilsinlar va qatma-qat bo'lib chirmashgan ko'ngil g'unchalari bahorning yoqimli shamoliga o'xshash nafaslar bilan guldek ochilsinlar. Iltifot va g'amxo'rlik yuzasidan ba'zi sabablar topib, she'r

---

<sup>13</sup> O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi.T., 1941.314,331-betlar.

<sup>14</sup> O'sha asar,302-bet.

aytishga hukmlar ham joriy bo'ldi, so'z uslubini belgilashlar va aytilishi ustida ta'limlar izhor qilindi.

Turk xalqining xush tab' beklari, mirzazodalari va qobiliyatli zehn egalari bu yo'lda kerak darajada mashg'ullik qilolmadilar va u xilda ijod natijalarini ko'rsata olmadilar, ulardan yaxshi aytaolish umidini qilsa bo'lar, balki bu umidni ularning turmushi ahvoliga yaqinlashtirsa bo'lar edi. Qiziqrog'i buki, bilarmon podshohning bunday targ'ib va undashi, muruvvat va maqtovigaga erishish va muvofiqlashish qoidasini unutib, bosh tortish va adashish yo'lini tutib, ko'pi, balki barisi forsiychaga moyil va u til bilan sher aytuvchi bo'ldilar. Buning sababi shundan o'zga bo'la olmas: turk tili tarifida yuqorida aytilgandek, garchi so'zlar ko'p, ibora (jumla qurilishi) keng, ma'nilar ajoyib aytilishida ravonlik bo'lsa-da, ko'ngulga yoquvchi qilib tuzishda qiyinchilik bor va diltortar qilib tartib berishda ta'b mehnat va azob tortar. Turk tili sharhida bir necha betni bezash va pardozlashni, unda hazrat sulton ta'blarining yoqimliliigi va zehnlarning mahoratini sharh etmoqni va oliy ra'ylari tartib bergan devon to'g'risida beadablik bo'lsa ham, bir necha so'z aytmoqni lozim ko'rildi.

Ul hazrat borib turgan donolik va benihoyat chuqur tushunish yuzasidan bu fan egalariga va bilim arboblarga ta'limlar bergan va bu yo'lga undaganlar, lekin ular ul hazratning nozik so'zini yo anglamay, yo anglasalar ham buyurilgan yo'sinda amal qilmay, yoki qila olmay qoldilar.

Bu kamtar (Navoiy) ul hazratning pok nafasi xotirasini saqlab, ijrosi lozim bo'lgan hukmlariga bo'ysunib va farmonbardorlik qilib, ko'nglimdan va tilimdan kelguncha, qalamim va qo'limda kuch bor deb sezguncha ul hazratga qulluq qilib va u qulluq bilan o'zimni saodatli va xursand sezib, hatto shogirdlik bilan o'zimni sharafli, aziz, faxrli va boshi ko'kka yetgan deb bildim. Yillar bo'yicha turk tili va nazmi qoida va uslubi to'g'risida bilmaganlarimni so'rab, qiyinchiliklarimni, mushkullarimni hal qiluvchi huzurida arz qilib, buyuk foydalar topib, zo'r natijalar ko'rdim. Ul hazratning ta'limi va tarbiyasi bilan, yo'l ko'rsatishi va quvvatlashi bilan ishim ul yerga yetdiki, o'z pok ta'blari natijasidan chiqqan o'z maorifparvar qalamlari tahriri va o'z yoqimli nutqlarining yozmalari bo'lgan risolalarida, yuqorida aytganimcha, mening laqablarimni qanday nomlar bilan yozganlarki, qaytarib aytishning hojati yo'q. "Bu bandaga ham xudoning ismi bo'lgan "Almutakallim" ("So'zlovchi") unvoniga ega bo'lish, xaloyiq orasida so'zchanlikda tengdosh va qurdoshlarimdan farq va e'tiborga, ulug' nom bilan ovoza va shuhratga ega bo'lish ul hazratning marhamat va g'amxo'rliklari orqasida yuz berdi. Yuqorida mazkur bo'lgan va to shu damgacha bu guruhdan hech kimga to'plash yuz

bermagan va ihtirom muyassar bo‘lmagan devon, masnaviy va boshqa kitob va risolalarni tuzish, ijod qilish mumkin va muyassar bo‘ldi”<sup>15</sup>.

Husayn Boyqaroning, xususan Alisher Navoiyning faolyati natijasida Hirot yaqinidagina butun dunyoga dong‘i ketgan Samarqandni orqaga qoldirib, ilgarilab ketadi. Zahriddin Bobir yozgan ediki, butun xalqlar dunyosida Hirotga o‘xshagan shaxar yo‘qdir. Sulton Husayn davrida Hirotning porloqligi va go‘zalligi 10 marta, hatto 20 marta ortib ketdi.<sup>16</sup> Yana: ”Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamona edi; ahli fazl va benozir eldin Xuroson, bataxis Hirot shahri mamlu edi; har kishikim, bir ishga mashg‘ullig‘i bor edi, himati va g‘arazi ul erdikim, ul ishni kamolga etkurg‘ay.”<sup>17</sup>

Bu vaqtlarda rivojlangan madaniyatning, adabiyotning, falsafaning juda muhim ifodalash mumkin bo‘lgan jihati uning asosan dunyoviyligi, hayotiyliigi, uning naqd hayot bilan, hayot lazzatlari bilan, chin hayot voqealari, masalalari, ehtiyojlari, talablari bilan qattiq aloqada bo‘lganligidir. Bu holat uning ustunligidir. Shu bilan, bu yerda shu vaqtga qadar Sharqda, Arabistonda, Eronda hukmron bo‘lgan mistik, g‘ayri hayotiy, tarki dunyochilik mafkurasi orqada qoldiriladi. Shoirlar naqd, chin hayotni, tabiatni, uning lazzatlarini kuylaydilar, paymol etilgan o‘zbek tilini muxofaza etadilar, uni o‘z huquqiga ega qiladilar. Mashshoqlar chin hayot kuylarini, mohir raqosalar chin hayot raqislarini ijro etadilar, rasomlar chin hayot manzaralarini mohirlik bilan chizadilar, aks ettiradilar... Tabiyki, bu aytilgan madaniy yangiliklar ichida falsafa ayrim asosiy o‘rinlardan birisini oladi. Bu davrda tarki dunyochilik falsafasi, dunyo qarashi o‘z hukmronligini, avvalgi mavqeini yuqotadi. Dunyoga aloqadorlik, uni sevishlik u vaqtdagi aksar aql egalarining, madaniyat vakillarining ijodlarida asos bo‘lib qoladi. Voqeylikdagi hayot, chin tabiati lazzatlaridan foydalanish zarurligi, jannat hurlaridan, jahannam azoblaridan istehzo qilish,

Gul davrida ich bodanikim, oqil emastur

Har kimki, bukun dunyoda hushyor topilsa.<sup>18</sup>

Ma‘noli kuylar bu davr falsafasining, dunyoqarashining asosiy intilishlari bo‘lib, qoladi. Buni Alisher Navoiy ma‘lum ma‘noda o‘z davriga ko‘ra oxirgi, avj nuqtasiga yetkazadi, uni mantiqiy nihoyatiga olib boradi, o‘zining falsafiy tizimini, dunyo qarashini yaratadi. Sharqda yangi falsafiy maktabni yaratadi, uni o‘ziga qadar bo‘lgan ilg‘or falsafiy fikr boyliklari bilan boyitadi.

---

<sup>15</sup>.Navoiy. “Muhokamat ul- lug‘atayn”. T.,1948. 205-209 betlar (matn P.Shamsiyev tomonidan soddalashtirilgan).

<sup>16</sup>. Qarang: Bobir. Bobirnoma. Qozon 1857.204-bet.

<sup>17</sup>. Bobir. Bobirnoma. 222-bet.

<sup>18</sup> Qarang:Lutfiy.T.,1965.35-bet

Lekin shuni ham aytib o'tish lozimki, bu madaniyat faolyat doirasi e'tibori ila asosan ommaviy xususiyatga ega emas edi. Keng xalq ommasi asosan savodsizlikda, diniy taassubda edi. Uning ko'p qismi madaniy boyliklardan foydalanish imkoniyatlardan mahrum edi.

Sulton Husayn Boyqaro umrining oxirlarida, har tarafdin ko'tarilgan dahshatli ijtimoiy hodisalar qarshisida o'zini ilojsiz his qiladi, vaqti o'tganligini tushunadi, kasal jamiyatning o'sal holga yetib kelganligini va buni qaytarish uchun hech narsa, hech chora yordam bera olmasligini ang'laydi. Uning yuragi behat g'azabga to'ladi va butun olamini maydon olishga tutunadi, bazim, kayf-safo qo'yniga otiladi. Alisher Navoiy o'zining Said Hasan Ardasheriga yozgan maktubiga quydagi so'zlar bilan o'z davrining u vaqtdagi xalq vaziyatining, mamlakat holatining g'oyat ayanchli fojiali manzarasini juda moxirlik, qat'iyatlik va g'azab bilan shunday chizib ko'rsatadi:

...Yani bir bu kim, zohir o'lmish mango,  
KI, chiqmish Xuroson elidan vafo.  
Vafo azim aylarda bo'lmish magar,  
Saxo u muruvvat anga ham safar.  
Vafo erida zohir o'lmish nifoq,  
Saxo o'rinda buxil tushmish nisoq.  
Muruvvatqa bo'lmish hasad joygir,  
Zihi hush elu mamlakat dil pazir.  
Ne mulku, ne el, emdi tahrir etay,  
Alar holatin vasif bir-bir etay.  
Dema mulkkim, vaqshatobot zish,  
Tamug' bilgurub g'oyib o'lg'och behisht.  
Tomoshosini kimki bunyot etib,  
Sifoxanu Ray mulkidin yot etib.  
Hisavi anovu taad mahbasi,  
Siyah choldin tirar o'roq basi.  
Imoratida ganjiddin yo'q asir,  
Hazona haroba bo'lib sar-basar.  
Masojiddar toat bila nur yo'q,  
Havoliqda non rasmi dastur yo'q.  
Ham avqarni sadir amlok etib,  
Vale ko'p rakni may uchun tok etib.  
Ham el manzilin shah, katakdek buzib,  
Tovug' o'rnig'a chug'a ultur g'uzub.  
Madorisda ilmu, salohu, yaqin,  
Aningdekki dayir ichra islomu din.

Ko'ngul jam'I ahli munojot aro,  
Aningdekki, shavqe harobot aro.  
Elide kishilikdin osor yo'q,  
Sharoratdin o'zga padedor yo'q.  
Ne el, ne kishi, balki shaytoni dev,  
Kelib barchaga da`b bedodi rev.  
Bo'lib lomakon sathidin xonlari,  
Adam mulki bug'doyidin nonlari.  
Qaro pul uchun aylabon qatil fan,  
Ulikdin tama aylab ammo kafan.  
Ne vayronda eski tanobi bilib,  
Yilon sog'inib, ganj davi qilib,  
Qizil oltun istab qaro toshtin.  
Falak go'yi bir dona hashhashitin,  
Tushulsa birov o'g'rudur deb ko'chin  
Tutubon ilik, lek kesmak uchun.  
O'lim kelsa bir zori bedil sari,  
Madad aylabon lek qotil sari...  
Menga bu el ichra ne bir xamdame,  
Ki birdan ikovlon diyishsak g'ame.  
Ne shohiki, topsa ishim ixtilol,  
Madihiga ko'guz g'amen ishtig'ol,  
Ne bir ahli davlatdin oncha umid  
Ki,ondin navo topsa bir no umid.  
Ne vajhi maoshi muqarrar manga,  
Ki, bo'lg'ay farog'I muyassar manga.  
Ne bir hujrakim, kam topqay ko'ngul,  
Dame anga orom topqay ko'ngul...  
Yetishsa o'lum ranji bemorlig',  
Suv berguncha qilmay birov torlig'.  
Suv bermak ne kim, zohir atlab g'uluv  
Olurg'a agar bo'lsa jonimda suv...  
Birovgaki yuz qo'ysa buncha balo,  
Ne bo'lg'ay aning chorasi juz jalo?<sup>19</sup>

Navoiy ijodinig, amaliy faoliyatining eng asosiy masalasi, yo'nalish nuqtasi har narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uning yaxshi yashashi, buning uchun zarur bo'lgan jamiyat masalasidir. Navoiyning butun ijodi birinchi

---

<sup>19</sup> Qarang: Navoi. Xazoyinul maoniy. I. 708-712.betlar.

navbatda shu masalani yoritish, hal etish xizmatiga qo'yilgandirki, bunday vazifani u o'zining sevgi, mahbub masalasi haqidagi qarashlariga ham katta umid bilan yuklagan va singdirgandir.

Navoiydagi sevgi, mahbub uchun tushunchasidagi eng oliy insoniy xislatlarcha, sifatlarga, mohiyat va xususiyatlarga, xulqlarga, shu xislatlarni o'zida mujasamlashtirgan odamlarga nisbatandir, shularni o'z ichiga olgandir. Bu birinchidan. Ikkinchidan, bu sevgi va mahbub mavhumining obekti shunday odamlarning yashab turgan joy-makon, yani go'zal va hayot baxsh tabiatdir. Demak, sevish-shularni sevishdir, sevgi, mahbub uchun kurash-shular uchun kurashdir, sevgiga, mahbubga yetishish-shularga yetishish demakdir, shular bilan bo'lish demakdir. Shulardan ajralish sevgilidan mahbubdan ajralish demakdir. Uchinchidan, ma'lum ma'noda va mahdud holda xudo ham sevgi va mahbub mavhumining obektiga kiradi. U (xudo) inson bilan tabiatga qo'shilib ketadi. Ayni zamonda inson va tabiatni ardoqlash vositasiga ham aylantiriladi.

Navoiy tasavvuridagi inson masalasi haqida so'zlaganda avvalo shuni aytish kerakki, uningko'p yerda ta'kidlashicha, inson tabiatdagi boshqa narsalardek anosiri-arbaadan iboratdir, yani uning vujudi o'tdan suvdan, havodan va tuproqdan tashkil topgandir. Shu bilan birlikda unda his, ruh, aql bordirki, insonning bu ruhiy hayoti o'sha to'rt unsur dan (ularning bir-biriga qarshi bo'lishliklariga qaramasdan, ma'lum darajada muvofiqlik tashkil etib, birlashib) tarkib topgan badanlar-jismlar tomonidan harakatga keltirib turadi. Demak inson vujudining tirikligi unga (vujudga jismga) xos bo'lgan ruhiy hayotning, undagi ruhiy faoliyatning bor bo'lishligi tirikligi demakdir.

Navoiy fikricha, jon, ruh, tan jism bilan, jism esa jon, ruh bilan tirikdir. Masalan, shu ruhiy faoliyatlardan biri bo'lgan, shunday ruhiyfaoliyatning natijalaridan biri hisoblangan so'z "To'rt sadaf (o't, havo, suv,tuproq) gavharining durji"dir. Inson birgina hayotni o'z boshdan o'tkazadiki, u ham bo'lsa, shu dunyodagi, voqelikdagi hayoti, tirikligidir.

Yana boshqa yerda mutafakkir aytadiki, insonni shunday qilgan jamiyatdir, tabiiy ijtimoiy sharoitlar muhitdir.

Demak, inson real, tabiiy asosdadir tabiiy omildir, negizan tabiiy unsurlar bilan, tabiat bilan bog'liqdir ular bilan muayyan ma'noda shartlangandirki bularning hammasi, ayni zamonda, bir vohid (xudoning) mevasi, zuhuridir.

Bu bilan Navoiy insonning ruhiy faoliyatini, ruhiy hislatlarini muayyan ma'noda ham tabiylashtiradi, ham ijtimoiylashtiradi, ularni ham tabiiy,ham ijtimoiy omillar holida talqin etadi. Insonning hislatlaridan, ruhiy faoliyatining zuhur etishlaridan birisi sevgi, sevib o'sha sevgiliga yetishlik uchun harakat qilishidir.

Navoiy insonni juda oliy bir mavjudod deydi. Uningcha inson dunyodagi butun borliqlardan, butun narsalardan yuqorida turadi, ular orasida butunlay ayrim o'rin tutadi. Navoiy insonni shunday kehlarga ko'taradiki, uni borliqning, umum mavjudodning eng bebaho durdonasi koinot toji, deb ataydi.

Navoiy fikricha, inson yuksakdagilarning yuksagi, baland martabalilarning baland martabalisi, go'zallarning go'zali qudratlilarning qudratlisi, qimmatlilarning qimmatlisidir.

Navoiy hatto olamning ma'nosini insonga, uning borligi'ga bog'lab qo'yib aytadiki, xudo

... Karam birla xalq aylagay olame,  
Bu olamda maqsud anga odame.  
G'araz odami anga olam tufayl,  
Ne kim g'ayri olamdir ul ham tufayl.<sup>20</sup>

Shunday qilib, Navoiy dunyoning maydonga kelishidan ham maqsad odam, deydi, insonni butun borliqning, butun mavjudodning eng ahamiyatlisi hisoblanadi. Butun voqelik insonning istaklari obektidir shu istaklarga xizmat qilishi kerak demoqchi bo'ladi. Navoiy hatto xudoni ham payg'ambarlarni ham shu xizmatga qo'yadi, maloikalarni ham insonga sajda qildiradi, odamga bo'ysundiradi. Mana Navoiy bu haqda yana xoliqqa qarata aytadi:

... Ki ochting basher gulbini ichra vard,  
Ochilg'on bu gulshanda inson guli,  
Ne inson guli, bog' rizvon guli.  
Tanig'a sharaftin duvoj aylading,  
Boshni ham sazovori toj aylading.  
Qilib ko'nglini roz ganjinasi,  
Yuzni aylading zot oynasi.  
Anga aylagach nuri xusnung zuhur,  
Uqubon malak xayli alloh nur,  
Chu bu nav mavjud qilding ani,  
Maloyikka masjid qilding ani,  
Qayu ko'zdekim tutsa aksing vujud,  
Maloyik nechuk qilmag'aylar sujud,  
Bosh indurmagan aylab izhori tag'n,  
Netong ta'n kuni anga tavqi la'n.  
Chu berdinganga rutba mundog' baland...<sup>21</sup>

---

<sup>20</sup> Qarang: Navoiy. Xamsa. 622-bet.

<sup>21</sup> Qarang: O'sha asar. 621-622-betlar.



Navoiy boshqa yerda yana shunday deydi:

...Gar falakiyotu anosir durur,  
Barcha samin qadr favohir durur.  
Koniyu hayvoni, agar xud nabot,  
Har biri-bir gavhari oliy sifat,  
Barchasin garchi latif aylaging,  
Barchadan insonni sharif aylaging.<sup>22</sup>

Navoiyning mashhur insoni, sevgilisi-shirin chuqur ma'noli farax bilan

Manga ne yoru ne oshiq havasdur,  
Agar men odam o'lsam ushbu basdur...<sup>23</sup>

Deydi va bu bilan o'zining insoniy qimmatini shu qadar yuksakliklarga ko'taradiki, insonlikning behat qimmatbaho ekanligini uqtiradi. Bu bilan chin insonning yerga urushlik bilan aloqasi bo'lmaganligini so'ratib o'tadi va insoniylikni himoya etishda hech narsadan qaytmaslikka tayyorligini bildiradi.

Inson o'ziga xos bo'lgan muayyan hislatlarga, xulqlarga, kayfiyatlarga egadir, shular bilan ham boshqa mavjudoddan ajraladi. Bular xush ovoz bilan kuy kuylashdan, yoqimli soz chalishdan tortib to do'stga vafodorlikkacha, ilm hunar o'rganib tog'ni talqon qilishdan, tabiatni o'z manfaatlarini hizmatiga quyishdan, qahramonlikdan tortib to halol, o'z kuchi bilan mehnat qilib shod-xurram yashashlikkacha, insofli, vijdonli bo'lishdan tortib to qanoatli, sabrli, matonatli bo'lishgacha, ozodlikni, hurlikni sevishdan tortib, to inson uchun zarali bo'lgan yomonlikni nafratga uchratishgacha borib yetadi.

Navoiy davrida yashagan insonparvarlardan yana biri **Husayn Voiz Koshofiydir** (1440-1505).

Kamoliddin Voiz Koshofiy 1440 yilda Xurosondagi Sabzavor shahri yaqinidagi bayhaq kentida tug'ilgan. Yoshligidanoq voizlik – so'z sanati bilan shug'ullangan. Koshofiy Sabzavorda tez orada ko'zga ko'ringan voiz – notiq bo'lib tanilgan. Keyinchalik Nishopurda, 1455-1468 yillarda esa Mashhadda yashab voizlik qilgan. 1468 yilning oxirlarida Abdurahmon Jomiyning tavsiyasi bilan Koshofiy Hirotga keladi va qolgan umrini shu yerda asosan temuriylar xizmatida o'tkazadi.

---

<sup>22</sup> Qarang: O'sha asar. 21-bet.

<sup>23</sup> Qarang: Navoiy. Xamsa. 263-bet.

Manbalardan ma'lumki, u fors tilida 200 dan ortiq asarlar yozgan bo'lib, ular falsafa, axloq, tilshunoslik, voizlik, she'r san'ati, din tarixi, fiqh, tibbiyot kabi sohalarni qamrab olgan.

Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", "Risolayi Hotamiya", "Anvori Suhayli", "Futuvvatnoma"iy Sultoniy", "Tafsiriy Husayniy", "Javohirnoma" kabi o'ndan ortiq asarlari arab, tatar, eski o'zbek, urdu, turk, nemis, ingliz, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Husayn Voiz Koshifiy insonni dunyodagi eng yuksak oliyjanob mavjudod deb biladi.

Odam nomi yaxshilik bilan eslash tufayli boqiydur,  
Hayotlik ayyoming hosili yaxshi nom ortirishdir,  
deydi.

Alisher Navoiy uning ijodiga baho berib, o'zining "Majolis un-nafois" asarining to'rtinchi majlisida yozadi: "Mavlono Husayn Voiz – "Koshifiy" taxallus qilur, Sabzavorlikdur. Yigirmaga yilga yaqin borkim, shahrdadir va Mavlono Zufunun va rangin purkor voqe' bo'lubdur. On fan yo'qturkim, dahli bo'lmag'ay. Xususan va'z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida muttayyin va mashhur ishlari bor..."<sup>24</sup>

Koshifiy salbiy ahloqiy xislatlarni qoralaydi va ularning inson hayotida va jamiyat uchun katta zarar olib kelishini qator hikoyat va rivoyatlar bilan ko'rsatadi.

Husayn Voiz Koshifiy yaxshilik va yomonlik, adolat, vijdon, burch tushunchalari haqida ham atroflicha fikr yuritadi. Axloq me'yori – insolarning xulq, fel-atvorlarini tartibga solib turuvchi axloqiy talablardir. Koshifiy ijobiy xislatlarni kishilarda bo'lishi shart bo'lgan insoniy fazilat deb tushinadi va sabr, hayo, iffat, pokizalik, sobit qadamlik, saxiylik, saxovat, rostgo'ylik, shijoat, kamtarlik, hushyorlik, baland himmatlik, diyonatlilik, ahdiga vafolik, andishalik, izzat-hurmatni bilish, sir yashira olish kabi fazilatlarni birma-bir ta'riflab o'tadi. U axloqni insonmand deganda ilm-ma'rifatga intiluvchi, haqiqat va adolatni sevuvchi, adolatsizlikka qarshi kurashuvchi mard, harakatchan, oily janob, saxiy, ochiq qalb, insonni tushingan.

Axloq masalalarini yoritishda Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy" (Husayn Bayqoroning o'g'li – Abdul Mirzoga bag'ishlangan) asari eng mashhur bo'lib, alohida muhim ahamiyat kasb etadi. U davlatni odilona boshqarishda siyosatdan foydalanish kerakligini alohida ta'kidlaydi:

Jahonda pok suv ichmakka bo'lmas hech kim qodir.

Agar shohlar siyosat tig'in eliga qilmasa zohir.

---

<sup>24</sup> Navoiy A. "Majolis un-nafois" . asarlar 12-jild. T.,1966,123-124-betlar.

Uning ta'kidlashicha, siyosat mamlakatni boshqarish uchun zarur, u shaxsiy ish emas, balki ijtimoiy ishdir. Siyosat adolatli bo'lsa, mamlakat, jamiyat rivoj topadi, xalqi farovon yashaydi. Siyosatni odil podishohlar adolat bilan boshqarishlari kerak:

Mamlakat topqay siyosatdin nizom,  
Gar siyosat bo'lmasa yetgay halal,  
Topmag'ay olam ishi aslo tuzum.  
Besiyosat hech vaqtu hech mahal.

Yoki:

“... Adl (adolat) siyosatsiz mavjud bo'lmas. Siyosat yo'q bo'lsa, sardorlik zaif. Na uchunkim mulku – millat ziynati, dinu davlati musallih siyosatdur”, - deb mamlakat taraqqiyotini ham siyosatga bog'laydi. Uning insonparvarlik, jamiyat, davlat, tinchlik, ixtiloflarni osoyishtalik bilan hal etish zarurligi haqidagi fikrlari hozir ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Voiz Koshifiy Alisher Navoiyning ma'naviy muhitining mahsuli bo'lib, XV asr Xuroson va Movarounnahr madaniyatining rivojiga katta hissa qo'shgan hamda o'z asarlari bilan so'ngi avlodlarga katta ta'sir ko'rsatgan mashhur insonparvarlardan biridir.

## **6-Mavzu: XVI-XVIII asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda insonparvarlik g'oyalari**

### **Dars rejasi**

1. XVI- XVIII asrlardagi ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Turdi Farog'iyning (XVIII) insonparvarlik g'oyalari.
3. Boborahim Mashrabning (1640-1711) insonparvarlik g'oyalari.
4. Mirzo Abdulqodir Bedilning (1644-1721) insonparvarlik g'oyalari.

XVI asrdan boshlab ijtimoiy-siyosiy hatotda yuz bergan tushkunlik madaniy hayotda ham o'zining chuqur izini qoldirdi. Bir tomondan o'zaro fiodal urushlari, ikkinchi tomondan qo'shni davlatlarga bo'lgan istilochilik va bosqinchilik harakatlari natijasida O'rta Osiyoning feodalizm taraqqiyotida ma'lum to'xtashni ko'ramiz.

Diniy aqidalarni kuchayishiga qaramay, baribir u ilm-fan, adabiyot va san'atdagi ilg'or ananalarni butunlay yo'q qilib yubora olmadi. Inson tafakkuri va dahosining taraqqiyotini bo'g'ishga hech qanday hodisalarning qudrati yetmas edi. Xalq o'z ichidan ham san'at sohalarida iste'dodli kishilarni

yetishtirib chiqarar edi. Bu davrda bir qancha san`at va memorchilik obidalari yaratildi, chunonchi, Samarqandda ajoyib memorchilik yodgorliklari bo`lgan Sherdor (1619), “Tillakor” (1646), Nodir Devonbegi (1630), Buxoroda Mirarab (1535-1536) madrasalari Masjidi Kalon (1540-1541) Toshkentds Baroqxon vaKo`kaldosh madrasalari bunyod etildi.

Darveshali Samarqandiy tomonidan muzika fani to`g`risida 12 maqomdan iborat “Risolayi musiqiy” risolasining yozilishi ham anashu davrga to`g`ri keladi bu davrda muzika kuy, cholg`u asbonlari muzika san`atiga doir asarlar yozgan olimlar shoirlar va ulug` kishilar haqida qimmatli ma`lumotlar beriladi.

XVIII asrda kitob va xattotlik tarixshunoslik va tazkiranavislikda ham bir muncha ishlar yuzaga keldi. Sayid Muhammadtohir bin Abdulqosimning “Ajoyib ut-taboqot” nomli geografiyaga oid asari, Abdulg`ziy Bahodirxonning “Shajaraiy turk”, “Shajaraiy tarokimma” nomli tarixiy asarlari, Mutribiyning “Tazkirati shuaro”, Malixo Samarqandiyning “Muzokir ul-azxob” tazkiralari shular jumlasidandir.

XVI-XVIII asrlar ijtimoiy hayotidagi mafkuraviy kurash badiiy adabiyotda ham o`z aksini topdi. Bu davrda yashagan adabiyot ahillari o`z dunyoqarashi, estetik uslublari hayot voqealariga munosabati ijodiy uslublari ko`ra ikki adabiy oqimni tashkil etar edilar. Bu davrlar ilg`or adabiy oqimning ijobiy tamoyillari Turdi Farog`iy va Mashrab, Nishotiy, Mujrum, Gulxaniy, va Maxmur, Munis va Ogahiy va shu kabi boshqa qalam ahillarining ijodiyotida o`zining yorqin ifodasini topdi. Feodal istibdodga qarshi xalq noroziligining o`sib borishi, mehtatkash ommaning osoyishta va baxtli farovon hayot haqidagi orzu – intilishlari, feodal, tarqoqligiga va diniy- xurofot ixtiloflariga qaramay, turli xalqlar o`rtasidagi do`stlik, totuvlik munosabatlarining o`sib mustahkamlanishi obadonchilik ilm-ma`rifat ravnaqi uchun kurash tamoyili, xullas, ijtimoiy madaniy hayotdagi barcha ijobiy yo`nalishlar bu shoir va yozuvchilar ijodining taraqqiyoti uchun g`oyaviy asos bo`ldi.

Bu davr adabiyhayotining muhim jihatlaridan biri ayollar ichidan Nodira, Uvaysiy, Mayazuna kabi istedodli shoiralarning yetishuvidir.<sup>25</sup>

XVI asrda Movarounnahr va Xurosondagi o`zaro nizolar, taxt uchun kurash katta davlatning asta sekin parchalanib ketishi umumiy ijtimoiy- siyosiy hamda madaniy rivojlanishiga katta tasir ko`rsatadi, ilm-fan, san`at adabiyot sohalardagi avvalgi qo`lga kiritilgan yutuqlar ma`naviy meros katta mavqeyga ega bo`lib berdi. Ko`pincha olim va shoirlar donishmandlar o`z davridagi urush-janjallardan panoh izlab Samarqandga so`ngra Buxoroga intildilar va bu ma`lum madaniy rivojlanish darajasini saqlab turishga imkon yaratdi.

---

<sup>25</sup> Qarang: Muzaffar Xayrullayev, Davron Shorahmedov. Madaniyat va meros. G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`an nashriyoti. Toshkent-1973. 108-109 betlar.

SHu bilan birga temuriyzoda Zaxriddin Boburning Xindistonga barpo etgan davlati ham madaniy jihatdan Temuriylar an`anasini davom ettirishga intildi. Ko`pgina olimlar san`atkorlar Boburiylar saroyidan panoh topdilar. Boburiylar davri madaniyati o`z navbatida Hindiston madaniyati rivojiga katta ijobiy ta`sir ko`rsatdi. Movorounnahr, Huroson hamda Hindistondagi madaniy hayot ma`lum vaqtga qadar o`zaro ta`sir va yaqin aloqalar davrini boshidan kechirdi.

XVII-XVIII asirlarda Turkistonda hukumronlik uchun o`zaro kurashlar, boshboshdoqlik, parokandalik avj oldi. Mustaqil xonlikka ajrab chiqqan Xiva bilan Buxoro o`rtasida hamda ularning o`zidagi ichki ziddiyatlar nihoyatda kuchayib, ular uzoq vaqt davomida notinchlikni boshlaridan kechirdilar. Bu hammasi madaniyatga salbiy ta`sir etmay qolmadi. Nisbiy tushkunlik oldingi yutuqlarni yuqotish, susayish bu davr madaniyatini tasvirlovchi hislatlar bo`lib qoldi va madaniyat arboblari shunday sharoitda jon saqlashga intildilar. Madaniyat soxasidagi ayrim yangiliklar, o`zgarishlar asosan Buxoro, Samarqand, Xiva shaxarlari bilan bogliq bo`ladi.

XVIII asr oxiriga kelib xonliklar o`rtasidagi chegaralar va munosabatlar ma`lum darajada mu`tadillashaganini kuzatamiz. XVIII oxiriga kelib Farg`ona vodiysida Qo`qon xonligi vujudga keldi vaqisqa davr ichida iqtisodiy-siyosiy jihatdan o`z mavqeini yaxshilab, Buxoro va Xiva xonliklari qatoridan mustaqil o`rin egaladi. Bu davrda Turkiston xalqlari madaniyati asosan shu uch xonlik xududida rivojlandi XIX asrning birinchi yarmida, ayniqsa, Qo`qon va Xiva xonliklarida ma`lum madaniy siljishlar ro`y berdi, madaniyatimiz tarixiga muhim hissa qo`shgan adib, sanatkor, olimlar yetishib chiqdilar.

Umuman XVI-XVIII asrlar madaniyatiga ilm – fan, xususan, tabiiy fanlarning o`rni susaygani, diniy bilimlar, diniy taassubning o`rini kuchaya borganini ko`ramiz. O`zaro urushlar tufayli tashqi olam bilan aloqalar ma`naviy-madaniy munosabatlarning kamayib ketishi ham madaniy hayotdagi ma`lum biqlikka, yangiliklardan uzilib qolishga olib keldi. Ilm-fan, madaniyat sohasida oldingi erishilgan yutuqlar ham o`z ta`sirini yuqotib, ularga murojat etish o`rniga diniy ma`lumotlar kuchayganini ko`ramiz. Natijada bu davrda ananaviy islom, uning qoidalari jamoiyat hayotida hal etuvchi o`rinni egallab, tasavvur, xususan, Naqshbandiya ham ma`naviy hayotdagi oldingi ta`sirini yuqotib bordi shi bilan birga bu davr turkiy – o`zbek tilidagi badiiy adabiyo namunalarining brogan sari ko`paya borganini, adabiyot, sheriya ma`naviy hayotning eng muhim asosiy sohasiga aylanib ananaviy lirik asarlar bilan birga shoir, adiblar dunyoviy hayot qiyinchiliklari, diniy taassubning kuchayishiga bo`lgan noroziliklari, so`fiyona gikrlarini sheriya orqali yetishiga intilganlarini ko`ramiz. Bu davr Maxtudumi A`zam, Mirzo Haydar, Abdul G`ozixon, Buxoriy

kabi gumanitar ilm vakillari Mashrab, Turdi Farogiy, nodira, Uvaysiy, Munis, Xorazmiy kabi mashhur shoirlarni yetishtirdiki ular asarlarda o`z zamonasining saboqlari istaklari, alamlarini aks etirdilar.<sup>26</sup>

2. XVII asrda yashab ijod qilgan Turdi Farog`iy o`zbek adabiyoti tarixida o`ziga xos mavqeyga ega bo`lgan shoir va mutafakkirlardan biridir. Shoir o`z sherlarini ko`p hollarda “Turdi”, ba`zan esa “Farog`iy” taxallusi bilan yozgan “Farog`” Jizzax hududidagi qishloqlardan birinig nomi bo`lishi mumkin.

Turdi Farog`iyning hayoti va ijodi haqida tarixiy manbalardan aniq ma`lumotlar saqlanib qolmagan bu to`g`rida asosan uning bizgachayetib kelgan sanoqli sherlari bo`yicha fikr yuritish imkoni bor xolos. Turdi Farog`iy ijoni o`rganishga A. Fitratning, O. Sharofiddinov, H. Yoqubov, kabi olimlarkatta hisa qo`shdilar. Shoirning A. Majidiy tomonidan topilgan va 1924 – 25yillarda nashir etirgan sherlar qo`lyozmasi 30- yillardagi qatag`onda yuqolib ketgan bo`lib uni qaytatqn toppish va ilmiy muomalaga kiritish 1959 yili A. Hayitmetovganasib etdi u bu haqidabirinchi marta “O`zbekiston madaniyati” gazetasining 1959 yilning 1 – iyul sonida, so`ng “O`zbek tili va adabiyoti masalalari” jurnalining 1961 yil 2- sonida axborot bergan edi. Shoir asarlari qo`lyozmasining qayta topilishi uning asarlari matnlarni to`g`ri o`qish va qayta nashr etishda katta ahamiyatga ega bo`ldi. Bu qo`lyozma hozir Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida – 1407 raqam bilan saqlanmoqda.

Turdi taxminan XVII asrning 40 – yillarida tug`ilib Buxorodagi Ashtarxoniy hukmdorlardan Nodir Muhammad va uning o`g`illari – Abdulazizxon hamda Subxonqulixonlar davrida faoliyat ko`rsatgan. U bir sherida o`z o`tmishini eslab:

Ahli davlatlar bilan yoru harif, hamdush edim,  
Hoyu huyim bazimlarda shahd nishonush edim,  
Xush zamonlaryuz qazomi boshida sarxush edim...<sup>27</sup>

Deb yozishidan anglaniladiki, u oldin o`tgan bir zamonlarda amaldorlar safida qaynoq va suronli hayot kechirgan, yuz urug`ining ko`zga ko`ringan siyosiy arboblardan bo`lgan. Shu bilan birga uning o`zi ham shu urig`iga mansub bo`lgani ehtimoldan uzoq emas.

Turdi o`zbek va fors tillarini yaxsh bilardi. U qarigan chog`larda bilgan “Dar mazommati siypohigari” degan sherida o`zining asosiy kasb-kori sipohiylik (“Harbiylik”) bo`lganini shu kasbi bilan uzoq yillar davomida nimalarnidir tama

---

<sup>26</sup> Qarang: Ma`naviyat yulduzlar (markaziy osiyolik mashhur siymolar allomalar, adiblar). Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. Toshkent-1999. 256-257 betlar.

<sup>27</sup> Qarang: Turdi. Sherlar Toshkent, 1971. 34- bet. Nashrga tayyorlovchi A. Hayitmetov. Bundan keying sheri misollar ham shu nashrdan olindi.

qilib, shoxlarga xizmat qilganini, lekin oxir-oqibat hech narsaga erisha olmaganini afsus-nadomad bilan ma'lum qiladi.

Lekin harbiylik bilan bir hasharda Turdi o'z zamonasining eng o'qimishli sharq adabiyotidan mukammal xabardor hayot haqida keng tushinchaga ega bir kishi bo'lib yetishgan edi. Uning jamiyatda mavqei esa o'z atrofida yuz berayotgan voqea va hodisalarga faol aralashishni taqazo etgan. Aftidan u odii askar emas edi, balki qo'shin boshliqlaridan biri, ba'zan biron siyosiy guruhning rahbar bo'lgan yoki biron shunday guruhga yon bosgan.

XVII asr Buxoro siyosiy hayotidagi eng muhim voqea Ashtarxoniylardan Nodir Muhammadning taxtga chiqishi, oradan ko'p o'tmay o'g'li Abdulazizxon hukumdorlikni undan tortib olishi, bu axvol bilan kelisha olmagan kichik o'g'li Subhoniqulixonning esa akasiga qarshi uzoq yillar davomida kurash olib borishi va nihoyat 1680 yilda o'z maqsadiga erishuvi bo'lgan edi. Subhoniqulixon davlat tepasiga kelgach, raqibi Abdulazizxonning Madina shaxriga ketishiga majbur etish bilan birga Turdi kabi unga yaqin turgan kishilarni ham quvg'in ostiga oladi. Subhoniqulixon davrida zulm va jaholat avj olib, ayrim urug' aymoqlining manfaatlariga katta ziyon yetgan, mulklari tortib olingan, poraxo'rlik kuchaygan, madaniyat ham orqaga ketgan "Tarixiy Muqumxoniy" asari muallifi Yusuf Muhammad Munshiy xabar berishicha u 2000 bayt<sup>28</sup> sher yozgan jiyani shoir Qosim Sultonni vaxti kelganda ayamaydi –o'ldirtiradi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay mamlakatda qattiq norozilik yuz berib, bu pirovardida yangi hukumdorga qarshi uyushgan xalq qo'zg'olonlariga aylanadi. Turdi shubhasiz, xalq tomonida turib bu harakatlarda ishtirok etadi. Lekin bu qo'zg'olonlar Subhoniqulixon tomonidan ayovsiz ravishda bostirladi. Turdining shundan keyingi hayoti xo'jand tomonlarida, muhtojlik va uzluksiz ma'naviy tushkunlikda kelgan. Uning xo'jana hokimi Oq-bo'tabiy dargohidan ketib, Jizzax hokimiga mute' bo'lib yashagan vaqtida yozgan turkiy muxammasi buning yorqin dalilidir. Uning bizgacha yetib kelgan she'rlarining katta qismi shu davrda yartilgan. Turdi taxminan 1699-1700 yillarda vafot etgan

Turdining adabiy merosi 18 she'rdan iborat bo'lib, ulardan 12 tasi SHarq she'riyatining g'azal, 5 tasi muxammas va bittasi farq turiga oiddir. 434 misra hajmidagi bu merosning 165 misrasi Subhoniqulixon to'risidagi majhur hajviyani tashkil etadi. Biroq shu merosi bilan ham Turdi o'zbek mumtoz adabiyoti sharxidan muhim o'rin egallagandir.

Diqqat bilan nazar tashlansa, Turdi ham o'z ijodini boshqa shoirlar kabi an'anaviy ishq mavzuidan boshlagani, bu soxada o'zigacha mavjud ijodiy tajribani puxta egallagani seziladi. SHoirning:

---

<sup>28</sup> H.Yoqubov. Turdi Farog'iy. Adabiy merosi, (qarang:"o'zbek adabiyoti tarixi" ). Uch tom toshkent 1978. 215-226-betlar.

Turkona xirm ayladi ul sho`xi diloro,  
Dil mulkini bir go`shai chashm ayladi yag`mo-  
matlai bilan boshlangan ishqiy g`azali lirikaning yaxshi namunalaridan deb baxolashga loyiq. Yana diqqatga sazovor tomoni shundaki, Turdining lirik g`azallari boshqa shoirnikidan o`zining nihoyatda ixchamligi, yani 3-4-5 baytdan iboratligi bilan ajralib turadi. Turdining tasavvufiy she`rlari ham g`oyat go`zal va falsafiy teran mazmuncha boy.

Turdi o`zining tasavvuf bilan bog`liq qarashlarini “Burun” radifi bilan yozilgan turkey muxammasida shunday bayon etgan:

Loboqodur qolbiy, qalbing bog`lama iqbolinga,  
Bo`lma g`arra fiyat dunyovu mulku molinga,  
Yot etib go`ru qiyomat, yig`la doim holing,  
Bir nazar may manidin, yonib o`z axvolinga,  
Ibrat ila boq, ko`ziung tufroqqa to`lmasdan burun.

Lekin Turdi g`azallarining aksaryati hali hech kim qalamga olmagan, o`tkir ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-axloqiy mavzularga bag`ishlangan. Ayniqsa shoirning quydagi g`azalida yurtni boshqarayotgan beklarga murojat qilib, ularni keng fe`lli, o`zaro ittifoq bo`lishga, bir-birini qabilachilik belgilariga qarab kamsitmaslikka chaqirishi, uni o`z davrining eng yuksak fikrli, vatanparvar va haqiqiy insonparvar kishi bo`lganidan dalolat beradi:

Tor ko`ngillik beklar, manman demang, kenlik qiling,  
To`qson ikki bo`li o`zbek yurtidur, tenlik qiling,  
Burni qipchoqu xitoyu burni yuz, naymon demang,  
Qirqu yuz ming son bo`lib, bir xon oyinlik qiling.  
Bir yoqodin bosh chiqarib, barcha bir to`ng`a kirib,  
Bir o`ngurlik, bir tirizlik, bir yaqo- yenlik qiling...

XVII asr sharoitida Buxoro xonligida turkey, xususan, o`zbek urug`lari o`rtasida o`zaro nizolar kuchaygan bo`lib, shoir ularning bir-biridan uzoqlashib, mamlakatning esa mayda bo`laklarga bo`linib ketishini ularning o`zlari uchun ham g`oyat xatarli deb bilar, buning oldini olishga intilar edi. Shu bilan birga u xonlikning boshqarishda ishlayotgan, “O`zbekman” deb talonchilik bilan shug`ullanayotgan vakillarini dinsizlikda ayblashi, muttaham, bebosh sifatida fosh etishi achchiq hayotiy haqiqatga asoslangan edi.

Turdining shoh asari, albatta Subxonqulixon to`g`risidagi hajviy muxammasidir. Shoir fikricha Subxonqulixon davlat tepasiga kelishi bilan butun mamlakatda ahvol yomon tomonga o`zgargan osoyishtalik o`rnini tartibsizlik, adlu karam o`rnini o`zaro nifoq egallagan.

Turdining yozishicha Subxonqulixonningaybi shundaki u taxtga o`ltirishi bilanoq tajribali, ishbilarmon mulozimlarni quvib, ularning o`rniga o`z atrofida



davlatni boshqarish ishidan butulay xabarsiz, fikr mulohazalari soyoz, axloqan tuban kishilarniyig`a boshlagan. Subxonqulixon va uning beklariga xos nuqsonlarni fosh etishda Turdining hajviy qalami satrdan-satrga, banddan-bandga tobora o`tkirlasha boradi. Shoir bu shoh haqida:

Bidatu zulm ani xilqatu asli zoti.

Fuqaro bo`ldi bu shoh asrida ko`zi zoru nahif,

Zulmdan bo`ldi raiyat elikim xoru zaif –

Deb yozsa, uning beklariga:

Ey yuzi qora kozi ko`r, qulog`I karbeklar.....

Edingiz barchangiz itdek fuqaroni etini;

G`asp ila molin olib qo`ymadingizlar bittini....

Deb xitob qiladi.

Bu hajviy asari bilan Turdi o`zbek hajviyotini Alisher Navoiydan keyin yangi bir yuksaklikka ko`tardi.

Turdi Shayx Sadiy G`zoliyga bog`lagan muxammasida esa o`z ulug` salafi asarida insonparvarlik g`oyalarini yanada chuqurlashtirdi. Sa`diy bu g`zalida shunday yozgan edi.

Nest on lolaki dar bodiyaho jilva garan,

Kushta gonanki, az xok bar ovarda saran.

Mazmuni: Sahrolarda jilva qilayotgan narsalar lola emas,

Balki, so`yilgan odamlardirki tufrog`dan bosh chiqarib turibdilar.

Turdi bu bayt oldiga quyidagi uch satrni qo`shib yangi band yaratgan va Sa`diy g`azallarini to`ldirgan:

Bargi har tozagule shohidi madiy nazarand,

Varaqı safham manzurzi ahli basarant.

Xush qalb, dog` va dil tashna ba xuni jagarand.

Nest on lolaki dar bodiyaho jilva garand,

Kushta gonanki, az xok bar ovarda saran.

Mazmuni: Gulning har bir yaprog`I kishi diqqatini o`ziga tortadi,

Uning har bir gul bargi esa kishilarga manzurbo`ladigan bir varoqdir.

U gullar labi qurigan, dili dog`, jigarining qoniga tashnadirlar.

Sahrolarda jilva qilayotgan narsalar lola emas,

Balki, so`yilgan odamlardirki tufrog`dan bosh chiqarib turibdilar.

Turdi o`z shariatida sharqdagi badiiy san`atlardan mahorat bilan foydalangan holda, birinchi o`ringa hayotiy mazmuni qo`yadi ko`p o`rinlarda uning shariy uslubiga falsafiy tafakkur xosdir.<sup>29</sup>

3. Boborahim Mulla Vali (Vali Bobo) o`g`li Mashrab (1640-1711) o`z ijodi bilan o`zbek adabiyotida xalqchilik, ijtimoiylik, va dunyoviylik chuqurlashuvida jaholat va bidatga qarshi kurash g`oyalarini kuchayishida shariat shakllarinig takomillashuvi hamda badiyatning kamolga erishivida katta o`rin titgan so`z ustalaridan biridir.

Mashrab faqat otash zabon ijodkor sifatidagina emas, balki ayni zamonda adolatsizlik va zo`ravonlik, qabohat va jaholat bilan also kelosh olmaydigan dovyurak shaxs sifatida ham dong taratgan. Xalq tasavvurida u johil amaldorlar ustidan kuluvchi axloqan tuban kishilarni munofiq din arboblarni ayovsiz fosh qilib mehnatkashlar manfaatini himoya etuvchi botir so`z tadbirkor kurashchi tarzida shakllangan: oddiy xalq Mashrab timsolida o`z ishonchli vakilini, o`z orzu – intilishlarini barilla ayta oluvchi otashin siymoni ko`rgan.<sup>30</sup>

Mashrabning nomi XVIII – XIX asrlarda tuzilgan ayrim tazkira va tasavvuriy yo`nalishdagi asarlarda Muhammad Bade` Malixonning “Muzakkir ul-azxob”, “Tazkirayi Fahmi”, “Musavvayi Abdushukkur Ziyo”, “Tazkirayi Avliyoyi Majzub Namanganiy”) zikr etiladi. Ammo ularda shoir hayoti va ijodiy faoliyati haqida keltirilgan ma`lumotlar nihoyatda kam, uzuq-yuluq va bir-biriga zid. Mashrabning qoldirgan adabiy merosi xususida ham aniq ma`lumot beruvchi manba yo`q uning o`z asarlarini ko`plab devon yoki majmua tuzganligi ma`lum emas. Faqat “Devoni Mashrab”, “Devonaiy Mashrab”, “Eshoni Mashrab”, “Hazrati shoh Mashrab” nomlari ostida xalq orasida qo`lyozma va toshbosma shaklida juda keng tarqalgan qissalarigina (ularning kim tomonida va qachon tuzilganligi belgilangan emas) shoirning hayot va ijodiy faoliyati ma`lum tartib izchillikda bayon etiladi, asarlaridan namunalar keltiriladi.

Mashrab haqidagi qissalar shoir hayot yo`lini nisbatan to`la va bosqichma-bosqich o`zida jamlovchi adabiy – tarixiy manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Boborahim Mashrab 1640 yilda (hijriy hisob bilan 1050) Namanganda kambag`l kosib – bo`zchi Vali Bobo oilasida dunyoga keldi. Qissa ma`lumotlariga ko`ra, Mashrab otadan yosh etim qoladi, oilaning moddiy qiyinchiliklari yanada ortadi. Onasi ip yigirib tirikchilik o`tkazadi. Qissada bo`lajak shoirning go`dakligidanoq nihoyatda halol, ziyrak, to`g`ri so`z bo`lganligi, hozir javob va mushohadaligi bilan tenqurlaridan ajralib turishi alohida tkidlanadi. Har holda o`z davri bilimdonlaridan, xususan din asoslari va

<sup>29</sup> Qarang: Ma`naviyat yulduzlari 280-283 betlar.

<sup>30</sup> Qarang: A.Abduq`ofurov. Boborahim Mashrab (1640-1711). Ma`naviyat yulduzlari. 284-bet.

falsafadan durustgina boxabar bo`lgani uchun Namaganning so`fiy eshoni Mulla Bozor Oxun nomi bilan shuhrat qozongan Xoja Ubaydulloh qo`lida tahsil olgan takmiliga topshirilgan. Taxminan 1665 yillarda Mulla Bozor Oxun tavsiyasiga ko`ra o`ta zamonda katta obro`ga ega bo`lgan yirik din arbobi qashqarlik Hidoyatullo Ofoq Xoja huzuriga boradi. Boborahim Mashrab ko`p bilimlar soxibi fozil Ofoq Xojaga sidqidildan murid tushadi, uni o`ziga murshidi komil deb qabul qiladi va yeti yil uning dargohida xizmatini o`taydi, yumushlarini bajarib, saboq oladi muridlari qatorida kun kechiradi. Qissalarda takikidlanishicha shariyatni yuksak qadirlagan Ofoq Xoja boborahimning ijodiy iqtidorini yuqori baholaydi, hatto “Mashrab” taxallusini ham u tavsiya etadi. Mashrab g`azallarining birida uchrovchi manabu baytda ham xuddi shu mazmun ifodalangan:

Quddisa sirrihu hojam otamni “Mashrab!” dedilar,  
Qosg`aru Yorkand ichida sohibi guftor o`zim!

Shoir adabiy merosidagi diniy mazmun va tasavvuf yo`nalish ruhidagi sherlarning ko`pchilik qismi Ofoq Xoja dargohida uning targ`bot saboqlari ta`sirida yaratilgan. Ofoq Xojaning shaxsiy xislat-fazilatlarini madh etuvchi, uni “Piru rahbar” deb tan oluvchi bayt-misralarni tarkibida jam` etilgan g`zal va muxammaslar ham (“Koshkiy”, “O`zim” radifli g`azallar, “Qolmadi” radifli muxammas) shu murudlik yillari mahsulidir.

Mashrab taxminan 1672-73 yillarda Ofoq Xoja dargohini tark etishga majbur bo`ldi. Bunga Mashrabning piri dargohidagi kanizlarning biriga ko`ngil qo`ygani, sevib-sevilgani rasmiy sabab bo`lgan. Ammo Mashrabning oxir jismoniy jazolanib quvilishi zaminida pir bilan murud o`rtasidagi jiddiy g`oyaviy ziddiyatlar bo`lgan deyilsa haqiqatga muvofiq bo`ladi.

Mashrab Qoshg`ardan 1673 yilda Namanganga – onasi yoniga qaytadi. Kasalmand onasining vafotidan keyin hech kimi qolmagan shoirning qo`nimsiz hayoti boshlanadi. Uning keying deyarli qirq yillik umri doimiy safarda, darbadarlikda, turli o`lkalarda musofirlikda o`tdi.

Mashrabning biror shahar-qishloqqa kelishi izzsiz o`tmas edi, ma`lum shovshuvlarga sabab bo`lard: oddiy xalq samimiyat va xursandchilik bilan hokim, amaldorlar, riyokor ruhoniylar esa hadiksirab, dushman ko`zi bilan sovuq qarshi olardi Mashrab qo`nimsiz hayotining so`ngi nuqtasi Balxda ham xuddi shunday bo`ldi: hokim tabaqa, riyokor ruhonoilar, mutaassib mullolar unga o`zlarining ashaddiy dushmani deb qaradilar va jisman yuqotish niyatida bo`ldilar. Natijada, “Tazkiraiy fahmiy”ga qayd etilganidek, “Dar soli 1123 hijriy dar qunduzbafatvoiy ulamo va hukmi Mahmudbiy Qatag`on shahid karda shuda”,

ya'ni "1123 hijriy (1711 milodiy) yilida Qunduzda (Balx viloyatida) ulamolarning fatvosi va Mahmudbiy Qatag'on (Balx, Qunduz hokimi)ning hukmi bilan shahid bo'ldi" Otashin shoir, dovyurak shaxs, jasur qalb soxibi Boborahim Mashrab osib yo'lida, o'ta zamonadagi hukmron tabaqalar va johil ulamolar rasmiy siyosatiga nomuvofiq dunyoqarashi yo'lida qurbon bo'ldi. Boborahim Mashrab mumtoz adabiyot buyuk namoyondalarining ilg'or ananlarini o'rgani yirik shoir bo'lib shakllandi, kamolga yetdi. U qoldirgan merosda, birinchi navbatda, ishqiy mavzudagi g'azal – muxammaslardan anashu ananalarning barakali ta'sirini aniq kuzatish mumkin. Masalan: Mashrab Lutfiyning mashhur:

Sen-san sevarim, xoh inon, xoh inonma,  
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma –

Matlaiyni o'zgartirmay qabul qilib uni shu o'ynoqi vazn, shu qofiya radf, shu ruhda davom etiradi, buyuk ustoziga hurnat hamda san'atni tan olishi belgisi sifatida o'xshatma g'azal yaratadi Mashrabning ijodiy kamolotida, ayniqsa Navoiy merosinig ijobiy ta'sirida katta bbo'ldi. Shoirning eng yaxshi asarlarida Navoiy ijodiga xos falsafiylik va dunyosevarlikni ko'ramiz mazmunning hayotiyligi, va xaqqilligini vazn ravonligini va o'ynoqiligini qayd etamiz, mavzu tanlash va uni badiiy talqinida yaqinlik va o'xshashlikni uchratamiz. Mashrab muxammaslaridan birida mashuqaning uchrashuv haqida oshiqqa va`da bergani oshiqning tunlarni bedor o'tkazib, intizorlik bilan vasl daqiqalarini kutishi to'g'risida so'z boradi, ammo, ma'shuqa vadani buzadi, vafosizlik ko'rsatib uchrashuvga kelmaydi. Muxammas oshiqning anashu holatdagi hayajonini va his tuyg'ularini, hijronda yorni kutishdagi nozik kechinmalarini yuksak badiiylik bilan nihoyatda ifodalaydi:

Vada qildi bir kelay deb, ko'zga uyqu kelmadi,  
Termurub yo'lida qoldim, sho'xu badxo' kelmadi,  
Necha keldi shum raqiblar,ul parirol' kelmadi,  
Dardidin o'ldim, tabib, dardimg'a doru kelmadi  
Men shahidi ishq bo'ldim, qatraiy suv kelmadi

O'n ikki band davomida mavzuni shu yuksak saviyada badiiy tahliletuvchi bu muxammas Mashrab ijodiga Navoiyning barakali ta'sirini ko'rsatuvchi yaqqol misol bo'la oladi. Bunda ulug' shoirning: "Kecha kelgumdur devon ul sarvi gulro' kelmadi" misrasi bilan boshlanuvchi mashhur g'zalidan Mashrab ilhomlanganligi ko'zga ravshan tashlanadi.

Mashrab ijodidagi ijtimoi mazmundorlik va kuchli tanqidiy yo'nalish shoirning ilg'or dunyo qarashi,xalchil falsafasi zamonasidagi salbiy voqea-

xodisalarga aniq tanqidiy munosabatidan shakillangan. Qat'iy aytish mumkinki, chuqur ijtimoiylik va kuchli tanqidiy munosabat Mashrabning umumijodi faolyatida ustovlik qilgan hamda yaratgan ko'pdan-ko'p asarlarining asil fazilati darajasiga ko'tarilgan.

Doimo xalq ichida yurib uning yashash sharoiti va orzo-intilishlaridan yaqindan xabardor bo'lgan Mashrab mashaqqatli hayotni haqqoniy badiiy lavhalarida mahorat bilan tasvirladi, nihoyatda sodda ravon, ammo mazmunan zalvorli misralarida samimiy hamdarlik va yurakdan achinish tuyg'ularini ta'sirchan ifodaladi. Sherlaridan birida "azaldin men dili g'amgin xaloyiq xaylini sevdim!" deb yozgan shoir boshqa bir o'rinda "o'zimdek xona vayronlarni ko'rsam zor yig'larman!" deya ezilgan ommaga to'laxayroxoh ekanligini alohida takidlaydi.

Mashrab sheriyatida "ko'zi yoshli", "baxti qaro", "dard axli" ga, "g'am xayli" ga hamdarlik, ular bilan hamdamlik g'oyalari qayta-qayta takrorlanishi bejiz emas.

Mashrabning "tanho" radifli muxammasida bevosita xalq va uning turmish sharoitini haqqoniy ko'rsatuvchi lavhalar chizilgan. Har bir o'quvchi yuragini o'tovchi mana bu misralar shoir ijodining insonparvalik mohiyatiga ishonchli dalildir:

Dil tig'i istamdin pora bo'lgan xalqni ko'dim,  
Tanu dardu alamdin yora bo'lgan xalqni ko'rdim,  
Ko'zi vaqti saxar sayyora bo'lgan xalqni ko'rdim...

Mashrab qoldirgan ijodiy merosda diniy va tasavvufiy g'oyalar ham o'sha zamonda keng tarqalgan qalandarlik tariqatining ayrim oxanlari ham sezirlarli o'rin egalaydi. SHoir islomning asosiy nazariy qoidarini shubhasis qabul qilgan. Ammo, ayni zamonda, islom ta'limotining bir qator zoxiriy belgilarini, birlamchi deb hisoblangan qonun-qoidalarini, shariatning ayrim ko'satma-talablarini farz-sunnatlarini tan olmaslik va past nazar bilan qarash ham ko'zga tashlanadi, ayrim diniy ruki-tushuncha va muqaddas deb bilbingan marosim va odatlariga talqin aqidalariga shubha bilan qarash, hatto, ochiqdan-ochiq mensimaslik va masxaraomus munosabat ancha-muncha uchraydi.

Turli-tuman shakil va talqinlarda jilovlanuvchi bu dunyoqarashning butun mohiyat mahzi shoirning quydagi qat'iy e'tirofida nihoyatda yaqol va lo'nda ifodalangan:

Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,  
Gul agar bo'lmasa ilkimda tikkonni na qilay?!

Mashrab she`riyatida uchrovchi shakkoklik zaminida, juladan, namoz, ro`za, jannat, Makka, Ka`ba (baytil- xaram), hur g`ilmon, do`zax tushunchalariga hurmatsiz munosabat, ba`zan esa ochiqdan-ochiq mensimaslik “bir pulga sotish” ga tayorlik ostida, shuningdek, riyokor, munofiq din arboblarning, zohidu mullarining ayovsiz fosh etish asosida anashu e`tiqodga buyuk ishonch, qat`iy sadoqat mavjud. Umuman tasavvuf ta`limotida bo`lganidek, Mashrab ijodida ham, faqat Alloxnigina tan olish, yakka ungagina chin muhabat qo`yish va uning vasliga talpinish jarayonida barcha “g`alat” larni rat etish so`fi adabiyotida asirlar davomida qaror topgan ramz-timsollar tushuncha iboralar (“ishq”, “muhabbat”, “yor”, “jonona”, “gul”, “may”, “boda”, “visol” va boshqalar) vositasida amalga oshirilgan. Shoir she`rlarida bu mazmun qat`iy keskin ruhda ba`zan, hatto qo`pol dag`al oxangda ammo doimo ravshan ifodasini topgan:

...Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?!

...Urayinmu boshima sakkiz bexishtu do`zaxin?!

...Ko`masam birdam seni bayt-ulharamni naylayin?!

...Ikki dunyodin ko`zim yumdun sening zavqing bilan!

...Meni devona Mashrabg`a muhabbatdin bayon aylang,

...Namozu ro`zadan forug` bo`lib sayyora mashrabman!

...Xonaqoyu Ka`badin, Mashrab, muroda etmadim!

Yuqorida aytilganlar to`la nazarda tutilsagina Mashrab ijodiy merosida ko`plab uchrovchi bu kabi xitob-ta`kidlarning asl mazmuni, tasavvufiy mohiyati yuzaga chiqadi faqat shundagina shoir falsafasi, kuzatayotgan bosh maqsadi to`g`ri baholanadi.

Shoir ma`shuqa siymoini chizar ekan, shunday badiiy mahorat namoyish etadiki, natijada lirik “men” ko`nglini zabt etgan yor o`quvchi ko`zi oldida o`zining butun ayyollik latofati, nazokati, ichki hissiyoti xulq atvori sharmu hayosi, nozu jilvasi, kiyinishi, yurush-turishi, bilan jonli gavdalanadi; o`quvchi ham uni oshiq qatorida sevib qoladi, o`zida ham qandaydir latif xissoyot jo`sh urayotganini, ko`nglida nozik kechinmalari tug`yonga kelayotganini sezadi shuning uchun o`quvchi oshiqni alam-iztirobiga, hijronga cheksiz qiynalayotganiga ishonadi, oshiq bilan hamkorlikda xayolga cho`madi, ezgu orzularga beriladi, uning qayg`usiga sherik bo`ladi.

Chindan ham Mashrabning ishqiy lirikasi, uning barcha sherlari kabi, hayotiy mavzuiy jo`shqinligi nihoyatda ravon o`ynoqiligi, xalq qo`shiqdari kabi soda va samimiyliги bilan tinglovchilar qalbiga tezda yo`l topa biladi, ularga

badiiy zavq bag`sh etadi. Shoir agar tabir joiz bo`lsa asarlarining shu fazilatlarini bilan sheriyatda Mashrabona uslub yaratdi.<sup>31</sup>

Mashrab o`z ijodida insonning sevgi – muhabbatni kuyladi, shu zamin go`zalini madh etdi, uning barkamol chiroyi va latofatini ulug`ladilar, sadoqat va vafodorlikni chin ijobiy fazilatlar sifatida targ`ib etdi.

Shoir butun ijodiy faoliyatiga xos bo`lgan xalqona uslub va badiiy – tasviriy vositalar rang-barangiga uning murabba` va muxammaslarida ham ko`zga ravshan tashlanadi. Ayniqsa, har bir banda

Ey bod, etkur, yorab salomim!

Yorga yetar kun bormi, yoronlar?!-

Misralari bilan yaqinlanuvchi romantik ruhda bitilgan murabbalari` o`z g`oyaviy – badiiy kamoloti jihatidan alohida ajralib turadi.

Mashrabning lirik shoir sifatida yuksak badiiy mahorati uning sakkiz band – ellik olti misradan tashkil topgan musabbasida ham butun fazilatlarini bilan yuzaga chiqqan.

Vah-vah, na go`zalsan, na ajoyib, na qiyomat!

Hay-hay, na jafõ qilgan bo`lsa sanam – jonima rohat!

Bayt – radifi har bandida takrorlanuvchi bu musabbani umuman o`tmish sheriyatimizda yaratilgan bu tur asarlarining eng yetuk namunalari qatoriga kiritish mumkin.

Yoki tabiiy bilan tabiiy g`urur bilan faxriya usulida yozilgan:

Shuhrati sher bobida Mashrabo, mo`tabar o`zim!

Mashrabo, har bir so`zingdir gavhari qimmatbaho! –

Misralarini bitgan shoirning badiiy barkamol asarlari xalqimiz ma`naviy mulkining muqaddas va mo`tabar bir qismiga aylangan.

4. Insonning ilohiy va dunyoviy ilmlardan xabardor etish, uning aqilli zihnini oshirish orqali yuksaltirish sharq mutafakkirlarning doimiy diqqat markazida bo`lgan jumladan, ulug` shoir va faylasuf Mirzo Abdulqodir Bedil ijodida ham bu bosh masala edi. Bedil insonni faqat ta`rif – tavsif etish bilan cheklanmaydi, balki uni tahlil etadi, insonning ulug`vorligi qayerda nuqsonlari nimada, isterob – alamlariga shodlik va surururining sabablari nimaga bog`liq, qoblyati istedodi nimaga qodr, saodati baxtining manbayi, boyisi nima, degan sabablarni qo`yib shularga javob qidiradi va g`oyat muhim zamonlar osha eskirmaydigan g`oyalarni ifodalaydi.

---

<sup>31</sup> Qarang: A.Abdug`ofurov. B.Mashrab.Ma`naviyat yulduzlari, 290 bet.

Shu sabab bo`lsa kerak, Bedil ijodi asrlar davomida Hindiston, Movarounnahr, Afg`onistonga keng shuhrat qozondi, ilmu adab shuurini band etib keldi. Buxoro, Qo`qon, Xo`jand, Samarqand, shaharlarida XX asr boshlariga qadar Bedilxonlik anansi mavjud bo`lib, “Abdulmaoniy” – “ma`nolar otasi” deb laqab olgan Bedil asarlari mutolaa qilinib falsafiy – irfoniy qarashlari el orasigayoyilgan.

Zero, Bedil asarlari dunyoni teranroq anglash, inson ruhiyatiga kirib borib hayot ziddiyatlarimohiyatini tushinishga ko`maklashar; aqidaparastlikka asoslangan sxolastikdunyoqarashni yorib o`tib, odamlar fikrini ravshan etar moddiyat va ilohiyotorasidagi uzviy vobastalik, vaxdad ul - , ya`ni ulug` yagonalik ichra sodir bo`ladigan o`zgarishlar, evrilish, yangilanishlar, behisob shaklu suvratlar ko`rinishida namoyon bo`lguvchi olam jarayonlarining ichki – boshiniy qonuniyatlarini bilib olishga undardi. Mirzo Bedil ijodi sharq ilmu hikmatlari, ma`nolar dunyosining yangi sintezi, uyg`unlashuvi va ayni vaqtda yuqori bosqichga olib chiqilgan, rivojlantirilgan ko`rinishidir, qudratli faylasuf shoir sifatida yuraklarni band etdishi aytish joizki, uning asarlari ham hozir ham o`zining jozibali mo`jizakor qudratini saqlab kelmoqda. Shoir tarannum etgan g`oyalar hamon o`ta dolzarb va etiborlidir.<sup>32</sup>

Bedil ijodi sho`ro zamonida O`zbekiston va Tojikistonda qisman bo`lsa-da, bu borada ustoz Sadridin Ayniy, Abduratuf Fitrat, Ibrohim Mominov, Bahoviddinov, Bobojon G`ofurov, Xolida Ayniy ishlrini ko`rsatish mumkin. Albatta, mazkur tadqiqochilar shoirga bag`ishlangan zamona mafkurasi tasirida fikr yuritadilar. Shu bois Bedilni zo`r berib islom va irfonga zid qo`yish, undan moddiyuncha g`oyalar qidrishga intilganlar lekin shunga qaramay, qilingan ishlarning qimmatini kamsitmaymiz. Ayniqsa Bedil davri uning tarjimai holi va adabiy – ilmiy merosini aniqlashda mazkur olimlarning qismati katta.

Mustaqillik tufayli endigi avlod Bedil ijodi falsafiy olamini qanday bo`lsa, shunday holda, butun murakkabligi va o`ziga xos ulug`vorligi, teranligi bilan o`rganish imkoniyatiga ega Bedilning lirik asarlari dostonlari (“Muxti Azam”, “Tilsemi hayrat”, “Turi ma`rifat”, “Irfon”) jamlanganda yuz ming baytdan oshiq ketadi. Bundan tashqari, “Chor unsur” nomli katta nasriy asari va maktublari ham bor. Ammo faylasuf shoirning ichida “Irfon” asari hajmi eng katta va mazmunan xulosaviy xususiyatga ega. Bu asarni Bedil ijodining qaymog`I deyish mumkin.

Bedil tasviri bo`yicha, inson Alloh ilmini egallashga to`la haqliy boshqacha aytganda Alloh insonni yaratar ekan faqat unga o`z ilmini berdi unga ashyolar ismini o`rgatdi, kitob berdi, harf o`rgatdi. Shunday ekan ilmlarni egallash,

---

<sup>32</sup> Qarang: Najmiddin Komilov. Bedil va o`zbek ma`naviyati. “Al-xudo xalqaro” nashriyoti, “Movarounnahr” nashriyoti. Tehron-Toshkent. 2005. 3-4-betlar.



marifatli bo'lish insonning o'z Rabbi oldidagi burchi masuliyatidir. Moddiy ashyolar xususiyatlari, falaklar harakat, botiniy va zohiriy amallar barcha mavjudodning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi bilimlarni egallsagina, inson komil bo'la oladi. Ammo, ilm inson ongiga kelib qo'yilmaydi bunga ishtiyoq, zavq bo'lishi istedod bo'lishi kerak. Buning ustiga hammani ilm egallashga istedodi – tayyorligi bir xil darajada emas. Dunyoda yashaydigan odamlarning hammasi ham muayyan hayotiy maqsadlarga intiladi, biroq har kim istedodiga qarab murodiga erishadi.

Har kas in jost komiyobi murod,  
Az murabbiy ba qadri iste`dod.<sup>33</sup>

(kimki bunda maqsadiga erishmoqchi bo'lsa, Murabbiy – Parvardigordan o'z tayyorligi – istedodi darajasiga qarab bahramand bo'ladi).

Bedil Hindistonga qarashli Bengaliya muzofatining Azimobod shahrida (Pashna) harbiy xizmatchi xonadonida 1644 yilda tavallud topadi. Bu istedod sohibi salkam 80 yilcha (78) cho'zilgan umrining 68 yilini badiiyi ijodga safar etdi. Bedil umrining 63 yili Shohi Jahon (1627-1658 yillarda hukumronlik qilgan), Avrangzeb Olamgir (1658-1706) yillarda saltanat surgan, qolgan o'n to'rt yili to'qqiz podishoh davriga to'g'ri keladi. Mumtoz tazkira navislar, tarixchilar va Bedilning nazmu nasrda bunyod qilingan asarlaridagi ishoralarga qaraganda ayni palla Hindiston hayotining eng og'ir, eng ayanchli yillari sifatida o'zida yomon taassurot qoldirgan. Soliqlar ko'payib, xalqning moddiy turmushi og'ir kechgan.

Bedilning shaxs sifatida shakllanishida amakisi Mirzo Qalandar, tog'asi Mirzo Zarif tariqat bobida rahnamolik qilgan Shayx Kamollarning hissasi beqiyos kattadir. Oila muhitining ijobiy tasiri tufayli Bedil tez ma'naviy balog'atga yetadi. O'n yoshidanoq dilbarsherlar yoza boshlaydi. Uning sherlari ruboiy janrida edi.

Faylasuf shoirning g'azallarida qalamga olingan ishq insonning ma'naviy balog'ati yo'lida beminnat hizmat qiladi unda Odamato zuriyotlari poklikka, sadoqat va o'zaro mehru oqibatli bo'lishiga da'vat etiladi. Inson o'z haddida turishi, nafsini jilovlab yashashi, soli amallar ilinjida umir sarflashi lozim, degan umumbashiriy g'oyalar mujassamligi bilan ham qadirlidir.

Ulug' shoir matnaviy merosiga muhabbat nazari bilan qarash, uni muola' qilish, undan o'rganish ijodkor hayot bo'lgan davirdan iptido topib, hamon ischil davon etib kelmoqda.

---

<sup>33</sup> Mirzo Bedil. Kulliyot. Kobul, 1920. 25 bet.

Mirzo Bedil shariyati, umuman, adabiy merosi ustida mulohaza yuritiladigan ishlarda adib ifoda uslubining “murakkabligi”, “dushvor faximligi”, “uslubu hindi” (sabki hindu), uning asoschisi hususida qizg`in baxsi muloxazalar yuritiladi. Hind mumtoz adabiyot shunosi SHibli Nu`moni shunday fikrlarni ko`roq targ`ib qilsa sabki hinduning asoschisi sifatida Mirzo Bedilning qayt etadi.

Fors-tojik adabiyotining qadimgi qatlamiga doir jiddiy ilmiy tatqiqotlar yaratgan Ye Bertelis uchun forsiy shariyatning tarixiy taraqqiyot janrlari uning tadrijiy rivoji oshno edi. CHindan-da, abu abdullox Jafar Ro`dakiy, Abulqosim Firdafsiy, Solmon Sovaji, SHayx Sadiy, Xoja Xofis singari daxo sanatkorlarining nazmi bisotini “murakkablik” va “dushvor bayonlik” dan xoli deyish to`g`ri bo`lmaydi.

XV asirga qadar bo`lgan fors tojik adabiyotining eng go`zal ananalarini o`zida umumlashtirgan va xaqli ravishta adabiy merosi forsiyzabon adabiyotining oltin kuzi unvaniga sozovor ko`rilgan Nuriddin Abdurahmon Jomi asarlari hammaga birday tushunarli va falsafiy pech – darpech mushohadalaridan xolimi? Hindistondagi forsiy adabiyotning darg`alari hisoblanuvchi Amir Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviylarning “e`joz maqomi” dagi sherlarining mohiyatiga yetmoq uchun ular atrofida haftalab moshohada yurutish darkorku? aytilgan jihatlarga tayanib takidlash mumkunki, asirlar davomida qadralardan bunyod bo`lgan uslubiy jilov Mirzo Bedil ma`naviy merosiga jarangdor jilg`a misol oqimini davom ettiradi.

“Odam ush-shuaro” Ro`daki, masnaviygo`ylik sardaortaviy – Abulqosim firdavsiy, pand – nasihat adabiyotining yalovbardori – Shayx Sa`diy, Rindi louboli” – hoja hofiz, “Sohiri Hind” – Amir Xusrav Dehlaviy – “ Orifjon “ Abdurahmonjomiylarning manaviy merosi singari faylasuf so`z asanat kabi Mirzo Bedilning jozib badiiy yaratmalari faqat Hindiston hududida qolib ketmadi. XVIII asirning ikkinchi yaridan boshlab bu noyob iste`dod sohibining nomi hamda dilbar asarlari Markaziy osiyoda ham shuxrat taratdi.<sup>34</sup> Maktab, masjid va madrasalarda Quroni Karimdan keyin bolalar zehnini charxlash, fakir ko`lamini boyitish vanutqini ravonlashtirish maqsadida boshqa ardoqli qalamkashlar qatorida Mizo Bedilning nazmiy hamda nasriy asarlarini tavsiya qilish odat tusiga kirdi. Bugungi O`zbekistonning qator markazlarida (jumladan, Buaxoroi SHarifda) bedilxonning qutlug` ananaga aylandi. O`zbek mumtoz adabiyotining keyingi avlofi o`rtasida Mirzo Bedilni o`ziga ustoz biluvchi unga payravlik qilib, asarlariga muxammas bituvchilar soni ko`payib ketdi. Jumladan, Xorazim adabiy muhitining zabardas arbobi SHermuhammad Munis (1778-1829) “manga” radifli g`azalida o`zining ma`naviy taqdiriga muhim ahamiyat

---

<sup>34</sup> Qarang: Rahim Vohidov. Teran tafakkurga yo`g`rilgan shariyat. Bedil va o`zbek ma`naviyat. 70-71-betlar.

kasb etgan Shayx Nizomiy, Abulqosim Firdavsiy, Abdulla Ansoriy, Anvaliy, Xoja Hofiz, Shayx Sa'diy, Amir Xusrav, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylarga bo'lgan yuksak muhabbatini ishor qilar ekan, Mirzo Bedil haqida yozadi:

Nushai ta'yid Bedildin topib fayzi suxan  
Ma'ni ichra nomai iqboli tomidur manga.

XIX - XX asir ibtidosida yashab qaoliyat ko'rsaygan Rojiy Marg'iloniy (1834-1918) Mizo Bedilning forsiy g'azaliga muxammas bog'lar ekan shunday satrlar bitib qoldirgan edi.

Kulahi zarat badehlist biravu biyor, Bedil,  
Basari hubobi roji – ba dame guzor, Bedil.  
Bag'urur tobibolat, batu nangu or, Bedil,  
“Havasi kulahdoriy zisarat baror, Bedil,  
Bachi nozad ustuxone, kidar humo meshasta”

Bunday misollarni o'zbekmumtoz adabiyotidan yana ko'plab keltirish mumkin. Xususan, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr yuz yillik ibtidosida Buxoro adabiy harakatchiligida Mirzo Bedilga Payravlik o'z haddi alosiga yetgan. Zikri o'tgan davr adabiy hayotida burulish nuqtasini boshlab bergan Ahmad Donish, ustoz Sadridin Ayniy tomonidan ustoz maqomida qabul qilingan Mirsiddiq Hayratning sherxonlik bazmlarida yetakchi mavzu Mirzo Bedil adabiy merosi hisoblangan. Ayniy anana yangi o'zbek adabiyotining katta avlodi faoliyatida ham qizg'in davom etgan. Buni XX asr yangi o'zbek adabiyotining yirik vakili, faylasuf va hozirjavob vakili, shoir G'ofir G'ulomning ijodida ham ravshan ko'rishimiz mumkun. Zamondoshlari shahodaticha, G'ofur Gulom ishxonasida Mirzo Bedilning kulliyoti hamisha ochiq turgan va shoir deyarli har kuni uning mutolasi bilan mashg'ul bo'lgan. Akademik shoir tarjimon holida ifodasini topgan quyidagi qaydlar ham o'ahnday xulosa uchun yetarli asos vazifasini o'taydi: “...yillar og'ir va asta o'tar edilar”. Men ham endi mahallamizdagi Hasanboy domlaning maktabida Bedildan “maslak” ka o'tib tugatgan edim.<sup>35</sup> Ko'rinadiki XX asr boshida faoliyatini davom qilayotgan masjid oldidagi boshlang'ich maktablarda Bedilxonlik davom qilgan. Shu bilan bir qatorda So'fi Olloyorning “sabotul ojizin”, “maslak ul-muttaqin” asrlari ham o'qitilgan. Ana o'sha darslar doirasida Mirzo Bedil ma'naviy merosi bilan oshnalik G'ofur G'ulomni bir umrga o'ziga band qilgan.

---

<sup>35</sup> O'sha asar. 73-bet.

Yoshlik jo'shqinligi bilan uning yuragiga muhrlangan bo'lsa kerak, akademik shoir sheriylarida ham ulug' faylasuf adibga bo'lganyuksak sadoqatini aks ettirib boradi. Uning teran tafakkur hosilasi bolgan "sog'inish" sheridagi manabu satrlar ham o'shanday ishqning nishonasidir.

Tong otar chog'ida juda sog'inib,  
Bedil o'qir edim chiqdi oftob.  
Loyqa hayolatlarchashmaday tindi  
Pok pokiza yurak bir qatra simob.

G'afur G'ulom zavqga to'lganda yoxud boahiga musibat tushganda fors-tojik adabiyoti darg'alariga xususan, Mirzo Bedilga murojat etgan. Buni akademik shoirning "yangi yil" qo'shiqlari misolida ham yorqin ko'rish mumkin. Sger yangi 1945- yilning arafasida yozilgan. Unda tasvirini topgan sher qahramoning kayfiyati juda baland. Bu besabab emas albatta ayni yil ikkinchi jahon urushi uchun burulish sanasi hisoblanadi. Fashistlar Germaniyasi Sobiq Savet ittifoqi sarhadlaridan uloqtirib tashalgan, qator g'arb davlatlari ham o'sha och ofatdan halos bo'lmoqda edi. Tabiyki bunday quvonchli malumodlar akademi shoir ilhomiga jo'shqinlik baxsh etgan va G'afurona satrlar quyulib kelgan:

Shafaqdek qirmizi mayga yo'lsa jon,  
Ne uchun o'qimas Hayyom?!  
Aziz umirlarga devorcha bo'lgan,  
Eng baland tolelar yuksalar mudom.

Bu yil asrimizning go'zali bo'lur,  
Go'yoda sherda Bedil g'azali bo'lur.  
Jahonga ozodlik va shon baxsh etgan  
Avlodlarning baxti azaliy bo'lur!

Mekbin akademikning shoirning mazkur misralari go'yo bugun uchun yozilganday aks-sado beradi. Istiqloq yo'da shaxdam qadamlar bilan olg'a intilayotgan ona O'zbekiston, uning adabiyotu adabiyotshunosligi XXI asrning go'zal rivoju ravnaq yillari bo'lur. Jahon hamjamiyatida o'z o'rni baxti va toleyini topayotgan vatanga esa nafasat bazimlar yarashur. Tabiyki o'shanday jonon davrlarda Mirzo Bedilning erk ozodlik, adolat, insonparvarlik, osoyishtalikni tarannum etuvchi jarangdor g'azallari shariyatga oshufta qalblarga safo baxsh etguvchidir.

O'bek va tojik adabiyotida oddiy xalq orasida Bedilning ijodi, unga ergashuvchi yuzlab ijodkorlar oldin ham hozir ham ko'pdir. Ular Bedil asarlarini qiroat qiluvchilar "Bedilxonlar" deb ataladi.

“Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari” mavzusida asar I. Moʻminov tomonidan 1946-yil yozilgan. Asar birinchibor Samarqand Davlat Universiteti tomonidan nashir etildi. Keyinchalik maskur kitob koʻp sonli kitobxonlarning iltimosiga koʻra tuzatilgan va qoʻshimchalar kiritilgan hamda 1958-yil nashir etildi. 1974-yilda esa “Mirzo Bedil dunyo qarashi” qyrim tuzatishlar qisqartirshlar hamda yoʻdirishlar kiritilgan holda Toshkenda nashir qilindi.<sup>36</sup>

Bedilning fikricha, insonning baxt saodati boyli ortirish, amalgam ega boʻlishgav emas balki fanni oʻrganish, bilimlarga ega boʻlish bilan bogʻliqligidadir. Uning yozishicha: “johillikka berilsa don aylanar, va aksincha ilm-marifat ila poʻchoq aylanar donga. Kimki fan sohasida yoqar ekan sham uning nomi yashar abadiy.” U jaholat ustidan ilm marifat tantana qilishi gʻoyasini olgʻa suradi. I. Moʻminov bu muammoning jiddiyligiga ur gʻu berib Bedilning soʻzlarini keltiradi:

Amaliy ish bilan, tajriba bilan bogʻlanmagan ilim – kishining yuragiga aqliga faqat ogʻirlik yuklab turadi.<sup>37</sup> I. Moʻminov Bedilni yangilik maftuni, sharq adabiyoti va falsafasida yangi yondashuvlar bilan oʻzini tanitgan deb biladi.

Mirzo Bedil oʻz davri, oʻz muhiti sharoitida inson, jamiyat, ijtimoiy hayot togʻrisida oʻz mulohazalarini u yoki bu tarzda bayon etadi. Bu borada inson muammosiga, uning erkinligiga alohida etibor qaratadi.

Insonlarni salbiy jihatlarini dangasalik, maker hiyla, qaloblik, igʻvogarlik, yolgʻonchilik, aldoqchilik ochkozlik, xasislik, kibr kekayishni tanqid qiladi. Mehnatsevarlik, bilimli boʻlishlik xislatlarini kuylaydi, kamtarlikda kamol degan xalq maqolini xaqlliligini tasdiqlaydi.

Mirzo Bedil inson fazilatlarini nuqson-illatlarini umumiy holatda koʻrsatadi.

Axloqiy qoidalarga toʻxtaliab ularni quydagicha bayon etadi: ikkiyuzlamachilik, aldanchilik, kelishmovchilikgina ems balkiularga moillikninkeskin tanqid qiladi. Tarki dunyochilik, tilamchilik mehnatsiz hayotni keskin tanqid qiladi. Uning insonparvarona yondashuvi insonning irqidan, millatidan, dinidan, tabaqasidan qatiy nazarhurmatga loyiqqligini uqtiradi. Har bir inson oʻz vataning sodiq farzandi, oʻz elining gʻamxoʻri boʻlishi lozim deydi. U oʻz vatani bolgan Hindistonni uning xalqini sevgan va oʻz ijodi bilan uning ravnaqiga hissa qoʻshishga intilgan. Kishilarning birxil bir dajada emasligini axloqiy tushunchalar bilan ifodalagan.

Inson erkinligi xususida fikr yurutganda Mirzo Bedil falsafasini zaruriyat va tasodif, zaruriyat va imkoniyat katigarialari xususida tushuntirshga

---

<sup>36</sup> Qarang: Muxtabar Abdullayeva. Ibrohim Moʻminov-Bedilning ijtimoiy-falsafiy fikrlari tadqiqotchisi. Bedil va oʻzbek maʼnaviyati. 93-bet.

<sup>37</sup> Ibrohim Moʻminov. Mirzo Bedil (dunyoqarashi). T.1974,97-bet.

urunadi. Uning fikriga ko'ra, hamma narsa zarurat qonuniga bo'ysundirilgan. I, Mo'minov ushbu fikrni taxrir etib Mirzo Bedil "shu zarurat bilan bir qatorda imkoniyat mavjuddir, har bir kishining erkinligi mavjud imkoniatdan kelib chiqadi",<sup>38</sup> degan fikrni bayon etadi.

Haqiqatda inson o'z faoliyatida mavjud bo'lgan turli imkoniatlardan foydalana olishi zarur kishi erkinligi uchun doimo imkoniat bor.

Mirzo Bedilning irfon asarini tahlil qilgan I. Mo'minovning qayd etishicha, Bedilcha, o'z hayotini yaxshilash uchun insonda imkoniat mavjud. Bu imkoniat, uning nuqtai nazaricha, kishining havsalasi harakatchan bo'lishida bilim o'rganishi va mehnat qilishidadir.<sup>39</sup> Bu holda erkinlik o'ziga bog'liqligini anglatadi.

Mirzo Bedil jamiatshunos sifatida dehqonchilik ziroatchilik davlatchilikning kelib chiqishi bo'aycha ham o'z fikr mulohazalarini bildiradi. U jamiatning ijtimoiy taraqqiyoti asosida yetakchi omilini insonning aqil idrokidan, hikmat va fandan izladi.

Mirzo Bedilning chuqur falsafiy manoga ega. U o'z faoliyati bilan sharq falsafasi rivojiga katta tasir o'tkazdi. Uning falsafiy dunyo qarashi barcha zamonlarda ilm qhlining diqqat etiboridadir.

Mutafakkir shoir, insonparvar, vatanparvar, zamonasining fozil farzandi Mirzo Bedil jamiatshunoslik, tabiatshunoslik bilish nazariyasi sohalarida o'zining qimmatli fikrlarini ayta olgan.

---

<sup>38</sup> O'sha asar, 98-bet.

<sup>39</sup> O'sha asar, 99-bet.